

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK374

Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna

**MAVZU: “OSHIQ TURKUM DOSTONLARINING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA BADIYYATI”**

5A151601 – Xalq ijodiyoti (Folklor va etnografiya)

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

ILMIY RAHBAR: filologiya fanlari doktori, professor

J.S.Eshonqulov

*Mazkur dissertatsiya ishi kafedraning 2019 yil _____dagi
_____ - sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.*

Toshkent-2019

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. “OSHIQ TURKUM” DOSTONLARNING O‘RGANILISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
1.1. “Oshiq turkum” dostonlarining o‘rganilishi masalalari	10
1.2. “Oshiq turkum” dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari	18
II BOB. “OSHIQ TURKUM” DOSTONLARIDAGI YETAKCHI MOTIVLAR TALQINI.....	33
2.1 “Oshiq turkum” dostonlarida tush motivi.	33
2.2 “Oshiq turkum” dostonlarida uylanish motivi	47
III BOB. “OSHIQ TURKUM” DOSTONLARINING BADIYATI.....	59
3.1. “Oshiq turkum” dostonlarida badiiy tasviriy vositalar	59
3.2. “Oshiq turkum” dostonlaridagi yetakchi ramzlar talqini.....	75
XULOSA	98
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:	104

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. O‘zbek folklorshunosligida epik asarlarning syujet tizimini struktural - semiotik jihatdan o‘rganish, xususan, “oshiq” turkum dostonlarining mifologik va hayotiy asoslari, matn qurilishidagi badiiy-estetik vazifasi, badiiy namoyon bo‘lish shakllarini tadqiq etish dolzarb muommolardan biri sanaladi va bu millatning ma’naviy qiyofasini namoyon etadi deya baholanadi.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo‘lgan og‘zaki ijod namunalariga yangicha yondashish, ularni milliy, madaniy, adabiy, tarixiy qadriyatlarimizning tiklanishi manfaatlari nuqtai nazaridan tadqiq etish tamoyillari shakllandi. Zero, “har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi”¹. Folklor asarlarining qaytadan xolisona baholanishi, o‘zbek xalqining g‘ururi bo‘lgan “Alpomish” dostoning ming yilligi xalqaro miqyosida nishonlanishi, folklor ijrochiligini rag‘batlantirish va turli darajadagi unvonlarning ta’sis etilishi, o‘zbek xalq ijodi yodgorliklari 100 jildligining nashr etila boshlanishi bilan epik turga tegishli asarlarni turli metod va nazariy qarashlar asosida tadqiq etish, ularning syujet tarkibida yetakchi o‘rin tutuvchi asosiy motivlar tizimi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va badiiyatini atroflicha o‘rganish imkoniyati yanada kengayadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: ma’naviyat, 2008. – B.30.

avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yoʻnalishlaridan biridir”,² degan fikrlari ilmiy tadqiqot ishimizga asos qilib olindi. Taʼkidlash joizki, bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan vazifalar asosida xalq ijodi asarlarini hozirgi zamon jahon filologiyasining eng yangi nazariy kontseptsiyalari asosida tadqiq etish bugungi folklorshunosligimizda yetakchi tamoyilga aylanishi lozim. Chunki ilm-fan, adabiyot sohalarini yangi pogʻonaga olib chiqish ijtimoiy sohani rivojlanishdagi ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilanishi ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarga yanada katta yoʻl ochib beradi.

Bundan tashqari, yaqindagina Prezidentimiz tomonidan 2018 yil 1 noyabrda qabul qilingan “Xalqaro baxshichilik san’ati festavilini oʻtkazish toʻgʻrisida”gi qaroriga binoan har ikki yilda Surxondaryo viloyatida Xalqaro baxshichilik sa’nati festivalini oʻtkazish belgilanib, 2019 yil 5-10 aprel kunlari yuqoridagi qarorga asosan Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida ilk marotaba xalqaro baxshichilik festivali boʻlib oʻtishi, ana shu fikrlarning yaqqol dalolatidir, deb aytsak mubolagʻa boʻlmaydi.

Qadimiy epik anʼanalarni oʻzida mujassam etgan dostonlar xalqimizning mifologik tasavvurlari, eʼtiqodiy qarashlari, turmush tarzi va maʼnaviyatini oʻzida mujassamlashtirilganligi uchun yosh avlodga kuchli badiiy-estetik taʼsir koʻrsatish imkoniga ega. Ularni tadqiq va targʻib qilish orqali millatimiz maʼnaviyati va madaniyati tarixiga oid koʻpgina maʼlumotlarni bilib olish mumkin. Shuning uchun dostonlarning oʻziga xos badiiy xususiyatlarini chuqur oʻrganish xalqimiz badiiy tafakkurining qonuniyatlarini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi.

² Mirziyoyev Sh. 19-oktabr kuni “Taʼlim va maʼrifat tinchlik va bunyodkorlik sari yoʻl” mavzusi, 43-sessiyasidagi nutqi. – Toshkent, 2016. www.gazeta.uz

O‘zbek folklorining boyligi, rango-rangligi, har bir hududning o‘ziga xos betakror og‘zaki ijod namunalariga, an‘ana va ijro usullariga egaligida ham namoyondir. Xorazm dostonlari tarkibida “Oshiq” turkum dostonlari alohida ajralib turadi. Birgina “oshiq” atamasining o‘zi ham har qanday tinglovchi, o‘quvchi diqqatini tortadi. Ushbu turkumga mansub dostonlarining o‘ziga xos tabiatini belgilash, bu tip dostonlarining asosiy syujet ko‘rinishlari va yetakchi motivlarini aniqlash, asosiy obrazlarini tadqiq etish barobarida bu tip asarlarda mifologiyaning tutgan o‘rnini xalq dostonlari shakllanishi va badiiyatidaga rolini ko‘rsatishga alohida ilmiy qimmatga ega.

Bu dostonlarning barchasida o‘ziga xos tabiati, ramzlar talqini, badiiy tasvir vositalarning, epik qahramonnig uylanish motivi, tush motivi va hayotiy keyingi voqealari bilan bog‘liq boshqa ko‘plab motivlar silsilasi yuzaga kelgan. Ularning barchasini mazmuni va shaklning uyg‘unligi badiiyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish ishimizning **dolzarbligini** belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad Xorazm “oshiq” turkumi dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, syujet tiplari, mifologik tiplari va motivlar tizimini o‘rganish, mifologik tasavvurlarning an‘anaviy epik motivlar genezisida tutgan o‘rnini tadqiq etishdan iborat bo‘lib, ilmiy ishni yozish jarayonida quyidagi masalalarga asosiy e’tibor qaratiladi:

- “oshiq” turkumi dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ilmiy tavsiflash;
- “oshiq” turkumi dostonlarining yetakchi motivlarini boshqa doston turkumlari bilan qiyoslab, tahlil qilish;
- “oshiq” turkum dostonlaridagi yetakchi motivlarining tarixiy-mifologik va **marosimiy** ildizlarini ochib berish;

- mifologik tasavvurlar va marosim folklori bilan aloqadorlikda “oshiq” turkumi dostonlaridagi tush motivi hamda uylanish motivlar geneziyasini tekshirish;
- “oshiq” turkumi dostonlarida badiiy tasviriy vositalarning badiiy-estetik vazifasi, asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini ko‘rsatish;
- “oshiq” turkum dostonlaridagi yetakchi ramzlar talqinini o‘rganish hamda tasniflash;

Mazkur risoladan ko‘zlangan asosiy maqsad Xorazm “oshiq” turkumi dostonlari misolida ana shu muommalarni imkon qadar tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti va predmeti. Ishning tadqiqot ob’ekti sifatida Xorazm dostonlarining S.R.Ro‘zimboyev rahbarligida amalga oshirilgan nashri³, J.Eshonqulov tomonidan nashr qilingan ilmiy tadqiqot materiallari⁴ tanlandi va ular tomonidan taqdim qilingan elektron variantidan ham keng foydalandi. “Oshiq” turkum dostonlariga oid barcha tarixiy-etnografik materiallar va ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganish esa tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Ilmiy yangiligi: O‘zbek folklorshunosligida “oshiq” turkumi dostonlari alohida tadqiq etilmagan. Ammo bu turkumga kiruvchi ayrim asarlar, xususan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud”, “Oshiq Alband”, “Oshiq Najab” hamda “Hiloli pari va G‘arib” dostonlari turkiy xalqlar va o‘zbek folklorshunosligida ma’lum darajada to‘liq o‘rganilmagan. Bu o‘rinda, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining o‘zbek, qoraqalpoq, ozarbayjon, turkman tillarida nashr etilganligi⁵, M.

³ Oshiqnoma, IV kitob, Urganch, 2009.(Nashrga tayyorlovchilar S.R.Ro‘zimboyev, S.S.Ro‘zimboyev, G.Eshchanova)

⁴ Eshonqulov J.S. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent, Fan, 2011; Folklor: Obraz va talqin. – Qarshi, Nasaf, 1999.

⁵ Bola baxshi. “G‘arib va Shohsanam” // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1938. - № 9 – 19-22 betlar; Shaxsenem – Garip. - Ashgabad, 1959; Ғарыб ашиқ. Басмага тайярлаган: Х.Тажимуротов. – Ноқис, 1960; Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам. Нашрга тайёрловчи: З.Хусаинова. – Тошкент, 1959; Ашиқ Ғариб ва Шоҳсанам. Азербайжан халқ дастанлари. 2-китоб. Бақы, 1961.

Shayxzoda, V.Abdullayev, X.G.Ko‘ro‘g‘li, S.Yakuboyev, G.Eshchonovlar “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonini u yoki bu darajada tadqiqot etganlarini⁶ qayd qilib o‘tish kerak. Bu ilmiy ishlar mazkur turkumga kiruvchi bir asar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, “oshiq” turkumi haqida yaxlit tasavvur uyg‘ota olmaydi. Shuning uchun ham bu turkumga mansub barcha asarlar jamlanib, ularning o‘ziga hos belgi - xususiyatlari, syujet tuzilishi, motiv va obrazlarining tarixiy asoslarini maxsus o‘rganishga ehtiyoj tug‘iladi.

Bevosita, aynan shu ilmiy tadqiqotimiz badiiy xususiyatlarini o‘rganish, tasnifi masalalarini qiyosiy tahlil etish jarayonida yuzaga kelgan quyidagi ilmiy, nazariy va amaliy natijalarni o‘zbek folklorshunosligi fani uchun ahamiyatli bo‘lgan yangilik sifatida e’tirof etish mumkin:

- o‘zbek folklorshunosligi materiallari, mavjud ilmiy adabiyotlar, tarixiy-etnografik va yozma manbalarga suyangan holda “oshiq” turkum dostonlarining badiiy xususiyatlari tadqiq qilindi;
- “oshiq” turkum dostonlaridagi yetakchi motivlar tasnifi qiyosiy o‘rganildi;
- “oshiq” turkum dostonlarining badiiy xususiyatlari ko‘rsatilib berildi va uning yuzaga kelish tarixi, mifologik asoslari bilan chambarchas bog‘liqligi qiyosiy o‘rganildi;
- “oshiq” turkum dostonlarining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan poetik modellarning shakllanishida qadimgi inonch-e’tiqodlar va arxaik miflarning o‘rni va vazifalari oydinlashtirildi;

⁶ Shayxzoda M. “G‘arib va Shohsanam” dostoni haqida // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1939. - № 9 – 23-24 betlar; Abdullayev V. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” // O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Toshkent, 1964. – 43-44-betlar; Короглы Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. – Москва, 1983. С.248-316; Якубаева С. Азербайджанское народное сказание “Ашыг Гариб”. – Баку, 1968.

- “oshiq” turkum dostonlarining kelib chiqishi hamda badiiy-estetik an’analari bilan mushtarak jihatlarga egaligi ko‘rsatib berildi;
- “oshiq” turkum dostonlarida ramzlar talqini tasniflandi va to‘liq yoritildi;
- “oshiq” turkum dostonlardagi badiiy tasvir vositalari har bir syujet bilan uzviy bog‘liq ekanligi tahlil etildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Tadqiqotning asosiy masalalari “oshiq” turkum dostonlarining badiiy xususiyatlarini tahlil qilish va qiyosiy tasniflash, dostondagi asosiy syujet ko‘rinishlari va yetakchi motivlarini aniqlash, asosiy obrazlarini tadqiq etish barobarida bu tip asarlarda mifologiyaning tutgan o‘rni, xalq dostonlari shakllanishini o‘rganib chiqish, asardagi badiiy tasvir vositalari har bir syujet xususiyati bilan bog‘liqligi hamda yetakchi ramzlar talqini masalalarini o‘rganish, ularni tahlil va tadqiq etishni faraz qilish mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili); Xorazm dostonlarini mifologik asos va motivlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Hatto, Xorazm “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlariga nisbatan “oshiq” turkumi va ishqiy-sarguzasht mavzusidagi dostonlarda mifologiyaning ta’siri kuchliroq ekanligini bu tip dostonlarining syujet qurilishi yetakchi motivlar hamda yetakchi ramzlar misolida aniq ko‘ramiz. Bu tipga kiruvchi dostonlar “Go‘ro‘g‘li” turkumi tashkil etuvchi epik asarlarga nisbatan qadimiy syujet sxemasiga ega. S. Ro‘zimboyev ushbu fikri juda to‘g‘riligini “oshiq” turkum dostonlarining syujeti qurilishi va undagi yetakchi motivlarning tadqiqi yanada aniqroq ko‘rsatadi.

Binobarin, “oshiq” turkum dostonlarining badiiy xususiyati, yetakchi motivlar, yetakchi ramzlar hamda badiiy tasvir vositalar folklorida juda keng ishlangan. Ushbu masalalar o‘zbek folklorshunosligida V.M. Jirmunskiy, H.T. Zarifov, T. Mirzayev, K.Imomov, M. Murodov, S. Ro‘zimboyev, J. Eshonqulov va boshqa bir qator folklorshunoslar tomonidan yozilgan tarixiy faktik materiallari, nazariy xulosalaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqotimizda ko‘rilayotkan masalalar umumjahon miqyosida ko‘pdan beri o‘rganilib kelayotganligi sababli Dj. Frezer, M.I.Shaxanovich, Yan Parandovskiy, V.Ya.Propp, Ye.M. Meletenskiy, G.P.Snesarev, T.Mirzayev, M.Saidov, K.Imomov, M. Madayev, S. Ro‘zimboyev, M.Jo‘rayev, G‘. Akromov, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, T.Rahmonov, J. Eshonqulov kabi xorij va o‘zbek olimlarning tadqiqotlari ishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda mavzuning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda qiyosiy-tipologik metodga tayanildi.

Tadqiqotning natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Mazkur ish o‘zbek folklorshunosligida kam o‘rganiladigan soha - “oshiq” turkum dostonlarining yetakchi belgi, xususiyatlarini alohida monografik yo‘nalishda o‘rganish nazariy hamda amaliy jihatdan ahamiyatga molik bo‘lganligi tufayli, kelgusida shu masalada olib boriladigan ishlarda nazariy manba sifatida xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Ish tuzilmasining tavsifi: Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I.BOB. “OSHIQ TURKUM” DOSTONLARINING O‘RGANILISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSSIYATLARI

1.1. “Oshiq turkum” dostonlarining o‘rganilishi masalalari

O‘rta Osiyo xalqlari dunyodagi boshqa xalqlar qatori o‘zining eng qadimgi va boy madaniyatiga, adabiy tarixga ega. Xalqimiz kishilik madaniyatini eng qadimgi beshiklaridan hisoblanadi. Bizning hududimizda yashagan qabilalarning bir qismi ko‘chmanchilik bilan hayot kechirgan bo‘lsa, ikkinchi bir qismi o‘troq holda yashagan. Ko‘chmanchilik bilan hayot kechirganlari chorvachilik va ovchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, o‘troq holda yashaganlari dehqonchilik, hunarmandchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Davrlar o‘tishi bilan xalq sun‘iy sug‘orish, inshoot ishlarini keng yo‘lga qo‘ya boshlaganlar. Uzoq davom etgan tarixiy protsess natijasida O‘rta Osiyo mintaqasida yashagan qabilalar chatishib ketkanlar.

Natijada, o‘zbek xalqining uch katta etnik guruhdan tashkil topganligi ilm ahli o‘rtasida xrestmotiv faktga aylangan. Ya’ni, qorluq, qipchoq, o‘g‘iz qabila birlashmalarining birkuvi asosida o‘zbek xalqi vujudga keldi. Binobarin, bevosita xalqning hayoti, turmush tarzi, tarixi bilan chabarchas bog‘liq folklor asarlarini o‘rganishda, xususan ularning tub ildizlarini yoritishda ushbu masalani chetlab o‘tish katta xato bo‘ladi.

Biz bilamizki, qipchoq, o‘g‘iz, qorluq qabila birlashmalari boshqa joylarda ham turkiy xalqlarning shakllanib, tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu holat, o‘z navbatida, O‘zbekistonning u yoki bu urug‘-qabila birlashmasi dominantlik qiluvchi hududidagi

folklor namunalарining o‘z tarkibida ayni urug‘-qabila mavjud boshqa qardosh xalqlar folklori bilan mushtarak jihatları vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

T.Mirzayev ta’kidlaganidek, “turli urug‘ va qabilalar bir necha xalqlar orasiga tarqaladi. Genetik asosi bir bo‘lgan ma’lum bir syujet endi yangi ijtimoiy muhitda turlicha talqin qilinadi va turlicha rivojlana boshlandi. Buning natijasida ular orasida prinsipial farqlar vujudga kelsa-da, har bir xalq o‘z milliy hususiyatlarini, o‘z taqdirini unda ifodalaydi. Bunday holda versiya vujudga keladi. Masalan, “Alpomish” dostonining o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq versiyalari kabi”.⁷

Shubhasiz, bizning ilmiy tadqiqot ob’yektimiz bo‘lmish “oshiq” turkum dostonlarining paydo bo‘lishi va shakllanib, turkiy xalqlar o‘rtasida tarqalishida ham ushbu muhim omil amal qilganligini kuzatamiz.

Ma’lumki, “Oshiq” turkum dostonlari o‘zbek folklorida faqatgina Xorazm vohasi hududida tarqalganligi bilan boshqa dostonlardan ajralib turadi. Shu bilan birgalikda, bu turkumga kiruvchi asosiy asarlar namunasi turkman, ozarbayjon va turk folklorida yetakchi dostonlardan hisoblanadi. Ushbu doston personajlari ayni xalqlar orasida eng sevimli xalq qahramonlari sifatida qadrlanadi. Ayni paytda, ushbu xalqlar bilan bevosita yaqin madaniy aloqada bo‘lgan arman, gruzin, kurd va boshqa xalqlar orasida ham ushbu dostonlar mashhur. Bir so‘z bilan aytganda, “oshiq” turkum dostonlari etnik tarkibida o‘g‘iz qabila birlashmalari dominantlik qiluvchi millatlar va ular bilan yaqin adabiy-madaniy aloqada bo‘lgan xalqlar orasida keng yoyilgan bu turkumning o‘g‘iz epik an’analari asosida shakllanib, rivoj topganidan

⁷ Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuarlari. – Toshkent: Fan, 1979. B. 75.

dalolat beradi. Shu jumladan, umumo‘g‘iz folklor an‘analarining Xorazm xududidagi folklor ijrochiligida ustunlik qilishi o‘z tabiiy asoslariga ega. “Oshiq” turkum dostonlarining qardosh versiyalari bilan aloqasi masalalari garchand, bizning tadqiqotimiz ob‘yektiga kirmaganligi sababli, bu qiziqarli va shu bilan birga, juda katta masalaga maxsus to‘xtamaymiz. Ushbu muammo juda ko‘p tadqiq etilganligi va bu mavzuda folklorshunos olimlarning anchagina fikr hamda mulohazalarini bildirganliklarini ta’kidlab o‘tishimiz joizdir.

Darhaqiqat, “oshiq” turkum dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, yetakchi motivlar talqinini hamda dostonning badiiyati haqida fikr yuritishimizdan avval “oshiq” turkumi va uning xalq og‘zaki ijodida, ya’ni umumo‘zbek dostonlarida, xususan, Xorazm vohasi dostonchiligidagi o‘rni to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz. Aynan shu masalani tahlil qilmay turib, “oshiq” turkum dostonlari borasida hech qanday mushohada qila olmaymiz.

Xalq og‘zaki ijodiyotida, hususan, Xorazm voxasida azal-azallardan avloddan-avlodga o‘tib, xalq orasida sevib kuylanib kelayotgan dostonlar va dostonchilik an‘analari haqida taxsinga loyiq ilmiy tadqiqotlar mavjud. Binobarin, atoqli folklorshunoslarimiz H.Zarifov va V.T.Jirmunskiy “Узбекский народный героический эпос” deb nomlangan o‘z tadqiqotlarida bu borada alohida to‘xtalib o‘tishgan.⁸ Tadqiqotchilar Xorazm dostonchilik an‘analari nafaqat O‘zbekiston, balki Turkmanistondagi baxshichilik maktablari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlab: “Turkman va Xorazm baxshilarining o‘rtasida bordi-keldi

⁸ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. - Москва: ОГИЗ Государственное издательство художественной литературы, 1947. – С.54-56.

azaldan bo‘lgan, Xorazm baxshilarning turkman ustozlari va aksincha turkmanlarga ustozlik qiluvchi Xorazm baxshilari ko‘plab uchraydi, shu sababli ham O‘zbekistonning boshqa hududlarida uchramaydigan turkman folkloriga xos epik Xorazmda bo‘lishi tabiiy edi”⁹ - deb yozadilar. Ularning “Oshiq G‘arib” dostonlari haqidagi qarashlari ushbu tadqiqotimizning yoritib berishga katta yordam beradi hamda muhim ahamiyat kasb etadi: “O‘zbek baxshilari o‘rtasida keng tarqalgan ko‘pchilik turkman va ozarbayjon dostonlari (masalan, “Oshiq g‘arib”) O‘zbekistonga bevosita Xorazm orqali o‘tgan.”¹⁰. Bir vaqtda, Xorazm hududiga xos bo‘lgan turmush tarzi va madaniy an‘analari ham epik ijodga sezirarli ta‘sir o‘tkazganligi qayd etilgan. Bu o‘rinda olimlar shahar hayoti bilan chambarchas aloqada rivojlangan qishloqlar va baxshichilikdagi yozma adabiyot bilan uyg‘unlashib ketuvchi jihatlariga alohida urg‘u berganlar: “Bu hududda savodxon baxshilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ijro jarayonida baxshi dostonning she‘riy qismlarini qanday o‘rgangan bo‘lsa, shunday – badihasiz ijro etadi. Ba‘zi holatlarda dostonning mavjud qo‘lyozma nusxalariga tayanib, ijroda undan chetga chiqmaslikka intilishadi”¹¹.

Xorazm dostonlarining tadqiq etishda qaratish lozim bo‘lgan muhim jihatlaridan uning genezisi, syujet qurilishi, yetakchi motivlari, badiiy tasvir vositalari, umuman olganda poetik tabiatidir. Xorazm dostoni bo‘yicha folklorshunos S.Ro‘zimboyevning

⁹ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. - Москва: ОГИЗ Государственное издательство художественной литературы, 1947. – С.54

¹⁰ O'sha asar. – 55-bet.

¹¹ O'sha asar. – 55-bet.

tadqiqotlari bu jihatdan diqqatga sazovor¹². Binobarin, S.Ro‘zimboyev o‘zining “Xorazm dostonlari” kitobida Xorazm dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, tarqalishi va ijrochilari, Xorazm “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari va uning boshqa turkiy xalqlar variantlari bilan aloqasi haqida hamda “oshiq” turkum dostonlarining qiyosiy tahlili yuzasidan atroflicha fikr yuritgan. H.Abdullayev esa “Xalq dostonlari va ularning variantlari” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida Xorazmda kuylangan dostonlarni qoraqalpoq eposi namunalari bilan o‘zaro qiyosalab tahlil etgan. Bu o‘rinda mushtarak syujet va motivlar, obrazlar tipologiyasi hamda ertak va doston munosabatlari tekshirilgan. Bir qancha namunalar g‘oyaviy-badiiy jihatdan talqin qilingan. Shu bilan birga S.Ro‘zimboyevning quyidagi fikrlari alohida e‘tiborga loyiq: “Xorazmda tarqalgan dostonlarning barchasi ham ozarbayjon va turkman folkloriga aloqador emas. Aloqadorlari ham o‘zbek baxshilarining kattagina ijodiy qayta ishlashlari asosida ommalashgan. Shu bilan birga, Xorazmning o‘zida ham ko‘plab epik asarlar yuzaga kelgan va ularning eng yaxshilari, o‘z navbatida, boshqa xalqlar folklori xazinasidan mustahkam o‘rin egallagan. Jumladan, “Oshiq G‘arib va Shaohsanam”, “Asil va Karam” dostonlarning Jzarbayjon folkloridan, “Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining esa turkman folkloridan kirib kelganligiga shubha bildirish qiyin. Ammo “Yusuf va Ahmad”, “Miskin va Gilqand”, “Oshiq G‘arib va Hiloli pari”, “Malikai Zavriyo”, “Shahriyor” kabi dostonlar Xorazmning o‘zida yartilgan deb aytishga yetarli dalillar keltirish mumkin”¹³.

¹² Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlari. - Toshkent: Fan, 1985; Shu muallif. “Oshiq” turkumi dostonlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Toshkent. 1987.

¹³ Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlari. - Toshkent: Fan, 1985. B.18.

Xalq ijodiyotida dostonlar epik xazinasini bir butun deb hisoblansada, lekin har bir hududning o'ziga hos ma'naviy hodisasini yaqqol kuzatishimiz mumkin. Aynan, folklorshunosligimizda Samarqand-Jizzax, Surxondaryo-Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona vodiysi va Xorazm vohasidagi dostonchilik alohida-alohida olib qaraladi.

Bu shunchaki geografik-xududiy chegaralar asosida tuzilgan tasnif emas. Unda har bir joyda amal qiyuvchi epik an'analar, baxshichilikning ijrodagi o'ziga xosligi, epik repertuar va bevosita dostonlarning poetik tabiatini inobatga olgan holda guruhlariga ajratilgan. Aynan, Xorazm dostonchiligidagi ijro usuli mavjud, epik asarlarning kompozitsion qurilishi, ohanglari va boshqa bir qator jihatlari respublikamizning boshqa dostonchilik markazlaridan keskin farq qiladi. Xorazm dostonchiligidagi aynan shu holat quyida keltirilgan o'rinlarda o'z ifodasini topadi:

Dastavval, Xorazm baxshilari tashqi ovozda, yanada aniqroq aytilsa, qo'shiq, ashula ijrosiga uyg'un yo'lda doston kuylaydilar. Doston kuylovchi – baxshiga boshqa sozandalar jo'rlilik qilishadi.

Xorazm dostonlarining matni, xususan, ularning she'riy qismi turg'un ko'rinishga ega. S.Ro'zimboyev bu haqida shunday yozadi: “.....dostonlar tarkibidagi she'rlar ritmik jihatdan tugal uyg'unlashgan, silliqlashgan, badiiy jihatdan mukammal bo'lgan she'riy matn shakliga kirgan. Shu boisdan ham Xorazm dostonlaridagi she'riy parchalar qat'iy tartib asosida qofiyalashadi va bandlarga bo'linadi¹⁴. Yana bir o'ziga xos jihat shundaki, Xorazm dostonchiligidagi epik repertuarining aksariyat qismi ishqiy romanik turga mansub namunalardir.

¹⁴ Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari. - Toshkent: Fan, 1985. B.19.

Bevosita baxshilar ijrosidagi o‘ziga xos jihat xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, bugungi kunda baxshilar ikki yo‘lda o‘z asarlarini ommalashtirishyotganligi qayd etilgan. Ya‘ni: a) baxshilar va ansamblli xalifalar repertuari orqali og‘zaki tarzda; b) yakka xalfalar, qissaxonlar repertuari orqali kitobiy matn o‘qib yodaki eshtirish tarzida”¹⁵.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlar Xorazm dostonchiligi o‘z an‘analari, repertuarlari va boshqa jihatlari bilan umumo‘zbek epik ijodiyotida munosib o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatib turipdi. Shunday ekn, bu hududdagi epik ijod bilan bog‘liq barcha holatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etib, munosib bahosini berish umumo‘zbek epik ijodiyotini yanada teranroq tanish, ilmiy o‘rganish va keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish imkonini yaratdi.

Dostonlarni ichki turkumlarga ajratishda u yoki bu namunalarning o‘zaro bog‘liqligining ta‘minlovchi yetakchi ko‘rsatkichlar asos sifatida olinishini o‘zbek folklorshunosligida buni ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni, biron-bir qahramonning sulolasi, hayoti, muayyan epik makon va zamondagi faoliyati asosida bog‘lanuvchi dostonlar guruhiga turkum sifatida qaraladi. Masalan, qahramon biografiyasi bilan bog‘liq turkum dostonlar (kichik “Go‘ro‘g‘li” hamda Hasanxon, Avazxon haqidagi dostonlar) yoki nasriy turkumlik doirasida yuzaga kelgan dostonlar (Nurali va Ravshan haqidagi). Dostonlarni bu xildagi turkumlarga ajratish an‘anasi bevosita baxshilar epik repertuarida mavjud bo‘lgan asarlarni tahlil qilish va yuqorida keltirilgan mezonlarga tayangan holda tasnif etish natijasida vujudga kelgan.

¹⁵ Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlari. - Toshkent: Fan, 1985. B.21.

Bu natijalardan kelib chiqqan holda, dostonlardagi turkumlikni ikki guruhga jamlab ko'rsatish nisbatan ommaviy tus olgan va ko'pchilik tadqiqotlarda asosan aynan shu guruhlarga ko'proq urg'u berilganligini yaqqol namoyon bo'lgan. Ya'ni qahramonning hayot yo'li haqida hikoya qiluvchi *biografik turkum* va uning avlodlarini hayotini aks ettiruvchi *nasliy turkum* dostonlari atroflicha tadqiqot ob'yektiga aylangan. Shu jumladan, "oshiq" turkum dostonlarida asosiy tayanch mezon bosh qahramonning oshiq-baxshi ekanligidir.

S.Ro'zimboyev "Xorazm dostonlar" kitobining bir bo'limini bevosita "oshiq" bag'ishlab, bu turkumga kiruvchi namunalarga xos bo'lgan spetsifik xususiyatlarni tadqiq etar ekan, masalaning ana shu jihatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Folklorshunos haqli ravishda ta'kidlaganidek, "oshiq" turkumi asarlarida bosh qahramon qo'shiqchi, baxshi, jafokash oshiq sifatida namoyon bo'ladi".

Barcha "oshiq" turkumi dostonlari sirasiga kiruvchi epik asarlarimiz, masalan, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi G'arib dutor chertib qo'shiq aytuvchi mashhur baxshi - "ashug" edi. "Oshiq Alband" dostonidagi Albandjon ham oshiq Oydinning yetuk shogirdi, ya'ni baxshi sifatida tasvirlanadi. Shu asarning davomi bo'lmish "Oshiq Najab" ham oshiq-baxshi sifatida yaqqol ko'rishi mumkin. "Oshiq Maxmud" ham shu oshiqlar sirasiga kiradi.

Baxshi (ashug) lik "oshiq" turkum dostonlarida qahramonning yetakchi xususiyati bo'lishi bilan bir qatorda, uning o'z ma'shuqasi vasliga yetishi va ma'lum to'siqlardan o'tishida ham ana shu jihatlari asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

Bu holat “ Oshiq Alband ”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud” dostonlarida yanada aniq ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “oshiq” tukum dostonlarining o‘rganilishi masalalari bo‘yicha anchagina tadqiqotlar o‘tkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Atoqli folklorshunos olimlarimiz T.Mirzayev, M.Saidov, O.Madayev kabi olimlarining ilmiy asrlarida muhim qaydlar mavjud bo‘lsa-da, bu tip dostonlar xususida S.Ro‘zimboyevning tadqiqotlarida ancha jiddiy fikr-mulohazalar bildirilgan. Bevosita o‘z ilmiy tadqiqotimizda bu haqida yanada chuqurroq tahlil qilib, yangi, hali bayon qilinmagan fikrlarni bildirishni maqsad qilib oldik.

1.2. “Oshiq turkum” dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari

Mazkur dostonlarning o‘ziga xosliklari, syujeti, g‘oyaviy mazmuni, kompozitsiyasi, badiiyati va o‘zaro ta’sir jarayonlari hanuzgacha yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, to‘la shakllanmaganligini hisobga olsak, qardosh xalqlar og‘zaki ijodi namunalarni o‘rganish zaruratini ham kuchaytirishini ko‘rsatadi. Bularni barchasini inobatga olgan holda, “oshiq” turkumi dostonlarining o‘ziga xos jihatlarini to‘laqonli yoritish maqsadida “oshiq” atamasining kelib chiqishi va turkiy epik an’anada mavjud bo‘lgan “oshiq ijodiyoti” ning shakllanishi masalasiga munosabat bildirib o‘tish zarur bo‘ladi.

Aynan shu fikr-mulohazalar bevosita “oshiq” turkum dostonlaridagi yetakchi obrazlarga ham tegishlidir. Ayni paytda, bosh qahramonlarning ismiga sifatlovchi bo‘lib kelgan “Oshiq” so‘zi alohida diqqatga molik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da “oshiq” so‘zining quyidagi ma’nolari keltirilgan. “Oshiq [a] 1. Birovni judan sevib, unga shaydo bo‘lib qolgan, birovga muhabbat qo‘ygan kishi. 2. Ko‘chma. Biror narsani juda yaxshi ko‘rib qolgan unga berilgan”¹⁶.

“Oshiq” so‘zining lug‘atdagi boshqa, “Ayrim hayvonlarning orqa yog‘i tizza bo‘g‘imidagi biriktiruvchi chorqirra suyagi” va “Shunday suyakkam (odatda qo‘y oshig‘i) vositasida o‘ynaladigan o‘yini”¹⁷ ma’nolari bizning ob‘yekt doiramizga kirmaydi. Nima sababdandir lug‘atda “oshiq” ning *baxshi* ma’nosi keltirilmagan. Balki bu ma’no asosan shevaga xos deb diqqatdan chetdan qolgan bo‘lishi mumkin. “Oshiq” atamasining ayni ma’nosi o‘g‘iz guruhiga mansub yetakchi tillarda faol ko‘rinish olgan. Jumladan, ozarbayjon folklorshunosi M.Akimov bu haqida shunday yozadi: “Turkiy xalqlar o‘rtasida “oshiq” unvoning ilmiy tahlili va uning XV asrgacha tunguslar, yoqutlar, oltaylar, turkmanlar, gagauzlar, o‘zbeklar, qozoqlar qirg‘izlar, turklar, eron ozarbayjonlari o‘rtasida tarqalish ko‘lami hamda saya, sayachi, ugurdedi, ugurustau, oqsaqol, ata, dede, pirustad, pirbaba, ozan-uzan, varsag, ishig, ishman, oyuk, qam, afis, baxshi, oqin atamalarining shu xalqlar orasida ayni paytda qo‘llanilishi

¹⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-tom. – Moskva: Rus tili, 1980. B, 555.

¹⁷ Ko‘rsatilgan manba – B.555.

“oshiq” soʻzini anglatuvchi “xalq baxshisi” maʼnosiga uygʻun keladi”¹⁸.

“*Oshiq*” atamasining etimologik asosi arab tilidagi *ishq* soʻziga bogʻlanadi. Ozarbayjon olimi P.Afandiyev professor M.Taxmasibning “*Ashig*” soʻzining koʻklari arabchadagi “*ishq*” maʼnosini bildiruvchi “*ashg*” soʻziga borib taqaladi. “*АШЫҒ*” soʻzining etimologik asosi esa qadim turkiycha “*ash*” soʻziga bogʻlanadi” degan fikrga asoslanib turib, “*oshiq*” soʻzining kelib chiqishi hozirgi oʻzbek tilidagi “*ashula*” soʻzi bilan bir ekanligini aytadi.¹⁹

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, agar “*oshiq*” soʻzi qadimda folklor asarlarini, shu jumladan, xalq eposi namunalarini aytuvchi folklor ijrichisi maʼnosini ham anglatgan ekan, “*oshiq*” va “*ashula*” soʻzlari etimologik jihatdan oʻzakdoshligi yaqqol koʻrinib turipti.

Ozarbayjon folklorshunoslari M.Akimov, O.Nabiyev va bevosita Xorazm folklori materiallariga tayanib professor S.Roʻzimboyev “*oshiq*” turkum dostonlaridagi “*oshiq*” atamasi xususida “Xorazm regionida tarqalgan “*oshiq*” turkum dostonlarning aksariyatida asar bosh qahramonlari nomiga qoʻshilib aytiladigan “*Oshiq*” atamasi genezisi haqiqatdan oʻzining dastlabki asosi baxshi maʼnosiga borib taqaladi. Negaki, bu tipdagi dostonlarning aksariyati birinchidan, Xorazm vohasiga Ozarbayjon orqali kirib kelgan boʻlsa, ikkinchidan, ulardagi bosh qahramon siyomosida kuch-qudratga ega boʻlgan kurashuvni qahramon emas, balki baxshi, *oshiq* tarzida

¹⁸ Akimov M. Азербайджанское средневековое ашигское творчество. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1983. – С.8.

¹⁹ Afandiyev P.K. Koʻrsatilgan asar. – b.174

kuylovchi qahramon gavidalanadi. Darhaqiqat, mazkur dostonlar o'zlarining yaratuvchisi bo'lmish "oshig" larning bevosita ishtirokida ro'y bergan voqealar asosida ijod qilingan va bu asarlarning ko'pchiligida ularning o'zlari bosh qahramon sifatida harakat"larning bevosita ishtirokida ro'y bergan voqealar asosida ijod qilingan va bu asarlarning ko'pchiligida ularning o'zlari bosh qahramon sifatida harakat qiladilar."²⁰

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, shular ma'lum bo'ldiki, "oshiq" turkum dostonlaridagi bosh qahramon nomiga sifatlash bo'lib keluvchi oshiq atamasi baxshi (shoir) ma'nosiga ega ekan.

Demak, bu obraz shunchaki o'z mahubasiga shaydo fidoiy oshiq (sevuvchi) baxshi (oshiq) obrazigina emas, u o'z tarixiy ildizlari bilan so'z va soz magiyasi bilan bog'liq ushbu san'atni egallagan baxshi kulti va ishonch e'tiqodlari bilan ham chambarchas bog'liq ko'pqatlamli obrazdir.

Shubxasiz, o'z-o'zidan savol tug'iladi: baxshilar bilan bog'liq ishonch e'tiqodlar qanday namoyon bo'lgan? Bu savolimizga atoqli folklorshunos To'ra Mirzayevning bu borada o'zbek baxshichilik san'atini har taraflama tadqiq etgan hulosalaridan bemalol javob topishimiz mumkin. Olim H.T.Zarifov baxshi to'g'risida shunday fikrlarni bildiradi: "*baxshi* so'zi mo'g'ulcha *baxsh*, *bag'shi* so'zidan olingan bo'lib ustoz, ma'rifatchi degan ma'nolarni anglatadi" deb, "O'zbeklarda baxshi - keng ma'noda xalq dostonchisi, dostonlarni kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan-naslga

²⁰ Ro'zimboyev S. "Oshiq" turkumi dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Toshkent. 1987. B.3-4

o'tkazuvchi san'atkor. Xalq orasida baxshi so'zi shaman, qushnoch, parixon ma'nosida ham qo'llangan. Lekin bu ma'nodagi baxshi so'zi hozirgi kunda arxaiklashgan. Biroq uzoq o'tmishda bu ikki vazifani bir shaxs bajargan. Epik poeziyaning qadimiy sinkritik bosqichi ham shuni taqozo etar edi.

Akademik A.N.Veselovskiyning ko'rsatishicha, kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlarida xalq poeziyasi magik irim-sirimlar va turli marosimlar bilan mahkam bog'liq bo'lgan. Bir qator baxshilarning hozir ham o'z san'atlarini sir tutib, uni "ilohiylashtirishlari", baxshilik san'ati haqida xalq orasida mavjud turli-turli afsonalar yuqoridagi mulohazani yana bir bor tasdiqlaydi."²¹

T.Bunyadovning yozishicha, Ozarbayjonda oshiq ijrochiligi bundan taxminan 4 ming yil burun shakllangan. Olimning fikricha, oshqlik san'ati dastavval chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi turkiy qabilalar orasida kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik o'troq qavmlar madaniyatiga ham kirib kelgan.²²

P.Afandiyev esa qadimgi esa qadimgi davr oshiq ijodiyotining namunalari bizning kunlarga yetib kelmagan bo'lsa-da, epik an'ananing shakllanishi va epos taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari asosida oshiq san'ati sinkretik xarakterga ega bo'lgan deb hisoblaydi. Qadimgi oshiq-baxshilar shoirlik, xonandalik, bastakorlik, sozandalik, raqqoslik, aktyorlik kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan.²³

²¹ Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuarlari. – Toshkent: Fan, 1979. B. 9-10.

²² Бунядов Т. Асрдан келан сасдар. – Бақы: қанчлик, 1966. Б.42-43.

²³ Afandiyev P.K. Ko'rsatilgan asar. – b.174

Yuqoridagi sanab o‘tilgan xususiyatlar eng qadimgi oshiq-baxshilar bajaradigan vazifalardan tashqari yana shomon, tabib, kohinlikni ham uddasidan chiqqan degan fikrga keldik. Chunki qadimgi folklor ijrochiligining sinkretik tabiati ana shuni taqazo qiladi. M.Akimov ham shunday deb izohlaydi: “Zero oshiglari va oshiglik san’atining ko‘hna mavsumiy marosimlarga bog‘likligi va bu marosimlarda ashiglarining alohida vazifasi bajarishlari va umuman oshiglar haqidagi afsonalarda bu san’atni ilohiy kuchlar bilan bog‘lab izohlangan”.²⁴

Folklorshunos Sh.Turdimov “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlardagi epik baxshi Soqibulbul obrazini yozar ekan, Soqibulbul Go‘ro‘g‘lining ustoz, baxshisi, davrasining soqisi va tulparining saisi bo‘lish bilan bir qatorda uning birga marosimlarini o‘tkazuvchi ruhoniylar sifatida ham kelishini yozgan.²⁵

Barcha keltirilgan “oshiq” atamasi haqidagi fikr hamda mulohazalardan shunday umumiy xulosaga kelish mumkin.

“Oshiq” turkum dostonlardagi oshiq obrazi bevosita xalqning baxshi, o‘zan, oshiqlar haqidagi ko‘hna tasavvur va e‘tiqodlarining sintizi sifatida paydo bo‘lib, uning muhabbat shaydosi timsoliga aylanuvida ushbu e‘tiqodiy qarashlar asos bosqich vazifasini o‘tagan.

Oshiq-baxshilar faqatgina muhabbat mavzusidagi folklor asarlarini emas, balki yirik epik asarlarning turli namunalarini ijro etishgan. Keyinchalik ana shunday epik asarlarini ijro qiluvchi oshiq-baxshilarning kulti yuzaga

²⁴ Akimov M. Азербайджанское средневековое ашигское творчество. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1983. – С.23-24.

²⁵ Turdimov Sh. Soqibulbul // Sog‘lom avlod uchun. – 1966. №2. B.23-24.

kelgan va ular to'g'risidagi alohida dostonlar ham yaratilgan. Buning yorqin misoli sifatida bugungi kunda to'liq yetib kelmagan "Oshiq Oydin" haqidagi dostonni misol qilib keltirish mumkin. Shu tariqa epik an'anada oshiq-baxshi obrazi asosiy o'rinda turadigan alohida epik asarlar paydo bo'lgan. "Oshiq" turkumi dostonlarning kelib chiqishi ana shu jarayonlar kechgan qadimgi davrlarga bog'lanadi.

"Oshiq" turkum dostonlarini deyarli barcha tadqiqotchilar romanik dostonlar turiga mansub namunlar sifatida baholashdi. Yanada aniqroq qilib ayliganda, ular ishqiy romanik dostonlar sirasiga kiradi. Turkiy xalqlar folklorshunosligida masalan, ozarbayjon folklorshunosligida ham bu tip asarlar "muhabbat dostonlari" sirasiga kiritiladi. P.Afandiyev yozishicha, "muhabbat dostonlari, boshqacha qilib aytganda, "xalq romanlari" folklorimizning alohida muhim bir tizimini tashkil etadi. Agar qahramonlik dostonlari ajdodlarning buyuk qahramonliklari, vatan, yurt, ozodlik, istiqloliyat uchun olib borilgan kurashlar bilan aloqador bo'lsa, xalq romanlari nisbatan tinch, osoyishta hayot davrining mahsulidir. Bunday asarlarda vafo, sadoqat sof muhabbat, ma'naviy soflik, do'stlik, birodarlik, gumanizm, ishq yo'lidagi jasoratlar va shu kabi mavzular asosiy o'rinda turadi".²⁶ Ozarbayjon oshiq ijodiyotini maxsus o'rgangan folklorshunos olim M.Akimov ham xalq dostonlarini xuddi shu tasnif asosida "qahramonlik dostonlari" va "muhabbat dostonlari" kabi tiplarga ajratadi.²⁷

²⁶ Афандиев П. Азарбајчан шифахи халг адабијлатъю – Баки. 1981. Б.275-276.

²⁷ Акимов М. Азербайджанское средневековое ашигское творчество. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1985.

Romanik dostonlari yoki muhabbat dostonlarining o'zini epik an'anadagi yaxlit hodisa sifatida baholasak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq romanik dostonlarining o'zi ham mavzu qamrovlariga ko'ra ma'lum tiplarga bo'linishi diqqatga molikdir. Binobarin, "oshiq" turkum dostonlari epik asarlarining umumiy belgilari ularning bosh qahramoni oshiq-baxshi obrazidan iborat bo'lishi deb tasniflashga to'la asos beradi.

Jumladan, "oshiq" turkum dostonlarining tarkibi va bu tipga hozir epik an'anada mavjud bo'lgan dostonlarning qaysi birlari kiritilishi masalasiga to'xtalib o'tsak. Shunga ko'ra, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Oshiq Alband", "Oshiq Mahmud", "Hiloli pari va G'arib" kabi dostonlarning shu turkumga kiritish mumkin. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonini 1956 yilda yig'ma matn sifatida nashr ettirgan folklorshunos olimi Z.Husainova "Hiloli pari va G'arib" dostonini ham "Oshiq G'arib va Shohsanam"ga qo'shib yuborgan. Bu o'rinda olimi har ikkala asarni yaxlit bir doston deb qaraydi. S.Ro'zimboyev esa H.Vamberinnig 1867 yilda Leyptsigda nashr etilgan kitobida "Oshiq G'arib"ning "Oysanam-Shohsanam" nomli shahobchasi ham mavjudligi haqidagi qaydnomasiga asoslangan holda hozirgi kunda og'zaki an'anada yetib kelmagan bo'lsa-da, xalfalar qo'lida xalq kitobi tarzida saqlanib qolgan "Hiloli pari va G'arib" dostonini alohida syujetga ega bo'lgan epik asar deb biladi.²⁸ Biz ham shu fikrni quvvatlaganimiz holda "Hiloli pari va G'arib" dostonini mustaqil asar sifatida shu tasnifga kiritdik.

²⁸ Ro'zimboyev S. Xorazm xalfachilik an'analari va shoira xalfalar ijodi // Ojiza. She'rlar va dostonlar. – Toshkent, 2003. B. 8.

“Oshiq” turkum dostonlarining boshqa ishqiy-romanik turga mansub dostonlar bilan bir qatorda uygʻun jihatlari borki, yuzaki qaraganda ularni ajratish mushkuldek tuyuladi. Biz quyidagi ana shu umumiy va xususiy jihatlari haqida toʻxtalib oʻtamiz.

Birinchi navbatda, “oshiq” turkumiga kiruvchi “Oshiq Gʻarib va Shohsanam”, “Oshiq Oydin” kabi dostonlar oʻzlarining obrazlar tizimi, voqealarni tasvirlash usuli, mazmunning ishqiy sarguzashtlardan iborat ekanligi bilan “Tohir va Zuhra”, “Hurliqo va Xamro”, “Yozi va Zebo”, “Asil va Karam” kabi dostonlarga juda yaqin. Bu xil asarlarning kompozitsion tuzilishi, yetakchi motivlardagi uygʻunliklar ham ularni bir turkum doirasida baholashga imkon beradigan darajada. Lekin biz yuqoriga qayd etiganimizdek, bosh qahramon fazilatlari va sifatlaridan kelib chiqib, “oshiq” dostonlari turkumiga faqat baxshi-shoir-oshiq obrazi faoliyat yurituvchi namunalarnigina kiritishni toʻgʻri deb topdik.

Aslida muhabbat mavzusi xalq dostonlarining barchasida muhim oʻrin tutadi. Maʼlumki, oʻzbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish” xalq dostonlarining mumtoz namunasi sifatida qaraladi. Asar voqealar yechimida bosh qahramonning botirligi, jismoniy kuch- qudrati, jangu-jadal yetakchi mavqeda tursa-da, Alpomish va Barchinning muhabbati, ayriligʻu visoli doston fabulasini tashkil etadi, “Alpomish” dostonining syujeti oʻta sodda holatga keltirilsa, uning “Oshiq gʻarib va Shaohsanam” syujeti bilan yagona tipga mansubligi namoyon boʻladi. Shunday boʻlsa-da, “Alpomish” qahramonlik eposi, “Oshiq Gʻarib va Shohsanam” romanik epos namunasi sifatida qaraladi. Albatta, bu tasnifga hech bir eʼtiroz

yo‘q. Asosiy e‘tibor dostonlarni ma‘lum tur va turkumga ajratishda tayanch sifatida olinuvchi ko‘rsatkich sifatida xususida bormoqda. Ya‘ni asosiy farq “Oshiq G‘arib va Shohsanam” da ishq-muhabbat kechinmalarining birinchi planga chiqarilishi va sinov-to‘siqlarning ana shu ko‘lamda yechilishiga asosiy e‘tibor qaratilishidadir.

“Oshiq” tipdagi dostonlar turkiy xalqlarning ko‘pchiligiga ma‘lum bo‘lib, ular xalq baxshilari tomonidan asrlar davomida sevib kuylab kelingan. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” ni nomzodlik dissertatsiyasi sifatida o‘rgangan G.Eshchonova dostonning tarqalish doirasi haqida yozganida, nazarimizda, bu epik asar ijro etadigan hududni biroz toraytirib yuborganga o‘xshaydi. Uning yozishicha, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, asosan, Xorazm viloyati, Buxoro viloyatining Olot, Qorako‘l tumanlari, Turkmaniston respublikasining Chorjo‘y va Toshovuz viloyatlari hamda Qorqalpog‘iston respublikasi hududida yashovchi o‘zbeklar orasida keng tarqalgan”.²⁹

Biz o‘z risolamizda “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining o‘zbek milliy versiyasini o‘rganganligini nazarda tutsak, bu o‘rinda gap mazkur asarning o‘zbeklar orasida tarqalishi haqida borayotganligi ma‘lum bo‘ladi. Agar shunday bo‘lsa, buni ishda qayd qilish, ya‘ni dostonning o‘zbek milliy versiyasi o‘zbeklar istiqomat qiladigan hududlarda tarqalishi masalasida gap borayotganligini aytish kerak bo‘lardi. O‘zR FA Til va adabiyot institutining Folklor arxivi hamda sobiq qo‘lyozmalar institutining Folklor fondi bilan yaqindan tanishish davomida “oshiq” turkum

²⁹ Eshchanova G. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining variantlari: Filol. Fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 1994. B. 21.

dostonlari, xususan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni o‘zbeklar yashaydigan boshqa viloyatlarda ham tarqalganligiga guvoh bo‘ldik. Jumladan, H.Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar institutining Folklor fondida “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining hozirda Toshkentda yashovchi Ro‘zimbek Murodovdan yozib olingan varianti saqlanishi (Inv 7234), Qo‘qon shahrida yashovchi folklorshunos I.Bekmurodov tomonidan farg‘onalik ijrochidan magnit tasmaiga yozib olingan variant ham borligi dostonning tarqalish doirasi biroz kengroq ekanligini ko‘rsatadi. Buning ustiga, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining ayrim qo‘shiqlari xalq orasida juda mashhur bo‘lib ketganligini ham e‘tibordan soqit qilmaslik kerak.

“Oshiq” turkum dostonlarning tipik namunalaridan biri bo‘lgan “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni o‘zbek, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, usmonli turk, qrim-tatar va boshqa turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan. Filologiya fanlar nomzodi S.Yakubovaning qayd qilishicha, mazkur dostonning Kavkaz orti, Kichik va O‘rta Osiyo turkiy xalqlari o‘rtasida tarqalgan milliy versiya va variantlari yagona epik syujet asosida yaratilgan bo‘lsa-da, ijro jarayoni, baxshi, oshiqlar ijrochilik mahorati va milliy folklor an‘analarining ta‘sirida bir qator o‘ziga xosliklarga egaligi bilan ham bir-biridan farqlanib turadi.³⁰

“Oshiq” turkum dostonlari Stavropol o‘lkasida istiqomat qiluvchi turkiy tilli xalq-turxmenlar folklorida ham mavjudligi ilmiy adabiyotlarida qayd qilingan. B.Valiyevning

³⁰ Якубаева С. “Ашыг Гариб” дастанынын башга халгларда олан вариантлары // Азарбајчан шифахи халг адабијатына даир тадгигларю 1-китаб – Баку. 1961. Б.215.

bergan ma'lumotlariga qaraganda, Stavropol turkmanlari (aslida turxmenlar) orasida mashhur bo'lgan dostonlardan biri "Ashik Garib" (ya'ni "Oshiq G'arib") hisoblanadi. Bu dostonning Stavropol varianti umumturkiy versiyalar bilan mushtarak jihatlarga ega.³¹

"Oshiq" turkum dostonlarida tush ko'rish motivlardan biri hisoblanadi. "Odatda "oshiq" turkum dostonlarining ekspozitsiyasi o'ziga xos an'anaviy sxema asosida tuzilib, voqeaning boshlanishi ko'pchilik hollarda tush ko'rish epizodi bilan bog'liq tarzda ifodalanadi. Asarning bosh qahramoni tushida o'zga eldagi go'zal qizga oshiq bo'ladi yoki ularni tushlarida chiltonlar yoki eranlar nikohlab qo'yadi."

Xuddi shu haolatni bevosita romanik dostonlarning yana bir mumtoz namunasi "Kuntug'mish" dostonida ham ko'rishimiz mumkin. Kuntug'mish ham Oshiq Alband, Oshiq Mahmudlar kabi Xolbekani tushida ko'rib oshiq bo'lib, uni izlab safarga chiqadi. "Kuntug'mish" dagi qahramonning sevgan yori vasliga yetishib, to bir teriga tikilib, cho'l-biyobonga chiqqungacha bo'lgan voqealar sodda shaklga keltirilsa, ko'p jihatdan bu syujet oshiq turkumi dostonlari syujetiga shakl va mohiyat jihatdan uyg'un kelishining guvohi bo'lamiz. Lekin barcha tadqiqotchilar "Kuntug'mish" ni ishqiy-romanik turga mansub dostonlar tarkibida tahlil etishadi. Uni oshiq dostonlariga sirasiga kiritishmaydi. Shu ma'noda olib qaralsa, bizning "Oshiq" turkum dostonlarini bir umumiy ichki turkum

³¹ Велиев Б. Ставрополь туркменлеринин дессанлары. – Ашгабад, 1980. Б.46-48.

qamrovida olish uchun bosh qahramon xarakteri va fazilatlariga tayanishimiz o'zini oqlaydi.

Shu bilan birgalikda, ko'pchilik Xorazm dostonlari va o'g'uz epik an'analari zamirida, shakllangan romanik dostonlardagi bosh qahramonga o'ziga xos bo'lgan bir jihat xususida alohida to'xtalishi talab etiladi. Ahamiyat beriladigan bo'lsa, ushbu dostonlarda bosh qahramon soz chertib qo'shiq kuylaydi, ba'zan esa baxshilik san'atini ham egallagan shaxs, deb talqin etiladi. Bunga yorqin misol tariqasida Ozarbayjon Ko'ro'g'lisini olish mumkin: "Ozarbayjon dostonlari Kyorogli shimoliy Xurosonda tug'ilgan bo'lib, turkmanlarning Teke urug'iga mansub deb qaraladi, u ingliz balladalarining qahramoni mashhur Robin Gud kabi olijanob qaroqchi sifatida talqin etilishi barobida badihago'y baxshi – oshiq hamdir. Ko'ro'g'li ijro etgan qo'shiqlarda uning mardlik va jasoratlari kuylanadi, go'zal qizlar ta'rif etiladi, dushmanlar jang va bellashuvlarga chorlanadi".

Xorazm "Go'ro'g'li" dostonlarida ham Go'ro'g'lining soz chalib qo'shiq kuylashi keng o'rin egallagan. Shunday bo'lsa-da, Go'ro'g'li obraziga xos bo'lgan boshqa yetakchi xususiyatlari va uning hayoti vasf etiluvchi dostonlarning kompozitsion qurilishi, motivlar talqini bu dostonlarning "oshiq" turkum dostonlaridan farq qilinishini namoyon etadi va "oshiq" turkum dostonlarini atroflicha tadqiq etgan S.Ro'zimboyev bu xususida shunday yozadi: "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonlik ham, ishqiy sarguzasht ham bir-biri bilan aralashgan holda tasvirlanadi. Aksariyat hollarda qahramon liniyasi birinchi beriladi. Shu jihatdan ular "oshiq" turkumidagi dostonlardan farq qiladi. Masalan,

“Bozorgon”da Go‘ro‘g‘li bilan bozirgonning kurashi, so‘ngra esa Oysulton bilan bo‘lgan kurash, qoraxon lashkari o‘rtasidagi jang epizodlari, “Avazxon”dagi Xunxorshoh bilan bo‘lgan kurash tafsilotlari, “Xirmondali”dagi Go‘ro‘g‘li bilan Xirmondali olishuvlari “oshiq” turkumdagi dostonlarni tarkibida ko‘zga tashlanmaydi. Biroq ushbu turkumda shunday dostonlar ham borki, ularda ko‘proq sarguzasht, dushmanni hiyla ishlatib mahv etish kabi tafsilotlar bo‘rtirib ko‘rinadi”.

Folklorshunos olim S.Ro‘zimboyev “oshiq” turkumi dostonlarining o‘ziga xosligi to‘g‘risida to‘xtalar ekan, “Hiloli pari va g‘arib” dostoni asosida e‘tibor qo‘shiq matnlariga, ularning o‘ynoqiligi va ta’sirchanligiga qaratilgan bo‘lib, bu holat “oshiq” turkum dostonlariga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biridir.”³² Haqiqatan ham matnda qo‘shiqlarning o‘ynoqiligi, badiiy shiradorlik, asosiy mazmunning muhabbat masalalariga qaratilishi bu tip dostonlarida yaqqol bo‘rtirib turadi.

“Oshiq” turkum dostonlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida quyidagi tartibda umumlashtirish mumkin:

- “oshiq” turkum dostonlarida bosh qahramon ham oshiq, ham baxshi, ham shoir hisoblanadi.
- Doston syujetiga asos bo‘lgan voqealar bayonida ishqiy sarguzashtlar yetakchi o‘rin tutadi va ularda turli jangu- jadallar, kurashu, jismoniy bellashuv tasviri uchramaydi.

³² Ro‘zimboyev S. Xorazm xalfachilik an‘analari va shoira xalfalar ijodi // Ojiza. She‘rlar va dostonlar. – Toshkent, 2003. B. 8.

- Dostondagi ishqiy sarguzashtlar sevuvchi kishi - oshiqningina emas, baxshi-shoirning kechinmalarini ham tashkil etadi.
- Qahramonning turli sinov va to'siqlardan o'tishi, o'zaro bellashuvlari ham baxshi-shoirning so'z va soz bilan bog'liq holatda ro'yobga chiqadi. Oshiq baxshining ruhiy kamolotga timsolida o'z yechimini topadi.

Mavzuimizning ilk bobida keltirilgan fikr-mulohazalarimizni umumlashtirilgan holda, shuni bildirishimiz mumkinki, "oshiq" turkumi dostonlari o'zbek folklori epik an'anasi alohida hodisa sifatida shakllangan. Ushbu tip dostonlar asosan o'g'uz epik an'anasi o'lkamizning mavjud bo'lgan hududlarda keng tarqalgan bo'lib, ularning turli versiyalari boshqa turkiy xalqlar, ya'ni qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, usmonli turk, qo'miq folklorida ham mavjud.

Bu tip dostonlarning o'ziga xos belgilarini xulosa qilib quyidagilarni belgiladik: asosiy qahramonlarning oshiq va ma'shuqa obrazidan iboratligi, asar mavzusining ishq-muhabbat sarguzashtlarini o'z ichiga qamrab olishi, matnning o'ynoqiligi va badiiy jihatdan ihcham shaklda ommalashganligi, kongliktning yechimida jismoniy kuch emas, balki aql-farosat, soz va so'z asosiy qahramonning oshiq-baxshi sifatida tasvirlanishidir.

II BOB. “OSHIQ TURKUM” DOSTONLARIDAGI YETAKCHI MOTIVLAR TALQINI.

2.1 “Oshiq turkum” dostonlarida tush motivi.

Xorazm dostonlarini, shu jumladan “oshiq” turkum dostonlarini ham mifologik asos va motivlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Hatto, Xorazm “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlariga nisbatan “oshiq” turkumi va ishqiy sarguzasht mavzuidagi dostonlarda mifologiyaning ta‘siri kuchliroq ekanligini bu tip dostonlarning syujet qurilishi va yetakchi motivlari misolida aniq ko‘ramiz. “Bu tipga kiruvchi dostonlar “Go‘ro‘g‘li” turkumini (Xorazm “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari nazarda tutilmoqda – N.S.) tashkil etuvchi epik asarlarga nisbatan qadimiy syujet sxemasiga ega”³³. S. Ro‘zimboyevning ushbu fikri juda to‘g‘riligini “oshiq” turkum dostonlarining syujet qurilishi va undagi yetakchi motivlarning tadqiqi yanada aniqroq ko‘rsatadi.

Bizga ma‘lumki, qadimdan meros bo‘lib qolgan yozma yodgorligimizda tush muhim ahamiyatga ega. Qadimdan to hozirgi davrgacha tush fenomeni insoniyat butun tarixi uchun birdek tegishlidir. Odamzod ibtidoiy madaniyatning ilk kunidan tortib, keyingi ijtimoiy taraqqiyotning barcha jarayonlarida tush ko‘rgan. Xalq tarixi, dunyoqarashi, maishiy turmushi, milliy ruhiyati, og‘zaki hamda yozma adabiyotida tush va uning ta‘biri muhim o‘rin tutgan. Chunki tush inson axloqi, ma‘naviyati, ruhiyati bilan chabarchas bog‘liq.

O‘zbek folklorida mifologik, an‘naviy-diniy qarashlarning badiiy ifodasi tush hodisasi bilan uzviy bog‘liqligi sezarli holda saqlanib qolgan. Xalq ijodida jonli og‘zaki ijro sharoitida o‘ziga xos yashash sharoiti, uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot bosqichida xalq dunyoqarashi va ruhiyatiyati bilan bog‘liq hodisalarning aks etish darajasi, asarlar

³³ Ro‘zimboyev S. “Oshiq” turkumi dostonlarining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari. – Toshkent, 1987 – 4-bet

syujetidagi oʻrni, badiiy funktsiyasini tadqiq etish hodisalaridan biri bu tush tasviri hamda mohiyatini oʻrganish masalasidir.

Bu borada Yusuf Xos Hojib, Imom Gʻazzoliy va Gʻarb faylasufi Zigmund Freyd qarashlari oʻrtasida yaqinlik mavjud. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida tushga aniq ilmiy taʼrif berilgani, mazkur asarning “Oʻzgurmish kasal” boʻlimida Oʻgdulmush Oʻzgurmishga tushni taʼbir qilishning tartib-qoidalari haqida oʻz bilganlarini aytadi: “Tushga yoʻriq turli-tuman boʻladi. Uni har bir kishi bilmogʻi shart. Koʻrgan tushni kechasi- qorongʻi tushgandan keyin ham taʼbir soʻralmaydi. Kechasi koʻrilgan tushga taʼbir kunduzgisidan tamomila boshqacha boʻladi.

Tush taʼbirining shart-qoidalari juda koʻp. Eng avval ularni bilib olish lozim. Birinchidan, koʻrgan tushingni oʻzing yoʻrma, shuningdek, uni duch kelgan kishiga ham aytavermaslik kerak. Koʻrilgan hamma tushni yoʻrish shart emas. Koʻrilgan tushlarga taʼbir juda xilma-xil boʻladi, ularni chuqur mulohaza qilish lozim.

Avvalo, tush yoʻrishda tiyil, bordi-yu yoʻrmoqchi boʻlsang, bu ishda bilimga tayan. Tushni boshqa hodisalar bilan qiyosla, undagi har bir holatga maʼno ber, chuqur mulohaza yurit, yaxshilab oʻyla.

Tushning foydasi taʼbirga qarab boʻladi, agar uning yoʻrishning uddasidan chiqmasang, bu tush befoyda boʻlib qolib ketadi. Bilimi dengiz kabi teran boʻlgan kishi bu haqida yaxshi aytgan, uni eshitib sen yuzingni qizil qilib ol.”³⁴

³⁴ Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig / Hozirgi oʻzbek tilida bayon va soʻzboshi muallifi Boqijon Toʻxliyev. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B.128-132.

Imom G‘azoliy tushga: “Odam o‘g‘li fitratining g‘aroyibotlaridandir”, deb ta’rif berib, u bu ta’rifi bilan inson axloqi va ma’naviyati, ya’ni ruhiyati bilan bog‘liqligini ifodalaydi.

“Ma’naviyat sohiblari g‘ayb ko‘zi ila ko‘ra oladi. Ba’zan unga vahiy tarzida ayon bo‘ladi. Inson agar ma’nan bir olamga yuksalsa, yerda turib haqiqatni ko‘radi va mohiyatni anglaydi. To‘g‘ri tush payg‘ambarlikning qirq olti juzidan biridir. Bu holat ham eng yuksak ma’naviyat darajalaridan biridir”.³⁵

Ma’lumki, jahon folklorshunosligida tush talqinini mifologik tasavvurlar doirasida tekshirish amaliyoti ham mavjud. Chunonchi, mifshunoslikda “ruhiy-tahlil nazariyasi” deb atalgan yo‘nalishiga asos solgan taniqli olim Z.Freyd va uning izdoshlari qadimgi miflarning paydo bo‘lishini ibtidoiy odamning tabiatga bo‘lgan ongsiz hissiy munosabatlari bilan bog‘lab tadqiq qilishgan. Ular mif bilan tushni qiyosiy tahlil qilib, tushda ham xuddi mifdagi singari voqelik ramzlar vositasida bayon qilinadi degan xulosaga kelishgan.³⁶

Zigmund Freyd, Karl Gustav Yung va Erix Fromm tadqiqotlarida, tush inson ruhiyatining ifodasidir degan qarash yotadi. Z.Freyd tushda insonning bolalikdan saqlanib qolgan pinhoni mayllari desa K.G.Yung ommaviy ong osti hissiyotlari deb aytadi, E.Fromm esa tashqi dunyo ramzlari: ong darajasiga o‘sib chiqmagan, biroq inson qalbida tashqi dunyoning ramzi bo‘lib qolgan turli kechinmalar ustuvorilik qiladi, degan fikrlarni ilgari surishadi.³⁷ Bu olimlarning tush haqidagi fikrlari bir

³⁵ Imam Gazali. Ihya u Ulumid-din. Tercuman A. Serdaroglu. – Istanbul, 1975. S.206.

³⁶ Eshonqulov J.S. Folklor: Obraz va talqin. – Qarshi, Nasaf, 1999. B. 102-149

³⁷ Борхес Х.Л. Серашный сон // иностранная литература. – Москва, 1990. № 3ю – С.179- 185.

mohiyatga ega bo‘lib, binobarin tush - inson ruhiyatining ko‘zgusi sifatida yaqqol namoyon bo‘lyapti.

G‘arb olimlari tadqiqotlari natijasida tush insonning ruhiy holatlarini bilishda muhim o‘rin egalladi. Sharqda ham, g‘arbda ham olimlar, yozuvchilar tomonidan tushga, uning ruhiy, jismoniy ta’siriga oid ko‘plab tush to‘g‘risidagi qarashlar, hikoyalar, ilmiy adabiyotlar yuzaga keldi hamda xalq og‘zaki ijodidagi tushlarning ta’bir nomalari ilmiy asosga ega bo‘ldi. Shu bilan birgalikda, tush inson hayotidagi o‘rni tadqiq etildi.

Shu jumladan, folklorshunos olim J.Eshonqulov ham tush haqida juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazib, shunday fikrlarni bildiradi: “Umuman, tush turkiy xalqlar og‘zaki ijodida muhim o‘rin tutadi. Tush manzarasi bo‘lmagan ertak yohud dostonlarimiz kamdan-kam uchraydiki, uni o‘rganmasdan turib, xalq ijodi namunalarini zamiridagi ma’no mohiyati to‘liq anglab yeta olmaymiz. Ertak va dostonlarimizda tush jarayoni shunchaki o‘tkinchi va ma’nisiz holat emas inson ruhiyatining bir qismi, inson ichki dunyosining timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Tush insonni o‘tmish va kelajakdan ogoh etadi, unut kechinmalarini qayta esga soladi. Ruhiy ahvolining qay darajadaliqidan darak beradi. Inson ruhiy dunyosi g‘oyat sirli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Uning tadqiq qilish inson haqidagi bilimimizni oshirishga hizmat qiladi.”³⁸

Atoqli folklorshunos olim Hodi Zarifov Viktor Jirmunskiy bilan hamkorlikda yozgan “O‘zbek qahramonlik eposi” nomli kitobida

³⁸ Eshonqulov J.S. Folklor: Obraz va talqin. – Qarshi, Nasaf, 1999. B. 103-104.

baxshi haqidagi afsonalarda tush alohida o‘rin tutishini qayd etib o‘tadi.³⁹

Barcha yuqoridagi keltirilgan fikrlardan aytishimiz joizki, bizning ilmiy tadqiqot ishimizning ob‘yektlaridan biri bu tush motividir. “Oshiq” turkum dostonlarida tush motivi asar syujet tarkibi, kompozitsion qurilishdagi o‘rni, badiiy-estetik vazifalari tadqiqi bu motivning an’anaviy tipik harakterga ega bo‘lganini, epik turning tarixiy asoslari, rivoji va poetikasida muhim o‘rin tutganligi, noestetik hodisalarning estetik hodisaga aylanib borishi yo‘lini aniqlashga keng yordam beradi. Shuning uchun ham, bu motiv haqida batafsil o‘rganib, uni yanada chuqurroq tahlil qilishni istadik.

Xalq og‘zaki ijodida eng ustun turuvchi dostonlarimizda tush va tush bilan bog‘liq ramzlarga duch kelamiz. Shu jumladan, “oshiq” turkum dostonlari ham shular sirasiga kiradi. “Oshiq” turkum dostonlarining ekspozitsiyasi o‘ziga hos an’anaviy sxema asosida tuzilib, voqeaning boshlanishi ko‘pchilik hollarda tush ko‘rish epizodi bilan bog‘liq tarzda ifodalanadi,⁴⁰ deb yozadi S.Ro‘zimboyev, bu motiv asoslari haqida esa “Tush ko‘rish orqali oshiq bo‘lish masalasini ozarbayjon olimi M.Taxmasib islom diniga bog‘lasa, professor M.Saidov bu hodisani islom dinidan ancha burun mavjud ekanligini” ta’kidlaydi⁴¹. M.Saidov umumiy tarzda aytgan fikrni J. Eshonqulov yanada aniqroq ifoda qilgan: “Mutaxassislar tush tarixini animistik tasavvurlar bilan bog‘lashadi. Ma’lumki, animizm tabiatning jonliligi “jon” va “ruh” ning

³⁹ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. - Москва: ОГИЗ Государственное издательство художественной литературы, 1947. – С.23-58.

⁴⁰ Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlari. – Toshkent: Fan, 1985.- 65 b.

⁴¹ O‘sha asar. – 65-bet.

abadiyliliga ishonchdir”⁴². Tush tarixi xalqning animistik dunyoqarashlari, ishonch-e’tiqodlariga bog‘liq ekan. Animistik qarashlar insoniyat hayotining eng qadimgi bosqichlariga aloqador bo‘lib uning ildizlari arxaik miflar bilan bevosita bog‘lanib ketadi. Ezgulik bilan yovuzlik inson hayotining asosini tashkil etganligi sababli inson hech bir hodisaga befarq qaramagan. Ularning zamirida ruh yashiringan deb hisoblangan va ulardan madad kutgan. Tush hodisasiga bo‘lgan alohida e’tibor ham ana shu qarashlarning hosilasi hisoblanadi. Qahramonlar tushiga homiy eranlar, aziz-avliyolar ruhining kirib, ularga yo‘l yo‘riqlarini berishi, taqdirlarni bayon etishi haqidagi tasavvurlar tizimining tub mifologik asosi ham animistik dunyo qarashlar mevasidir.

Odatda ko‘rilgan tushni hamma- ham ta’bir qila olmasligi ma’lum. Hayotda biror bir oqil, bilimli, turmush tajribasiga ega yaqini yoki el orasida obro‘-e’tibor topgan kishidan tush ta’biri so‘ralgan. Shuningdek, ta’birnomalardan foydalangan. Xalq dostonlarida ham tushni ta’bir qilishni oshiq baxshi tomonidan juda kuchli badiiy estetik mahorat bilan ko‘rsatilgan. Bunga yaqqol misol qilib, “Oshiq” turkum dostonlar sirasiga kiruvchi “Oshiq Najab” dostonida ko‘rishimiz mumkin.

“Oshiq Najab o‘z ma’shuqasini izlab yo‘lga chiqqanida yo‘lidan bir baxshi chiqdi. Najabning orqasidagi dutorni ko‘rib, uni savolga tutdi. Najab Oshiq oydin pirning shogirdligini aytgan payt, u notanish ismi Navro‘z baxshi ekanini, o‘z tushida 40 kosa sharobni ko‘rganligi, u sharobni icha olmaganligini ta’birini so‘rab ketdi:

Navro‘z:

⁴² Eshonqulov J. Tush va uning o‘rganilishi. – 55-bet

Bizdan salom bo'lsin qardosh Najabg'a,
Qanot qoqib ucha bilmam bu nedur?
Oldim olib turg'on necha yog'idir,
Ko'zim ko'rib, qocha bilmam bu nedur?

Najab:

Xalifam Navro'z, pirdan ruxsat olmasang,
Qanot qoqib, aslo ucho bilmassan.
Olding olib turg'on ajal-yogidur,
Ko'zing ko'rib anding ko'cha bilmassan.

Navro'z:

Ne jamoldur, ne shu'ladur, ne tobdur,
Ne qal'adur, bir lahzada harobdur,
Ne daryodur, ne ummondur, ne obdur,
Qatrasindin icho bilmam, bu nedur?

Najab:

Haqning jamolini ko'rsang bu tobdur,
Birt dilni injiltsang Ka`ba xarobdur,
Haqiqat ummondur, tariqat odur,
Shariat shartidin kecha bilmassan.

Navro'z:

Jabroyil manzili qaysi qaroda,
Aning birla kimlar topdi iroda,
Bir tilsim, bir nuqat bordur orada,
O'qimisham yecho bilmam, bu nedur?

Najab:

Jabroyil manzili haqning erinda,
To'rt farishta muqarradur to'rida,
Uch yuz oltmish kitob pirlar alinda,

O'qimay ma`nosin yecho bilmassan.

Navro'z:

Ul nadurki, yemadilar to'ydilar,

Ul nedurkim, yuvmadilar qo'ydilar,

Ul nadurkim, tiriklayin so'ydilar,

Bulna sirdur, ocho bilmam, bu nedur?

Najab:

Maloyiklar yemay-ichmay to'ydilar,

Ul Musoni yuvmadilar qo'ydilar,

Nasimiyni tiriklayin so'ydilar,

Xalifam bu sirni ocho bilmassan.

Navro'z:

Navro'z aytar ajdarhoni damima,

Yutar erdim, chekar erdim komima,

Bir maydirki, to'ldirdila jomima,

Qatrasiddin icho bilmam bu nedur?

Najab:

Nafsing ajdarhodur, hayoling homdur,

Necha saqlasang-da bilgil kalomdur,

Najabning ichgani qirqda bir jomdur,

To ruxsat bo'lmayin icho bilmassan.

Savol-javoblar oxirida Navro'z aydiki, ustozinga raxmat chin baxshi bo'libsana, deya ikki baxshi ikki tarafga ketdi."⁴³

⁴³ Oshiqnoma, IV kitob, Urganch, 2009.(Nashrga tayyorlovchilar S.R.Ro'zimboyev, S.S.Ro'zimboyev, G.Eshchanova). B. 83-84.

Bejizga bu misralarni misol qilmadik, chunki “oshiq” turkum dostonlarida bosh qahramon baxshi nafaqat oshiq sifatida kelishi, balki asarda tushlarni ta’bir qilishda qahramonning ma’naviy tarbiyasi va kamolotiga yuksak darajada baho berilishi asarning yuqori badiiy-estetik mahorat bilan namoyon bo’lganligini ko’rishimiz mumkin. Aynan ushbu fikrlarimizni tasdig’i sifatida folklorshunos professor J.Eshonqulov shunday bayon qiladi: “Epik qatlam orasida baxshilarning o’z san’atini sirli — ilohiy egallaganligi haqida turli afsonalar mavjud. Bu hol faqat o’zbek baxshilariga xos xususiyat emas, xalqaro miqyosda keng tarqalgan. Baxshi ilohiy qobiliyat egasidir. Hamma ham shomon bo’lavermaganidek, hamma ham baxshi bo’lavermaydi. Ehtimol, mana shunga o’xshash mifalogik tasavvurlardan baxshilarning ilohiyot bilan bog’lanishi haqidagi qarashlar paydo bo’lgandir!?”

Shu o’rinda bir narsani aytib o’tish lozim bo’ladi. Birinchi holat — baxshilar bilan bog’liq bunday afsonalarning ko’pchiligida baxshining xastalikka yo’liqishi va bo’lajak baxshining kasal bo’lib qolishi hamda kasallikdan faqat kuylash orqali xalos bo’lishi. Ikkinchi holat — baxshining tushga qattiq ishonishi. Baxshi real voqelikka qanday ishonsa, o’z tushiga ham, tush bilan bog’liq afsonalarga ham chin haqiqat deb ishonadi. Xuddi tush kabi uning xayol dunyosi ham shu qadar keng, cheksiz-chegarasiz va bepayonki, uni faqatgina o’zi kabi ijodkor odamgina tushunishi mumkin. Mana shu jarayon biz uchun juda muhim.”⁴⁴, yana shuni ta’kidlaydiki: “Baxshini u yaratgan epik ijodiyot namunalari o’rganar ekansiz, siz o’zingiz ham tobora bu sirga ko’proq

⁴⁴ Eshonqulov J. O’zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. - Toshkent, Fan, 2011. - B. 50-51.

ishonch hosil qilasiz, bu maftunkor, sirli va sehrli dunyoning asiriga aylanasiz.”⁴⁵

Shunday qilib, epik asarlarni kuylovchi yuksak mahoratga ega bo‘lgan baxshilarning aynan “oshiq” turkum dostonlarida tush motivlari qaysi darajada muhim o‘rin tutishini bilmoqlik uchun, uni alohida o‘rganib chiqib, shu fikrga kelindi: baxshilar tomonidan ijro etilgan dostonlardagi tushlar qiyos qilinganda, ularning ma‘lum an’anaviy ifoda qoliplarida shakllanganligi; tush motiviga xos bo‘lgan asosiy hususiyatlardan biri boshqa motivlarni o‘zi bilan birga yetaklab kelishi; tush motivi boshqa motivlar bilan aloqadorligi: farzandsizlik, tug‘ilish, safar, sinov, homiy, xatar, qaytish, tirilish, uylanish. Xuddi shunday holat har bir janr syujet qurilishida u yoki bu motivning mavjudligi, ularning faollik darajasi bevosita ushbu janr tabiati bilan aloqador voqe bo‘lishini namoyon etmoqda.

Ma‘lumki, tush motivi o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodiga xos an’anaviy syujet elementlaridan biri bo‘lib, muyyan motiv, voqelik yoki personajlar xatti – harakatining syujet talabiga ko‘ra uch marta qaytarilishi, ya’ni “uch takror” usuli epik tush motivi talqinida ham o‘z aksini topgan. Chunki, “bunday an’anaviy uchliklar navbatdagi sarguzasht uchun yo‘l ochadi va uning qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi”.⁴⁶

Ilmiy tadqiqot izlanishlarimiz natijasida “Oshiq” turkumi dostonlarida barcha tush motivlarini tahlil qilgan holda, quyidagicha tasniflandi:

1. Qahramonning g‘ayritabiiy holda dunyoga kelishining tush orqali bayon etilishi.

⁴⁵ O'sha asar. B. 51

⁴⁶ O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B.147

Ma'lumki, mifologik tafakkur mahsuli bo'lmish miflar folklorga o'tgach qaytadan mushohada qilinadi. Ushbu jarayonda poetik tafakkur yetakchi hususiyatga aylandi. Folklorshunoslikda mifning xalq og'zaki ijodiga o'ziga xos ravishda singishuvidan iborat bo'lmish bu holatning quyidagi ikki muhim bosqichiga alohida e'tibor qaratilgan. Ya'ni, mifpoetik tafakkur mahsuli bo'lgan va bu bosqichdan yanada takomillashgan poetik tafakkuriga to'liq o'tgan holatlar⁴⁷. E'tiborli jihati shundaki, "oshiq" turkumi dostonlarida keluvchi tushlar asosan mif poetik tafakkur mahsuli hisoblanadi.

"Oshiq Mahmud" dostonidagi qahramonning tug'lishi bilan bog'liq tushni qarab chiqaylik.

"Farzandlab Ganjaboy Shohimardon piring qabriga borib, qirq-kecha qirq-kunduz yotadi. Qirqinchi kechada tush ko'rdi. Tushda nuroniy bir chol uch kosa sharob berib: " - Ey Ganjaboy podshoh, shu olamni uyinga olib borib, xotining bilan bo'lishib yesang, shu kunlardan hisoblab ofati jahon, husni ravshan bir o'g'lining bo'ladi. Otini Mahmud qo'yib, qirq-kecha, qirq-kunduz to'y bergansan. Besh yoshida maktabga eltib ber, o'n ikki yoshida qo'lingdan olarman", - deb g'oyib bo'ldi". Ushbu matn sinchiklab o'rganilsa, unda kishi e'tiborini tortuvchi bir qancha jihatlar bor.

1. Tush ko'ruvchining o'z istagini so'rab muqaddas joyga borib, uzoq tunashi. Ya'ni, tush ko'ruvchi ushbu tush xabarni kutmoqda. Bu odatiy tushlardan farq qiladi. Odatiy tush kutilmaganda biror bir joy bilan bog'liq bo'lmagan holatda ham ko'rilishi mumkin.

⁴⁷ Миф, фольклор и литература. – Л., 1978. – С.3-16

2.Tushga muqaddas joy sohibining kirishi. Tush xabarni kutuvchi aynan shu sohibi istagini so‘rab kelgan.

3.Sohibning tush ko‘ruvchi uch kosa sharob ichirib, so‘ngra qizil olma tuhfa qilib, farzand ko‘rajagini aytishi va bu farzand taqdiridan xabar berishi. Ushbu tush bayonidan ma‘lim bo‘lmoqdaki, bu yerda tush bayonidan ma‘lum bo‘lmoqdaki, bu yerda tush g‘ayritabiiy tug‘ilish hodisasi bilan bog‘liq.

Eng muhim halqa – tushning ta‘biriga o‘rin qolmayapti. Ta‘bir bevosita homiy eran tomonidan bevosita tushning o‘zida ochiq bayon etilmoqda. Odatda, har qanday tush ta‘bir qilinadi va ko‘pchilik folklor namunalaridagi tushlar ham o‘z ta‘biri, ta‘birchilarga ega, misol tariqasida “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonlardagi tushning mumtoz namunalarini keltirish mumkin.

Ko‘rib turganimizdek, tush sifati badiiy talqin qilingan ushbu motiv hozirgi holatda tush deb qaralsa-da, aslida muqaddas makonga borib, ajdodlar ruhidan farzand so‘rash marosimning transformatsiyaga uchragan ko‘rinishi deb qarashga ko‘proq asos beradi. Xalqimizning ko‘hna animistik dunyoqarashlari, ajdodlar kulti bilan bog‘liq migologik tasavvurlarini o‘zida mujassam etgan ushbu marosim aynan “Oshiq Mahmud” dostoni boshlamasi va befarzand otaning pirdan farzand so‘rab qilgan iltijosi va purning tushida kelishi bayonida berilgan. Ushbu o‘rinda purning Ganjaboyga uch kosa sharob berishi va so‘ngra olma tutishi aslida “farzand tilab olish” marosimining tarkibiy qismi sifatida baholanishiga loyiq. Ushbu tushda ta‘birning yo‘qligi va tushning muqaddas joyda ko‘rilishi ham bizning fikrimizni qo‘llab-quvvatlaydi.

Mif va marosimning qorishiq holda kelishi arxaik eposga tegishli holat sifatida qaraladi. Lekin ayni holat, ya'ni marosimiy mifning "oshiq" turkumi dostonlari syujetida ham qo'llanilishi ushbu tur dostonlar asosining ham ko'hna manbalardan bahra olganligini bildiradi.

2. Tushning oshiqqa ma'shuqasidan xabar berishi

Real hayotda insonlar tomonidan ko'riluvchi tushlar kabi, folklor asarlari tarkibidagi badiiy to'qimamahsuli bolmish tushlarning ham asosiy vazifasi xabar berish hisoblanadi. Ayni paytda, "oshiq" turkumi dostonlarida keluvchi oshiq va ma'shuqning tushida bir-biridan xabar topib, ishq dardiga yo'liqishlariga asos bo'lib hizmat qiluvchi o'ta muhim e'tiqodiy negiz mavjud. Bu barcha insonlar taqdirining avvaldan Yaratgan tomonidan belgilanganligi. Har kim o'z juftiga ega bo'lib, ushbu juftini topib, birga bo'lishi uning avvaldan belgilangan taqdiriga mos hayot yo'lidan borganligi va Yaratuvchi amriga mos yashashni bildiradi. Albatta, bu yo'l o'ta mashaqqatli bo'lib, har kim ham ushbu vazifasini uddalay bilmaydi. Oshiq-ma'shuq qahramonlarning jasorati, bir-biriga sadoqati va tillarda doston bo'lgan hayot tarzi ana shu ulug' vazifani sharaf bilan bajarganlarida ko'rinadi.

"Oshiq" turkum dostonlarida yetakchi o'rinda tutuvchi xabarchi tush tasviriga e'tibor qilaylik.

Birinchi galda xabarchi tushini oshiq va ma'shuq bir xilda ko'rishadi.

Oshiq Maxmudning tushiga nuroniy pirkirib olti oylik yashovchi Nigorxonimni unga nikoh qiladi. Qabarni unga do‘st bo‘lib yordam berishini ayatadi.⁴⁸

Ayni holat Qambarjonda ham ro‘y beradi. Qambarjonning “Uyqusida Hazrat Ali tushga kirdi. Uch kosa sharob ichirib, Tilimxon degan bir qizni nikoh qilib berdi va:

-O‘g‘lim Qambarjon! Mahmudjon do‘sting bilan birga ketgil, albatta maqsadiga yetasan deb og‘ziga tuflab, orqasiga shappot urib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi”⁴⁹.

Nigorxonning tushi: “Nigorxon bundan uch yil avval bir tush ko‘rgan edi. Tushida bir nuroniy pir odam Mahmudjonni ko‘rsatib: “Shu yigit sening yoring, juft haloling bo‘lsin”, - deb uch kosa sharob ichirib, g‘oyibona nikoh qilib qo‘ygan ekan. Shundan beri Nigorxon Mahmudjonning kellarini betoqat bo‘lib, barmoq bukib sanab, uzoq yo‘llarga intizor bo‘lib qarab yurar ekan”⁵⁰.

“Oshiq Albani” dostonida ham oshiq-ma’shuqlar huddi shu tartibda tushda g‘oyibona bir-biriga ko‘ngil qo‘yib, o‘z taqdiriga bitilgan juftini topishga harakat qilishadi.

“Oshiq G‘arib va Shaxsanam” dostonidan farqli o‘laroq, “Oshiq Mahmud”, “Oshiq Albani” dostonlarida sevishganlar birga o‘shib-ulg‘ayib, bir-birini ko‘rib-bilib o‘zaro ishq qo‘yishmaydi. Ular g‘ayritabiiy kuchlar- nuroniy pir (“Oshiq Mahmud”), parilar (“Oshiq Albani”)ning tushida bergan xabarlari orqali o‘zaro tanishib sevishadi. Doston syujetining bu xilda tashkil topishi va uning badiiy asoslanishini bevosita mifopoetik tafakkur mahsuli sifatida qarab, baholash mumkin.

⁴⁸ Oshiq Mahmud. B.16

⁴⁹ Oshiq Mahmud. B.23

⁵⁰ O‘sha asar. B.28.

“Oshiq” turkum dostonlaridagi tush motivi tahlilida ko‘zda tashlanuvchi ikkinchi bir jihat tushda homiy eranlarning muhim rol o‘ynashidir. Ushbu tasvir asosi bevosita insonning butun koinotdagi o‘rni va uning boshqa jonli, jonsiz mavjudotlar bilan o‘zaro munosabati, aloqasida homiy ruhlar yetakchi o‘rin egallaydi, deb qarash hisoblanadi. Bu munosabatlar doirasida o‘zaro muloqot har bir narsaning ruhi orasida kechadi va unda vositachi, rahnamo ruhning xizmati alohida o‘rin tutadi deb tushunish mevasidir. Xalq qarashlari va tasavvurlariga ko‘ra, ruhlari topishib, yagona iqlimga mansub bo‘lmasa, kishilar do‘st va ishqqa begona bo‘lishadi. Aksincha, ruhlarning bir-biriga qarama-qarshi kelishi dushmanlikni tug‘diradi. Shunday ekan, ”Oshiq” turkum dostonlari syujetidagi tush motivlari asosi xalqimizning qadim mifologik tafakkuri mahsuli bo‘lmish dunyoqarashlarga mansub ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Albatta, bu dunyoqarash epik tizimda qayta ishlanib, badiiy-estetik ko‘rinish olgan va xalqimizning keng ma’naviy fazilatlarini ko‘z-ko‘z qiluvchi omillardan biriga aylangan.⁵¹

Yuqorigilardan kelib chiqqan holda shuni hulosa qilish kerakki, “oshiq” turkum dostonlarda tush motiviga ulkan badiiy-estetik vazifa yuklanadi. Tush qahramonlar taqdirini avvaldan belgilab beradi. Noestetik hodisalarning “oshiq” turkum dostonlarida estetik hodisaga aylanishi timsolida namoyon bo‘lishini, turli badiiy-estetik vazifalarni ko‘rsatadi. Tush motivini o‘rganish, uning dostonlarimizdagi poetik vazifasini yoritish asar mazmun-mohiyatini, g‘oyasini keng ochib berishga, xalqimi ruhiy dunyosi, ma’naviyati, badiiy tafakkur tarzini teran anglab, idrok etishiga munosib hissa qo‘shadi.

2.2 “Oshiq turkum” dostonlarida uylanish motivi

⁵¹ Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. Toshkent. 1999. – B.7

Marosim uchta tayanch nuqtaga ega: insonning totemistik ishonchi, animistik tasavvuri va nikoh hodisasi. Initsiatsiya marosimi nikoh mazmunini yo‘qotmagan holda urug‘-qabila hayotidagi eng muhim marosimga aylangan, nikoh bo‘lsa mustaqil marosim sifatida undan keyingi o‘ringa tushib qolgan. Marosimning qisqacha mazmuni shundan iboratki, nikohdan oldin kelin va kuyov kurash tushgan. Initsiatsiya marosimida yovuz kuchlardan xalos bo‘lgan, totem quvvatiga erishgan kuyovgina kelin bilan kurashda g‘olib chiqadi, deb tushunilgan. Marosim kelin va kuyov urug‘i totemining ramziy kurashi hamdir. Yana bir jihat borki, bahsda kuyovning yengishi yoki yutqazish ko‘pincha kelimga bog‘liq bo‘lgan. Agar kelin kuyovga yon bossa, u yutgan. Qizning erkin tanlov huquqini ifodalovchi bu marosim Qadim Hindistonda “svayamvara” nomi bilan atalgan⁵². Qadimgi yunon mif va afsonalarida hikoya qilinishicha, qiz otasini yengan kuyovga turmushga chiqqan⁵³.

Ko‘plab etnografik ma’lumotlarga tayanib aytish mumkinki, Markaziy Osiyo hududida “Erkaklar uyushmasi”ga parallel “Ayollar jamoasi” ham faoliyat yuritgan. Bu “ittifoq” matriarxat davrida katta kuchga ega bo‘lib, nikoh marosimi shartlari ular tomonidan ishlab chiqilgan va bunda qizlar ham initsiatsiya shartlariga o‘xshash shartlarni bajargan, deb taxmin qilish mumkin.⁵⁴

Epik qahramon hayotidagi motivlar tizimi dunyo xalqlari folklorida o‘xshashlik kasb etadi. Chunki istagan bir xalq yoki millat o‘zining xususiy tarixi jarayonida ko‘plab umumiy hodisalarni boshdan kechirgan. Bu jarayon eng qadimgi davrlarda ayniqsa bir-biriga juda o‘xshash bo‘lgan. Insoniyat tarixi, uning

⁵² Grintser P.A. Epos drevnego mira // Tipologiya i vzaimosvyazi literatur drevnego mira. – Moskva: Nauka, 1971. S.183

⁵³ Kun N.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B.20,145.

⁵⁴ Степанова Н.М. Опыт использования гендерных квот в странах Западной Европы // Женщины в обществе: мифы и реалии. – Москва, 2001. – С. 15-33.

maishiy turmushi qadimiylig sari siljigan sayin umumiylik xususiyati kuchayib boradi. Mif va marosimning qorishiq holda kelishi arxaik eposga tegishli holat sifatida qaraladi. Lekin ayni holat, ya'ni marosimiy mifning "oshiq" turkumi dostonlari syujetida ham qo'llanilishi, ushbu tur dostonlar asosi ham ko'hna manbalardan bahra olganligini bildiradi.

Epik janrlarda, xususan, dostonlarda tug'ilish, tush, sinov, safar, qaytish hamda uylanish motivlari asarning asosiy negizi hisoblanadi. Bu motivlar turlicha kompozitsion tuzilishga ega bo'ladi va zanjir tarzida birlashib, syujetni shakllantiradi.

O'zbek folklorshunosligida epik asarlarda uylanish motivlarining tarixiy-mifologik va marosimiy ildizlarini ochib berish, mifologik tasavvurdan poetik tafakkurga o'tish jarayonida ularning qanday badiiy-estetik sathga ko'chishi jarayonini ko'rsatish, uylanish motiv turlarining epik ijod tabiatiga uyg'un ravishida namoyon bo'lish qonuniyatlarini ochib berish orqali ularning "oshiq" turkum dostonlar tarkibidagi badiiy vazifalarni oydinlashtirish, muayyan matn tarkibidagi uylanish motivining asosiy turlarini tasniflash folklor asarlari poetikasini keng ko'lamda tadqiq etishga asos bo'ladi. Uylanish motivlari juda ko'plab olimlar tadqiq qilgan bo'lsalarda, lekin o'zining mukammal tavsifini topmagan. Shu ma'noda aytish joizki, uylanish motivlarini batafsil o'rganmay turib, syujet va motiv tadqiqi borasida mavjud qarashlarni bir tizimga keltirish, motivlar rivojini to'la tasavvur qilish orqali muayyan asar mohiyatini bir butunlikda idrok etish mumkin emas. Shuning uchun ham, aynan shu bo'limda uylanish motivlariga murojat qildik.

"Oshiq" turkum dostonlarida uylanish motivi turli kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, boshqa yetakchi motivlar bilan

birlashib, syujetni shakllantiradi. Uylanish motivi syujet tuzilishidagi o‘rnini belgilashdan keyingi tekshirishlar syujet tiplarini aniqlashdir. Bu jarayonda o‘zak motivlar orqali syujet tiplari qayta tiklanadi. Ikkilamchi motivlar faol holatdagi yetakchi motivlar atrofida birlashadi. Bu fikrlar tasdig‘ini topish uchun “oshiq” turkum dostonlaridan misollarga yuzlanamiz.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud”, “Oshiq Alband”, “Oshiq Najab” hamda “Hiloli pari va G‘arib” dostonlarning syujetidagi uylanish motivlarini ko‘rib chiqish bilan bir qatorda, ularni har biri qaysi motiv bilan uzviy bog‘liqligi hamda o‘xshash taraflarini qiyoslab tahlil qilamiz.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining syujetida uylanish motivi hususida to‘xtalishimiz oldin ushbu doston syujetining qisqacha bayonini keltiramiz:

“Podsho Shohabbos va uning vaziri Hasanlar quda bo‘lishiga ahd qilib, shartnoma tuzishadi. Podsho qizli bo‘lib, otini Shohsanam qo‘yadi. Vazir o‘g‘illik bo‘lib, unga G‘aribjon ismini beradi. Bu orada Hasan vazir vafot etadi. Shohsanam va G‘arib maktabga birga qatnab, ulg‘ayib, bir-biriga muhabbat qo‘yishadi. Lekin podsho qizini G‘aribga berish fikridan qaytadi. G‘aribning onasi ahdnomani ko‘rsatganda G‘aribni onasi bilan birga sahroga haydaydi. G‘arib uch yil podachilik qiladi.

G‘arib Shohsanamning ko‘shkiga kelib, uning qul olishini eshitadi va o‘zini qul bozoriga soldiradi. G‘aribning soz chalib, qo‘shiq aytishidan tanib qolgan Shohsanam uni ming tilloga sotib olib, qullari orasiga qo‘shib qo‘yadi. Bu holdan xafa bo‘lgan G‘arib uyiga qaytib ketadi. Lekin ishq g‘olib kelib, Shohsanamning bog‘boniga shogirdlikka tushib, o‘z yoriga atab yozilgan guldasta

yuboradi. Shohsanamning ham ishq o't olib, G'aribni axtaradi. Ular Aqcha kaniz yordamida bir-birlarining vasliga yetishadilar. Lekin G'aribni sevib qolib, rad javobini olgan Suvchi kaniz Shohabbosga voqeani yetkazadi. Shohsanam G'aribni Aqcha kaniz ko'magida Yasmiq momo hujrasiga bekitadi. Podsho odamlari G'aribni topa olmaydilar.

Shohsanam yana G'arib bilan uchrashadi. Lekin podsho ayg'oqchilardan qo'rqib, G'aribga Bag'dod shahriga ketib, ko'zdan vaqtincha yiroq bo'lishni maslahat beradi. Bag'dod shohining o'g'li G'aribga Bog'imurodni berib, o'z xizmatiga oladi.

G'aribning ta'rifini eshitib, Odil shohning qizi Hiloli pari unga oshiq bo'ladi. Dastagul kanizi orqali niyatiga yetmoqchi bo'lishadi, lekin o'zi kelib ishq izhor etsa ham, G'arib rad javobini beradi. Hiloli pari jahli chiqib kanizlariga urdiradi.

Shohsanam uzoq ketgan G'aribdan xabar olish uchun Aqcha kanizni erkak libosida Bag'dodga jo'natadi. G'arib Shohsanamning bog'iga keldi. Raqiblardan xavotir olib, G'arib va Shohsanam safarga chiqdilar. Lekin G'arib yo'lda yurolmay qolgan Shohsanamni qoldirib, o'zi Xalaf shahriga yetib, bir momoning uyida yashay boshlaydi.

Ovga chiqqan Shohabbos o'z qizini, tanimay uning husniga mast bo'lib yiqiladi. Shohsanam otasining otiga minib shaharga keladi va voqeani vazirlarga yetkazadi. Shohabbos gap nimada ekanligini tushunadi. Vaziri unga G'aribga nisbatan adolatsizlik qilganligini aytadi. Shohabbos Shohsanamni G'aribjonga topshirdim, deydi. Shohsanam G'aribni topish uchun Boboxon degan kishi bilan yo'lga chiqadi. Lekin Boboxonning yo'lda fe'li aynib, niyati buziladi. Shohsanam uni chashmaga cho'milishga yuboradi. Boboxon shotir chashmaga cho'kib o'ladi. Erkak libosida yo'lga tushgan Shohsanam

mirshab qo‘liga tushib, zindonband bo‘ladi. U zindonda o‘z holini qo‘shiq qiladi. Bug‘roxonga bu gaplar yetib, uning dodini tinglab, o‘z yurtiga qaytaradi.

Bu orada Shohabbos o‘lib, o‘rniga Shohvalad podsho bo‘lib, Shohsanamga sovchi qo‘yadi. Shohsanam imkonsiz holda Aqcha kanizining maslahatiga ko‘ra yetti oy to‘y berib, yurtdagi barcha ashulachi sozandalarni keltirib ko‘shk oldidan qo‘shiq aytib o‘tkazishini shart qilib qo‘yadi. Muhlatga yetti kun qoladi. Shohsanam Azbarxo‘ja degan savdogarni Xalaf Shirvonga jo‘natib, G‘aribni toptiradi. G‘arib voqeadan xabar topib, kal sifatida avval ko‘r bo‘lib qolgan onasining oldiga kelib, o‘z sozini so‘rab olib, ko‘shk oldida qo‘shiq aytmoqchi bo‘adi. Lekin uni ket, kal, deb yaqin yo‘latmaydilar. G‘arib choyxonalarda o‘tirgan yigitlardan o‘z nomi qatag‘on qilinganini biladi. Yigitlar yordamida ko‘shk oldida o‘z nomini qo‘shib qo‘shiq aytadi. Podsho mulozimlari uni gunohkor qilib, Shohvalad oldida yetkazishdi. Shoh uni dorga osishni buyuradi.

G‘arib o‘zining bir g‘arib ekanligini aytganda podsho uni ozod qilib, istagancha qo‘shiq aytishga ruhsat beradi.

Shohsanam va G‘arib ko‘shk oldida bir-biri bilan qo‘shiq aytishib, savol-javob qilib, topishib, hushlaridan ketishadi.

Voqeadan Shohvalad xabar topib, Shohabbos davrida xizmat qilgan ikki mulozimni bu ikkisini ham o‘ldiring deb jo‘natadi. Lekin xalq to‘planib, mulozimlar ham ularni o‘ldirishga ko‘zlari qiymay, Shohsanam va G‘aribni podshoning oldiga olib boradilar. Podsho

xalqining g‘azabidan cho‘chib, ularni o‘z holiga qoyadi. Sevishganlar murod-maqsadga yetadi”⁵⁵.

Asar syujetlaridan uylanish motivini tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, eng avvalo ikki do‘st farzandlari: Oshiq G‘arib hamda Shohsanamning dunyoga kelishi bilan ulani unashtirib qo‘yishidan boshlansa, oshiqning safarga jo‘nab ketishiyu, turli hil to‘siq-sinovlarga duch kelishi, ulardan birgalikda yengib o‘tib murod maqsadiga yetishi uylanish motivining asosi hisoblanadi.

Odatda, “oshiq” turkum dostonlarida syujetlar homiy kuchlar orqali nikoh qilinishi, uylanish motiviga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biridir. Bunga misol qilib, “oshiq” turkum dostonlari syujetining ikkinchi tipiga mansub “Oshiq Mahmud” hamda “Oshiq Alband” dostonlari o‘zaro muqoyasa qilinib, ularning syujet tarkibi yaxlit holatga keltirilsa, ushbu tip syujetga xos quyidagi yetakchi motivlar orqali uylanish motivi aniq ko‘zga tashlanadi:

1. Qahramonlarning g‘ayri tabiiy dunyoga kelishi yoki farzand talab ota-onaga g‘aybdan farzand ato qilinishi.

“Oshiq Mahmud” dostonidagi ayni motivni ushbu tip syujetga asoslangan ikkinchi bir romanik doston - “Kuntug‘mish” da ham uchratamiz.

“Oshiq Alband” dostoni noan‘anaviy tarzda, ya‘ni qahramon voyaga yetib, o‘z ustozini - piri tarbiyasida bo‘lgan payt, piring shonu shuhrati va uning o‘z shogirdi Oshiq Albandni bellashuv uchun Odilxon huzuriga yuborishi voqealari tafsiloti bilan boshlanadi. O‘ylab qaralsa, Oshiq Albandning o‘z homiyi - piri tarbiyasida bo‘lish mohiyatan ilohiy tug‘ilish motivining mantiqiy davomi

⁵⁵ Oshiq G‘arib va Shohsanam. Toshkent: Fan, 1956.

hisoblanadi. Chunki epik an'analar talabiga ko'ra, ilohiy homila topib, homiy ruhlar nazoratida bo'lgan qahramon, homiylar tomonidan tarbiyalanib, doimiy ravishda ko'mak olib turadi. Doston syujetining navbatdagi tayanch motivi bu holatni tasdiq etadi.

2. Oshiq- ma'shuqaning bir-biriga tushda ko'ngil bog'lab, taqdirlari bir ekanligini bilishi.

3. Oshiqning ma'shuqasini izlab yo'lga chiqishi.

4. Oshiqning o'z yo'lida turli to'siq-sinovlardan o'tishi.

Xuddi shu o'rinda romanik, xususan, oshiq dostonlariga xos bo'lgan to'siq sinov ko'rinishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Qahramonlik tipidagi dostonlarida qahramon yo'lidagi sinovlar uning jasorati, jang mahorati, kuch-qudrati bilan bartaraf bo'lsa, ishqiy romanik, jumladan, "oshiq" turkum dostonlarida asosiy to'siq - sinov uning o'z sevgilisiga bo'lgan muhabbatining qanchalik darajada kuchliligi bilan isbotlanadi. "Oshiq Alband", avvalo, Jahongir xalifaning qizi Sarvinozga, so'ngra Xo'ja G'oyibning uch yuz oltmish qizlarning a'losi bo'lmish opa-singil Guljamol va Durjamollarga duch keladi. Hatto, "Alband shayton vos-vosa qilib: "So'na deb umrim o'tar, kel shularning birini So'na deb davron so'rayin", - deb bir dam tushdi. Shul vaqtda bir boboyi mo'ysafid kelib aytdi: "E, Albandjon, hay-hay, albatta bir ishda?"⁵⁶.

Oshiq Mahmud ham daryo bo'yida ikki qizga duch keladi. Qizlar uni Nigorxondan qaytarmoqchi bo'lishadi:

" – Ey Mahmudjon! Sening bu maqsadingni amalga oshmog'i mushkuldir, shahri Lut bilan sen turgan joy besh oylik yo'ldir, yo'lda qanchadan-qancha devlar, ajdaholar, ofat va balolar bor. Bunday azob chekib o'lib ketgandan ko'ra, bizlarning birimizga Nigorxon ot

⁵⁶ "Oshiq Alband" dostoni. B.28

qo‘yib, nikohinga olib qo‘ya qolsang bo‘lmasmi? - dedi. Bizlar ham Nigorxon turgan o‘rinda turishimiz mumkin-ku!”⁵⁷.

Oshiq Mahmud qizlarga yaxshi so‘zlab, rad javobini beradi. “O‘tkinchi havas bilan husningni xarob etma!”⁵⁸ – deydi. Ma’lum bo‘lmoqdaki, bu o‘rinda diqqat-e’tibor oshiqning muhabbati, ishq qudratiga qaratilgan.

5. Oshiqning ma’shuqasi yashovchi shaharga kelib, o‘ziga xayrixoh kishi bilan duch kelishi.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud” dostonlarida xayrixoh shaxs baqqol sifatida namoyon bo‘ladi.

6. Oshiqning baxshi ekanligi ma’lum bo‘lib, podsho saroyiga taklif etilishi va uning bu yerda o‘z sevgilisiga vasliga erishishi.

7. Raqib tomonidan oshiq-ma’shuq sirining oshkor qilinib, ularning jazoga tortilishi.

8. Oshiq-ma’shuqlarning hamkor do‘st yoki homiy yordamida murod-maqsadlariga yetishishi.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud” dostonlari o‘rtasida bir xil umumiy jihatlar bilan bir qatorda, ularni bir-biridan farqlab turuvchi xususiy syujet yo‘nalishlari va motivlar ham mavjud. Bu jihat birinchi galda “Oshiq Mahmud” dostonidagi do‘st-hamkor yo‘nalishidir.

Dostonda tasvirlanishicha, Oshiq Mahmudning tushiga nuroniy chol kirib: “ - O‘g‘lim Mahmudjon! Qambarjon degan bir yaxshi yigit bor. Nigorxonni olishga borganingda, uning ustidan borib, birga olib ket, inshollo, yo‘ling oq, yo‘ldoshing haq bo‘lg‘ay”, - deb uch kosa sharob ichirib, og‘ziga tuflab, orqasiga shappot urib, yo‘l yo‘riqlar

⁵⁷ Oshiq Mahmud. – Toshkent: Fan, 1970. B.20

⁵⁸ O‘sha asar. B.20

ko'rsatib, g'oyib bo'ldi"⁵⁹. Qambar ham shu xilda tush ko'radi.⁶⁰. Qambar ham Oshiq Mahmud kabi baxshi. Ikki do'st podsho saroyida qo'shiq aytganida Oshiq Mahmudning siri oshkor bo'lishidan asrash uchun Qambarning xatti-harakatlari, ayniqsa, oshiq Mahmud va Nigorxon daryoga oqib ketishganida ularni Qambarning izlab topishi uning iloh tomonidan saylangan haqiqiy do'st ekanligini isbot etadi.

9. Dostondagi yana bir kam uchraydigan holat, bu o'lib-tirilish motividir. Mahmudning raqiblari - dargohdan quvilgan baxshilarning uni daryoga tashlashi, Nigorxonning ham o'zini daryoga otib, sevishtanlarning halok bo'lishi va ularni Qambarning daryo adog'idagi Mamlakat podshoning bog'idan topishi, shamol bilan bo'lgan paydo bo'lgan ikki nuroniy cholning oshiq-ma'shuqlarni tiriltirishi "Oshiq Mahmud" dostoni syujetini o'ziga xos ko'rinishda shakllantiradi.

Dostondagi ushbu motivlar bevosita mifologik asosga egaligi bilan ham e'tiborga molik. Qahramonning daryoga oqishi motivi mohiyatan o'zga olamga sayohat, safar bilan bog'liq sinov hisoblanadi. Bu motivning qadimiy ko'rinishini "Tohir va Zuhra" dostonidagi Tohirning sandiqqa solinib, daryoga oqizilishida ko'ramiz. Aslida "Tohir va Zuhra"dagi daryo o'zga olamga olib boruvchi mifik daryodir. "Oshiq Mahmud" dostonidagi oshiq-ma'shuqlar g'arq bo'lgan daryo ham aynan ana shu mifik daryo bilan bog'liq. Oshiq Mahmud va Nigorxonning mifologik daryoga g'arq bo'lib, o'zga yurtga oqib borishlari va u yerda do'st - Qambarjonning iltijolari, zahmati va homiy - eranlarning yordamida qayta tirilishi ularning chinakam ishq sinovidan o'tib, yangi hol bilan qayta tirilishlarini bildiradi.

⁵⁹ Oshiq Mahmud. – Toshkent: Fan, 1970. B.16

⁶⁰ O'sha asar. B.23

Demak, “Oshiq Alband” dostonida ham “Oshiq Mahmud” dostonlarida qahramonlarning tushiga nuroniy pir kirib, ularni birbirlariga nikohlab qo‘yishi, oshiq o‘z ma’shuqasini izlab safarga chiqishi, turli to‘siq-sinovlardan o‘tib, o‘lib-tirilishlari uylanish motivining asosini tashkil qiladi.

“Oshiq” dostonlarining biz yuqorida yaxlitlashtirib, ixcham holatga keltirgan syujet tipi ham ishqiy romanik dostonlar orasida keng qo‘llaniadi. Bu o‘rinda “Kuntug‘mish” va “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlar orasidagi ishqiy-sarguzasht xarakteridagi namunalarini misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin.

“Oshiq” turkum dostonlarining har ikkala turi ham mifologik asosda shakllanib, yangicha talqinlar olganligini ushbu syujet halqalarini tashkil etuvchi yetakchi motivlar tahlili yanada yorqinroq namoyon qiladi.

Umumo‘zbek epik ijodining tarkibiy bir qismi bo‘lmish Xorazm dostonlarida uylanish motivining tutgan o‘rnini belgilashda an’anaviy motivlarning dastlabki epik yacheyka sifatida ko‘rsatib berish muhim ahamiyatga ega. Uylanish motivining shakllanishida mifik tasavvurlar muhim asos vazifasini bajarganligi ilmiy adabiyotlarda qayd qilingan.

Xulosa qilib aytganda, uylanish motivi Xorazm epik an‘analari ko‘lamida keng shakllangan motiv bo‘lib, asosan tug‘ilish, tush, sinov hamda o‘lib-tirilish motivlari bilan chambarchas bog‘liq holda voqealar bayonida uchramiz. “Oshiq” turkum dostonlaridagi uylanish motivining tarixiy ildizlari shuni ko‘rsatadiki, ushbu motiv xalqimizning tarixiy-mifologik va marosimiy ildizlarini ochib berishi, mifologik tasavvurdan poetik tafakkurga o‘tish jarayonida ularning badiiy-estetik sathga ko‘chishi jarayonini ko‘rsatishi,

uylanish motiv turlarining epik ijod tabiatiga uyg'un ravishida namoyon bo'lish qonuniyatlarini ochib berishi, asar tarkibidagi badiiy vazifalarni oydinlashtirish ilmiy tadqiqot ishimizning ushbu faslini keng ko'lamda tadqiq etishga asos bo'ldi.

III BOB. “OSHIQ TURKUM” DOSTONLARINING BADIYATI.

3.1. “Oshiq turkum” dostonlarida badiiy tasviriy vositalar

Buyuk kashfiyotlardan bo‘lmish so‘z san‘ati tarixi juda qadimiy bo‘lib, uning tub ildizlari dunyo xalqlarining folklori tarixiga borib taqaladi. Jumladan, so‘z san‘ati tarixining bir uchi xalq dostonlariga borib tegadi. Xalq dostonlari qaysi namuna turiga qaramaylik, tub ildizlari va shakllanishida epik tafakkur bilan bir vaqtda, mifologik tasavvurlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ya‘ni, epik tafakkur mifologik tasavvurni yangidan badiiy rivojlantib, badiiy-estetik voqelikka olib chiqadi. Mifologik tasavvurlar qadimgi odamlarning ibtidoiy tushunchalari mahsuli bo‘lib, inson tafakkurining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Epik asarda tasvirlangan qahramon harakteriga xos tabiiylikni saqlab qolgan holda uning dardini, ichki kechinmalarni ramziy - metaforik usulda talqin qilish uchun har bir baxshi avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan e‘tiqod va ishonchlarga murojaat etgan holda, ularni badiiy-estetik mahorat bilan dostonlarda kuylaydi.

Dostonlar tarkibida asrlar davomida shakllanib, takomillashib, o‘ziga xos bir badiiy sistemani tashkil etib kelayotgan, eposning bayon uslubini belgilovchi badiiy ifoda vositalari - epik an’anaviy formulalar hisoblanadi.

Xorazm dostonlarining matni, xususan, ularning she‘riy qismi turg‘un ko‘rinishga ega. S.Ro‘zimboyev bu haqida shunday yozadi: “.....dostonlar tarkibidagi she‘rlar ritmik jihatdan tugal uyg‘unlashgan, silliqdashgan, badiiy jihatdan mukammal bo‘lgan she‘riy matn shakliga kirgan. Shu boisdan ham

Xorazm dostonlaridagi she'riy parchalar qat'iy tartib asosida qofiyalashadi va bandlarga bo'linadi⁶¹. Yana bir o'ziga xos jihat shundaki, Xorazm dostonchiligidagi epik repertuarining aksariyat qismi ishqiy romanik turga mansub namunalardir.

Bevosita baxshilar ijrosidagi o'ziga xos jihat xususida to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda baxshilar ikki yo'lda o'z asarlarini ommalashtirishyotganligi qayd etilgan. Ya'ni: a) baxshilar va ansamblli xalifalar repertuari orqali og'zaki tarzda; b) yakka xalfalar, qissaxonlar repertuari orqali kitobiy matn o'qib yodaki eshtirish tarzida⁶²

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlar Xorazm dostonchiligi o'z an'analari, repertuarlari va boshqa jihatlari bilan umumo'zbek epik ijodiyotida munosib o'ringa ega ekanligini ko'rsatib turipdi. Shunday ekn, bu hududdagi epik ijod bilan bog'liq barcha holatlarni ilmiy hihatdan tadqiq etib, munosib bahosini berish umumo'zbek epik ijodiyotini yanada teranroq tanish, ilmiy o'rganish va keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish imkonini yaratdi.

Epik an'anaviy formulalar "oshiq" turkum dostonlarining asosini tashkil qiladi. Folklorshunos S.Ro'zimboyev o'z maqolasida shunday yozadi: "Xorazmda tarqalgan dostonlarda bosh qahramonni safarga kuzatish oldidan savol-javob qilish, unga oq yo'l tilash, asar qahramonning ot-yaroq so'rashi, uning ba'zan jang oldidan yohud safarga ketayotib aytadigan faxriyalari, "epik homiy"lar bilan duch kelishi, jang tasviri, otiga murojaat qilishi, sevgilisini ta'rif qilishi, qiz olib kelishi, finalda to'y-tantananing boshlanishi kabi an'anaviy epizodlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Ularda ishlatiladigan an'anaviy ifoda vositalari,

⁶¹ Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari. – Toshkent: Fan, 1985.- 19 b.

⁶² O'sha asar. B.21.

o‘ziga xos obrazli parallalizmlar, asardagi konkret vaziyatlar, obrazlarning qiyofasini va kayfiyatlarini bayon etishga xizmat qiladilar.”⁶³

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarni ta’kidlashimizdan maqsad, ilmiy tadqiqot ob’yektimizning bu bo‘limida “Oshiq” turkum dostonlarning aynan badiiy tasviriy vositalari haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. “Oshiq” turkum dostonlarida asarning ekspozitsiyasidan keyin, bosh qahramonning safar sarguzashtlaridan boshlanib, finalda to‘y-tantana bilan yakunlanishi, baxshining yuksak badiiy-estetik mahorati kuchli ekanini, dostondagi har bir obrazlar qiyofasi, konkret vaziyatlar, kayfiyatlar bayoni she’riy monologlarda tasvirlanganligi doston kuylovchining professional badihago‘ylik darajasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida jang tasviri, jasorat va mardlik, jangovorlik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lsa, “oshiq” turkum dostonlarida asosiy vazifasi esa ma’shuqa go‘zalligini, oshiqning iztiroblarini aks ettirishga yo‘naltirilgan. Ushbu fikrlarimizga “oshiq” turkum dostonlariga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam” da boshqa “oshiq” turkumiga kiruvchi namunalardan farqli holda oshiq va ma’shuqa voqealarida birdek faol ishtirok etadi. Oshiq o‘z sevgilisi va muhabbati uchun qanchalik kuyinib harakat qilsa, ma’shuqa ham undan kam bo‘lmagan darajada faoliyat ko‘rsatadi. Bu o‘rinda tarozning oshiq va ma’shuqa pallalari teng turadi. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida zo‘r ko‘tarinki ruh bilan tasvirlangan asosiy obrazlardan biri G‘aribdir. G‘arib butun qalbi bilan Shohsanam

⁶³ Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlaridagi epik klishelar va an’anaviy formulalarning o‘ziga xosligi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1990. - №2. B. 39.

uchun berilgan fidoyi, sofdil oshiq obrazidir. Uning barcha sarguzashtlari, azob va xo‘rlilari, ichki kechinmalari, o‘z yorining visoliga yetish uchun zo‘r chidam va yuksak iroda bilan olib borilgan kurashning rang-barang sahifalari orqali namoyon bo‘la boradi.⁶⁴ Ushbu dostonda oshiq o‘z yorining hajrida dard chekib, go‘zalligini ta’riflaganini quyidagi so‘zlarda ko‘rishimiz mumkin:

Yorim Sanamjonning so‘zi mazoli,
So‘zlaganda shirin tili sanoli,
Barmoqlari bo‘g‘im-bo‘g‘im hinoli,
Ilojim yo‘q yora bora bilmadim.⁶⁵

“Oshiq Mahmud” va “Oshiq Alband” dostonlarida bu holatning guvohi bo‘lmaymiz. Bu dostonlarda ma’shuqa oshiq qancha mashaqqat va sinovlardan o‘tib, uni izlab topib borgandan keyingina asar syujetida to‘laqonli ravishda namoyon bo‘ladi. Ushbu ikki xil syujet tipini yuzaga keltirgan “oshiq” turkum dostonlari tarixi, tub ildizlarini yoritishda ayni holatni inobatga olish kerak bo‘ladi. Chunki, har qanday asar qahramonlari taqdirining bayon etilish tarkibi qahramon xarakterining qanday asoslarda yuzaga kelishini belgilaydi.

Folklorshunoslikda romanik dostonlarga ham badiiy-estetik hodisa sifatida qahramonlik dostonlariga nisbatan real voqelikka uyg‘un tasvirlash holati kuchli. Ayniqsa, bevosita shahar hayotiga yaqin makon qamrovida yaratilgan “oshiq” turkum dostonlarida bu holat yanada yaqinroq seziladi. Ayni paytda, romanik

⁶⁴ Oshiqnoma. IV kitob, Urganch, 2009.(Nashrga tayyorlovchilar S.R.Ro‘zimboyev, S.S.Ro‘zimboyev, G.Eshchanova) B. 4

⁶⁵ O‘sha asar. – B. 13

dostonlarda qorishiq holatida yangi bir badiiy-estetik bosqichga ko'tarilgan xalqning qadim dunyoqarashlari, ishonch-e'tiqodlarining o'rni boshqa turdagi dostonlardan kam bo'lmagan darajada o'z o'rnini olgan. Bu holatni asarlarning badiiy tasviriy vositalari misolida yana aniqroq ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda folklorshunos Jabbor Eshonqulovning quyidagi fikrini keltirish o'rinli:

“Garchi har qanday obraz va hodisa zamirida voqelik yotkanini inkor etmagan holda, shuni ta'kidlash joizki, obraz va hodisadan to'liq reallik izlash asarni yuzakilashtiradi, obrazning tarixiyliigi, eng avvalo, unda mujassam etilgan ifoda va tasavvurda ko'rinadi. Bu ifoda hamda tasavvur turkiy xalqlarning birlamchi dunyoqarashlariga, shomonlik va ungacha bo'lgan davrlar tasavvurlariga mos va hozirgi kunga qadar ham shu tasavvurni tashiydi. Uni antagonistik sinfiy nuqtai nazardan izohlab bo'lmagani kabi, quruq xayolot deb ham bo'lmaydi. Bu obrazlar xalq tafakkur tarzining, xayoloti va dunyoqarashining bir bo'lagi sifatida tadqiq qilinmog'i shart. Shundagina biz an'anaviy obrazlar va xalq og'zaki ijodiga baho bergan bo'lamiz.”⁶⁶.

Bu o'rinda “oshiq” turkum dostonlaridagi yana bir muhim g'oyani alohida qayd etish lozim. Ma'lumki, xalqning ideali bo'lmish alplar bir paytning o'zida jismonan va ma'nan kamolga yetgan shaxslar bo'lishadi. Ular o'zlarining ana shu fazilatlari bilan xalq ozodligi, erki, ma'naviy yuksalishiga o'z hissalarini qo'shadilar. Aksariyat qahramonlik dostonlarida qahramonning jismoniy kuch-qudrati va shu jihati bilan bog'liq jasoratlari tasvirlanadi. Bu holning yorqin misoli “Alpomish” dostonida Alpomishning komoloti asarda u qadar ko'rsatilmagandek

⁶⁶ Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. . – Qarshi, Nasaf, 1999. B.7

tuyuladi. Faqat uning maktabda o‘qish, “Burro savodi chiqib, xat o‘qib-yozadilar, mullo bo‘ldi”⁶⁷, deb izohlash bilan kifoyalangandek ko‘rinadi. Aslida esa, Alpomishning ma’naviy kamoli uning homiy eranlar ta’limini olganligidan ma’lum.

“Oshiq” turkum dostonlarida asosiy urg‘u qahramonning ma’naviy tarbiyasi va kamolotiga qaratilgan. Oshiq qahramon o‘z oldidagi to‘siq va sinovlarni o‘zining fazilatlari bilan yengib o‘tadi. Biz bu o‘rinda qahramonning badiiy tasviri mifopoetik talqindan sof poetik talqinga aylanganligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Eposda qahramonning ma’naviy komolotini badiiy tasvirlagan she’riy parchalardan misol qilib “Oshiq Alband” dostonidan oldik. U yerda Oshiq Albandning piri Oshiq Oydinning mulla Ma’rifiy bilan savol-javob bellashuvi keltirilgan. Ushbu savol-javoblar ma’rifiy-irfoniy xarakterda bo‘lib, unda odam, olam va butun borliq yaxlitligi, ruh va tan munosabatlari haqidagi orifona fikr-mulohazalari badiiy tasvirlariga guvoh bo‘lamiz.

Masalan:

Savol:

-Na shahardir ikki sulton onadir,
Orif bo‘lsang, bizga bundan xabar ber.
Na sultondir bir-birina mehmondir,
Orif bo‘lsang, bizga tundan xabar ber.

Javob:

-Yalonchi shahardir tan bilan jon sultondir,

⁶⁷ Alpomish. – Toshkent, Sharq, 1998. 17-bet

Bizni orif bilsang, xabar bu bo‘ladir.
Ko‘p to‘lgancha bir-birina mehmondir-e,
Bizni orif bilsang, xabar bu bo‘ladir.⁶⁸

Oshiq Albandning Bag‘dod shahrida xalifa Jahongir bilan bo‘lib bahs-munozarasi ham ana shu tartibda kechadi.

Xalifai Jahongir savol beradi, Oshiq Alband javob qaytaradi.

Savol:

Bizdan savol o‘lsin Oshiq Albandga:

Na guzardir ikkilanmayin kechilur?

Na soqidir qudrat kimning qo‘lida,

U nimadir navbat bilan ichilur?

Javob:

Bizdan javob o‘lsin Xalifa Jahongira:

Umr-guzar: ikkilanmay kechilur,

Ajal soqi qudrat haqning qo‘lida,

Ajal maydur – navbat bilan ichilur...⁶⁹

Oshiq Alband xalifaning barcha savollariga munosib javob qaytaradi. Endi savol navbati Oshiq albandga keladi.

Oshiq Alband so‘raydi:

Bizdan savol o‘lsin Xalifa Jahongira,

Na ummatdur qaydadig‘i bilinmas?

⁶⁸ Oshiq Alband. – 5-bet

⁶⁹ O‘sha asar. – 10-bet

Qay bir xazinaning yuzinda,
Faqirdami, boydamidi bilinmas?
Na kishidir band o‘libdir gumona,
Qaysi kun turarmish oxir zamona,
Na sababdir g‘arq o‘libdir ummona,
Ul na kishidir o‘ltirishi sarkashli,
Ellik ming qanoti, ellik ming boshi,
Otasi qirqinda o‘g‘li yuz yoshli,
Na tuyadir yasadug‘i bilinmas?
Ul nadirkim, to‘rt yonida yuzi bor?
Ul nadirkim, siynasinda ko‘zi bor?
Bir kalomda uch yuz oltmish ma’no bor,
Yerda ko‘kda, joydadig‘i bilinmas.
Alband aytur uch yuz ming tursin,
To‘rt minga to‘rt yuzning safosin qursin,
Har kim ustoz bo‘lsa, javobin bersin,
To‘rt ming dolning bir joydadig‘i bilinmas.⁷⁰

Barcha komil ustozlargina ma’lum bu dunyo sir-sinoatlarini o‘ziga jamlovchi ushbu savollarga xalifai Jahongir javob topolmaydi. Oshiq Albandning ushbu savoli uning kamolotda yuksak maqomga erishganligi, ilmi hol, ilmi qolda benazir bo‘lganligi bildiradi. Aslida yetuk baxshi-shoir, oshiqlar ham so‘fiylar kabi yuksak

⁷⁰ Oshiq Alband. – 11-12-betlar

maqomda yuradilar. Shu ma'noda Oshiq Alband obrazini komil baxshi-shoir timsoli sifatida qarash mumkin. Ushbu so'fiyona savol-javobning "Oshiq" turkum dostonlari tarkibiga kiritilishini birgina yozma adabiyoti va kitobiy dostonlar an'anasi bilan baholash biryoqlamilik bo'ladi. "Oshiq" turkum dostonlarining tabiati, xususan, oshiq qahramon xarakteri, ya'ni uning ma'naviy kuch-qudratiga e'tiborning qaratilishi ham ana shu ruhdagi g'oyani talab etishi bu xil talqinlarning dostondan o'rin olishiga sabab bo'lgan.

Oshiqning o'z taqdirga yozilgan yorini izlab, mashaqqatli safarga o'tlanishi badiiy tasvirini "Oshiq Mahmud" hamda "Oshiq Alband" dostonlarida ko'rishimiz mumkin.

Real voqelik mantig'idan kelib chiqib baholanadigan bo'lsa, mazkur holat u qadar haqiqatga yaqin emas. Ayni safar tadbiri ushbu dostonlar asosining qadim an'analar zamirida shakllanganligini ko'rsatadi va safarga jo'novchi oshiqning badiiy tasvir zuvalasi an'anaviy tasavvurlar asosida paydo bo'lishligini bildiradi.

"Oshiq" turkum dostonlarida oshiq-ma'shuqalar uchrashuvi makon ham badiiy tasviriy vositalardan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bevosita misollarga murojaat qilamiz.

"Oshiq Mahmud" dostonida tush ko'rib uyg'ongan Mahmudning ahvolini ko'rgan vaziru vuzarolarga Mahmudjon shunday javob beradi:

"Og'alar, yotardim kecha tush ko'rdim,

Ali bobom kelib turg'il, dedilar,

Yo'lni uzoq ko'rdim, xiyla ish bildim,

Nigorxonni hikoh qilib berdilar.
Bu nechuk sir – aslo yeta bilmasman,
Ayriliq o‘tiga duza bilmasman,
O‘zga yora boshim qo‘sha bilmasman,
Shahri Lut eliga borg‘il, dedilar.
Og‘alar, ko‘rganim bayon aylasam,
Sizlarga tushimni ayon aylasam,
Qizil gul bog‘idan chaman bog‘lasam,
Nigorxon bog‘innan tergil, dedilar”.⁷¹

Ushbu matnda alohida urg‘u berilgan badiiy tasviriy vositasi epik makon “shahri Lut” bo‘lsa-da, yorning turar manzili sifatida bog‘ ko‘rsatilgan. Agar diqqat bilan qaralsa, “oshiq” turkum dostonlarida oshiq-ma’shuqlarning uchrashib, bir-biriga yetishuv makonlari badiiy tasviriy vositalar sifatida asosan “bog‘” va “gulzor” tanlangan. Hatto oshiq G‘arib sevgilisi Sanamni ko‘rish uchun bog‘bonga shogird tushadi.

“G‘arib onasi, singlisi bilan xayrlashib, bir qancha yo‘l yurib, Shohsanamning bog‘iga keladi va bog‘bonning xizmatini qilib yuradi. Bahor kunlarida bog‘bon Shohsanamga guldasta olib borar edi. Bir kun tongda G‘aribjon boqqa yolg‘iz borib, ochilgan gullardan guldasta bog‘lab, g‘azal yozib, guldasta ichiga qo‘ydi. Bog‘bon G‘aribning guldastasini o‘zi bog‘lagan guldastalarga qo‘shib, Shohsanamga olib bordi. Shohsanam bog‘bonning guldastalarining ichida bir necha yaxshi bog‘langan guldastalarni ko‘rib, ularni kim bog‘laganligini

⁷¹ Oshiq Mahmud. – 17-bet

so‘raydi. Bog‘bon chiroyli guldastalarni o‘zining xizmatkor yigiti bog‘laganligini aytadi. Shohsanam bir yaxshi guldastani olib ko‘rsa, ichidan xat chiqdi. Hayron bo‘lib xatni o‘qiydi.

Quloq solib eshit mening arzimni,
Zamon-zamon battar bo‘ldim dardingdan.
Nola chekdim firoqingdan, hajringdan,
Qonlar yig‘lab o‘tar bo‘ldim dardingdan...

Kishi bilmas mani asli zotimni,
Sendan o‘zga hech kim bilmas dardimni,
G‘arib aytur: man kal qo‘ydim otimni,
Senga dodim aytar bo‘ldim dardingdan”.⁷²

Oshiq Mahmudning o‘z yorini bog‘da topishini homiy-erandan eshitishi, oshiq G‘aribning yor vasliga yetishishi uchun kal sifatida bog‘bonga shogird tushib, bog‘da gullar orasida Shohsanam bilan uchrashishi shunchaki tasodif emas. “Oshiq Alband” dostonida Albandni jazolash maqsadida Nazarbek uni pashshalarga yem bo‘lsin deb, Xatar terakka bog‘laganida, tongacha uni pashshalar talab, butun badani qizil qonga belanadi. Ana shunda Oshiq Alband xudoga murojaat qiladi:

“.. Bu qonima gullar bo‘ldi rang-barang,
Qonlarga do‘libdi dog‘ bilan dolon.
Qo‘ymang bu baloda – tez ozod aylag‘il.

⁷² Oshiq G‘arib va Shohsanam. – 6-7-betlar.

Har yerga borganda chekarman meynat,

Oshiqni o'ltirur jonima minnat,

Bu kunimda ziyoda bo'ldi mashaqqat,

Mani bu meynatdan ozod aylag'il"⁷³

“Buzruglar hozir bo'lib, banddan xalos etib, ilohidan libosi shohona kiydirib: “Endi sen gullarning orasinda o'ltirg'il, endi sani So'najon izlab topsin,” deb gullarning orasiga o'tqazib g'oyib bo'ldilar”.⁷⁴ So'najon oshiq Albandni gullar orasidan topadi.

Keltirilgan misollardan shuni ko'rishimiz mumkinki, “oshiq” turkum dostonlarida oshiq-ma'shuqlarning bog'da uchrashuvi va bir-birining vasliga yetishuvi an'anaviy holat kasb etmoqda. Ma'shuqani gul, oshiqni bulbul timsolida tasvirlash aslida xalq she'riyati uchun xos. Bu o'rinda bog' va gulzorning ramziy mazmun kasb etayotkanligini ham nazardan qochirmaslik kerak. Oshiq-ma'shuqlarning bir-biriga yetishuvida ularga hamisha homiy ruhlar rahnamo bo'lishadi.

Ushbu holat ham oshiq, ya'ni baxshi haqidagi xalq tasavvurlari an'analariga bog'liqdir. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, baxshi-shoir xuddi shomondek hamisha o'z piri, homiy eranlardan quvvat olib turadi. “Oshiq” turkum dostonlarida homiy eranlarga ko'p o'rin ajratilishining va oshiqning o'z ma'naviy ustozlar himoyasida tasvirlanishining zamirini ana shu dunyoqarashlar tizimi belgilaydi.

“Oshiq” turkum dostonlarda sevgi va muhabbat, ma'shuqalarining qahramonligi, kanizaklar alohida romantik ruh bilan tasvirlangan.

Shohsanam oshiq G'arib bilan birga tug'iladi. Ular go'dakligidan bir-biriga beshikkerti qilinadi. Shahabbos va'dasidan tongach, G'arib

⁷³ Oshiq Alband. – 33-bet

⁷⁴ O'sha asar. – 33-bet

bilan Shohsanam orasiga ayriliq tushadi. Lekin G‘arib Shohsanam uchun o‘zini bozorga solganda, ma’shuqa oshiqni ming tilloga sotib oladi. G‘arib kal suratida bog‘bonga shogird tushganida Shohsanam uni xati, guldastasidan tanib, o‘z bog‘ida yashirin saqlaydi. G‘arib Shohabbos ta‘qibidan qochib, Bag‘dod shahrida yetti yillik qochqinda yurganida uning izidan odam yuborib, chaqirtirib keladi. Shohsanam o‘z hayotini xavfu xatarga qo‘yib, G‘arib bilan birga o‘zga yurtlarga ketishga rozi bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda Shohsanam G‘arib bilan teng darajada o‘z sevgisi uchun kurashish tasvirlarini ko‘rishimiz mumkin.

“Oshiq Mahmud” va “Oshiq Alband” dostonidagi ma’shuqalar oshiqdari ularni izlab borib, jonlarini xavf-xatarga qo‘yib, o‘zlarini tanitmaganlaricha asar voqealariga aralashmaydilar. Lekin “oshiq” turkum dostonlaridagi ma’shuqalarni yaxlitlashtiruvchi bir an’anaviy tasvir borki, bu holat “oshiq” dostonlarining barchasida mohiyatan deyarli bir xilda o‘z talqinini topgan. Ya’ni, oshiqning bog‘da yoki saroyda turganligini ma’shuqaga kanizning ishqini tushib, unga o‘zining shaydiligini bildirishi va aksariyat holda oshiq-ma’shuqalarning siri fosh bo‘lishiga ana shu inkor qilingan sevgining sabab bo‘lishi.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida Shohsanam va G‘arib bog‘da bir-birini topib, visolga yetishib, ahdu paymon qilishgan vaqtida G‘aribga shaydo bo‘lib, sevgisi rad etilgan Suvchi kaniz, rad etilgach oshiq-ma’shuqlarning bog‘da birga ekanliklarini Shohabbosga yetkazadi.⁷⁵

“Oshiq Alband” dostonida So‘najan oshiq Albandni gulzor ichidan topib, o‘z ko‘shkiga olib borib, to‘qqiz kecha-kunduz davron suradi. Ana shunda Albandni yoqtrib qolgan Gulzor kaniz So‘nadan

⁷⁵ Oshiq G‘arib va Shohsanam. – 10-bet.

Albandjonni bir kechaga so‘raydi. Rad javobini olgach, bor gapni So‘naning ota-onasiga yetkazadi.⁷⁶

“Oshiq Mahmud” dostonida esa oshiq-ma’shuqalar sirini oshiq Mahmudning raqiblari bo‘lmish baxshilar oshkor etishadi⁷⁷.

Oshiq-ma’shuqalarning bog‘da – gulzorda topishuvi va oshiqni avvalo kanizlardan biri ko‘rib, unga shaydo bo‘lishi motivini Go‘ro‘g‘li turkumiga mansub “Yunus pari” dostonida ham uchratamiz⁷⁸.

“Hilola pari va G‘arib” dostonida ham Hilola parining kanizi Dastagul bog‘ga kelib, G‘aribjonga hushomad qilib murojaat qilganini ushbu she’riy parchalarda ko‘rishimiz mumkin:

Ey G‘aribjon muncha so‘zlar demagil,

Bog‘aning yaxshidur ishorat bila.

Maning bu so‘zimni hazil bilmagil,

Borganing yaxshidur siyosat bila.

Bog‘i safo aning manzil makoni,

Tamomi zarafshon ko‘shki ayvoni,

Bo‘lsang Hilolaning aziz mehmoni,

Solur yuz ming alvon qiyomat bila.

Halo yaxshi so‘zlar birla yurmasang,

⁷⁶ Oshiq Alband. – 33-bet.

⁷⁷ Oshiq Mahmud. – 35-bet.

⁷⁸ Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. – Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967. – 201-220 – betlar.

Mani ushbu so‘zlarima kirmasang,
Maning birla bugun hamroh bormasang,
Borursan nichcha ming alomat bila.

Kelarlar ustinga nichcha ming qizlar,
Har qaysisi bilgan so‘zini so‘zlar,
O‘tirurlar nichcha sohib tamizlar,
Bormayin qo‘ymaslar rivoyat bila⁷⁹.

Badiiy tasvir vositalari asar tilining shirali, bo‘yoqdor, rang-barang bo‘lishiga yordam beruvchi omillardandir. Bu xususiyat “oshiq” turkum dostonlarda keltirilgan misollar orqali yaqqol sezilib turibdi. Chunki, asarda tabiatdagi ixchamlik, siqqlik ko‘chma ma’no tashuvchi badiiy tasvir vositalariga ko‘proq ehtiyoj seziladi. Dostonlarning lirik liro-epik, dramatik ko‘rinishlarida badiiy tasvir vositalarning maqomi har qachongidan kuchayib borayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Tasvir vositalarining quyuq qo‘llanishi murakkab kechinmalar tasvirini chizishda, rangin ruhiy holatlarni siqiq va aniq ifoda etishda qo‘l keladi. Bu kabi xususiyatlar epik formulalarning an’anaviy dostonlar matnidagi bir ko‘rinish bo‘lsa, ikkinchidan, nazmiy misralarning goh boshida, goh o‘rtasida kelib doston tasvirida ifoda etilayotgan voqelikka badiiy o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Bu holat baxshi xotirasida saqlangan epik formulalar yordamida epik voqelikni shakllantiradi, jonli obraz yaratadi. Bu haqida folklorshunos Jabbor Eshonqulov shunday deb fikr bildiradi: “Epik formula bu eposning yadrosidir... Og‘zaki ijodning qonuniyati bitta bu epik formulaga

⁷⁹ Oshiqnoma. IV kitob, Urganch, 2009.(Nashrga tayyorlovchilar S.R.Ro‘zimboyev, S.S.Ro‘zimboyev, G.Eshchanova) B.- 56

asoslanganlik, bu ijodning og‘zalikiligini, an’anaviyligini ta’minlaydi. Epik formula bu eposning qurilmasi, suyagidir”⁸⁰.

“Oshiq” dostonlarining aksariyati qo‘yozmalar holida yetib kelganligi sababli ularda yozma adabiyotga xos bo‘lgan epik formulalar ko‘proq takrorlanadi. Masalan, “Yig‘lama sevgilim, ketsam kelarman”, “Saringa do‘nayin, gul yuzli dilbar”, “Tur yeringdan, bog‘ saylina ketali”, “Toza navjuvonim, qaydin bo‘larsan”, “Qoshlarin qarodur, ko‘zlaring jayron”, “So‘zlaganda dur sochilar og‘zidan”, “Biring so‘na, biring g‘ozsan”, “Biring bahor, biring yozsan”, “Dog‘lardan arimas qorlar”. Bunday qaytariq misralarning voqea-hodisalar, qahramon ruhiyatidagi jarayonlarni ifodalashda muhim badiiylik kasb etishi bilan bir qatorda uning tarixiy ildiziga, ma’no mohiyatida xalqimizning qadimiy falsafiy qarashlari aks ettirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Keltirilgan barcha fikrlardan hulosa qilib aytganda, “oshiq” turkum dostonlar badiiy qurilishida badiiy tasviriy vositalar ijtimoiy-falsafiy, estetik-ma’rifiy vazifalarni bajaradi. Doston mazmuni ifoda etilgan shakl tarkibiga kiritilgan folklor materialining epik mazmundorligi hisobiga badiiylikni, estetik ta’sirchanlikni oshirishga, axloqiy-ta’limiy mazmuni o‘ziga xos shaklda kuchaytirib ifodalashga xizmat qiladi.

⁸⁰ Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji-T.: Fan, 2006. 46-b

3.2. “Oshiq turkum” dostonlaridagi yetakchi ramzlar talqini.

Xalqimizning koʻhna dunyoqarashlari, badiiy tafakkur tarzining ildizlarini aks ettiruvchi mifologik obrazlar, eposdagi ramzlar talqini turli metod va nazariy qarashlar asosida tadqiq etilib kelayotganligi eʼtiborga sazovordir. Oʻzbek xalq dostonlarida syujetlari, yetakchi motivlari, obrazlari oʻziga xos ravishda timsollarda idrok etilib, badiiy-estetik sathga koʻchgan.

XX asr gʻarb adabiyoti vakillari J.Joys, M.Prust, A.Kamyu, J.Sartr, R.Muzil, G.Gesse, U.Folkner, T.Vulf, X.L.Borxes, S.Bekket kabilar tushdagi manzaralarni ramz sifatida baholash ramziy tilga asoslanligi, ularning ijodiga katta taʼsir koʻrsatdi. Shu sababli Ovrupa yozuvchilari orasida tushni ramzlar sifatida baholashga asos solgan Freydni oʻqimagan yozuvchi boʻla olmaydi degan qarashi mavjud. Bu qarashlar “Tush taʼbirlari” kitobi bosilib chiqqandan soʻng vujudga keldi, adabiyotda aynan shu kitobning taʼsiri bilan syurealizm, shuur oqimi kabi adabiy oqimlar shakllana boshladi. Freyd tushni inson ruhiyatining koʻz bilan koʻrib, eshitib boʻlmaydigan tomonni aks ettiruvchi koʻzgu sifatida sharhlangan edi.⁸¹ Fromm esa bironta ham taʼbirlanmaydigan tush boʻlmaydi, har qanday arzimas tushda ham inson kayfiyati va kechinmasining qaysidir deb aytgan edi.⁸² Tushni ramz sifatida oʻrganish yozuvchilarga hayotdagi voqea-hodisalarni ham ramz sifatida talqin etish imkoniyatini kengaytirdi, deb taʼkidlaydi professor J.Eshonqulov.

⁸¹ Eshonqulov J.S. Folklor: Obraz va talqin. – Qarshi, Nasaf, 1999. B. 102

⁸² O'sha asar. B. 102.

San'at va mifning tili bitta - ramzlarga asoslanadi, deb yozadi J.Eshonqulov, hamda har ikkalasini ham ramzlarni sharhlab o'rganish mumkinligini aytadi, o'z "O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini" kitobida.⁸³

K.Yung miflarni tahlil qilishda ko'proq ommaviy ong osti hislarga e'tibor beradi. Uning fikricha, ommaviy ong osti hislari miflar yaratilyotganda asosiy o'rin egallagan.⁸⁴ Bu ong ostida hislari miflarga ramz, timsol, surat sifatida ko'chib o'tadi, to'g'rirog'i, tashqi dunyoni ramzlari bilan qabul qiladi.

Tush va mifni o'rganuvchi, sharhlovchi tilni E.Fromm "ramzlar tili" deb ataydi⁸⁵ va bu atama hozir jahon falsafa va folklorshunosligida ko'p takrorlanadigan atamaga aylandi.

Bu barcha fikr-mulohazalarni ta'kidlashimizdan maqsad, biz ham "Oshiq" turkum dotonlarida ramzlarni qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini, ular dostonning mazmun-mohiyatini qanchalik darajada ko'rsatib berishi haqida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz. Aytishimiz joizki, "oshiq" turkum dostonlardagi ramzlarni anglamay turib, asarning g'oyaviy-mazmuniy mohiyatini anglab yetishimiz qiyin kechadi. Yetakchi motivlar hamda ramzlar bir-biriga chambarchas bog'liq. Asosan, bu turkumda ramzlar takrorlanib kelib, asar syujeti hamda badiiy tasviri vositalari juda bir-biriga o'xshash tomonlari ko'p. Masalan, homiy ruhlar, ilohiy tug'ilish, olma, sharob kabilardir.

⁸³ Eshonqulov J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. - Toshkent, Fan, 2011. - 68b.

⁸⁴ Юнг К.Г. К вопросу о подсознание // Человек и его символы. – Москва: Серебряные нити, 1997. – С. 339ю

⁸⁵ Фромм Э. Забытый язык // Душа человека. – Москва: Политиздатб 1992.

Xorazm dostonlarida ramzlar turli xil epik bayon etilgan. Bu asarning o'ziga xos ko'rinishdagi badiiy shakllarini tarixiy- genetik nuqtai nazardan o'rganish Xorazm dostonlarining mifologiya bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatuvchi ko'plab ilmiy dalillarni beradi. Xorazm dostonlari silsilasida alohida o'rin tutuvchi "oshiq" turkum dostonlaridagi yetakchi ramzlarning tub mohiyati fikr yuritishda ushbu ramzlarni umumxorazm epik an'analar ko'lamida olib mulohaza yuritish talab etiladi. Ana shunda "oshiq" turkum dostonlarida ramzlarning qaysi ko'rinishi qo'llanib, o'z badiiy talqinini olganligining sabab va oqibatlari haqida to'la tasavvur hosil etish va ilmiy baholash imkoni paydo bo'ladi. Shu sababli ham biz ramzlarni talqin etishda nafaqat "oshiq" turkum dostonlari, balki qator dostonlar bilan ham o'zaro qiyos qilgan holda olib talqin etishni maqsadga muvofiq deb bildik. Bu o'rinda ramzlarni talqinini batafsil tahlil qilamiz.

Eposdagi eng yetakchi bo'lgan ramzlardan biri ilohiy kuchlar yohud ilohiy ruhlar, ya'ni badiiy talqinda Xazrat Ali, Xizr, pirlar, nuroniy chol kabi turli xil nomlar bilan asarda homiy kuchlar motivida kelgan.

Nafaqat "oshiq" turkum dostonlarida, balki o'zbek folkloridagi epik asarlarning barcha janrlarida, turlarida qahramonga homiylarning g'ayritabiiy ko'mak va yordam berishini kuzatamiz. Odatda, homiylar qahramon hayotining barcha bosqichlarida, turli shakllarda yordam beradi va ko'pchilik holatlarda homiylar bajargan ishlar qahramon tomonidan bajarildi deb ham qabul qilinadi.

Qahramonning tug'ilishi, uning tarbiya topishi, o'z oldida turgan vazifalarni bajarishda doimo homiy kuchlar yordam

beradi. Umuman olganda, hayoti davomida insonni hamisha qo‘llab-quvvatlovchi ilohiy ruhlar, ilohiy kuchlar homiy deb yurutiladi. Xususan, bu qarashlar esa shu olamda odam ko‘ziga har doim ham ko‘rinavermaydigan, lekin zarur paytda yordamga hozir ilohiy kuchlar borligiga ishonch natijasida vujudga kelgan. Aynan shu qarashlar esa diniy-e‘tiqodiy dunyoqarashning eng qadimiy shakllardan biri shomonizmga hosdir. Bizning xalqimiz orasida shomonizm qadim-qadimdan yashab kelayotganligi ilmiy adabiyotlarda isbot etilgan⁸⁶. Shomonlarning homiy kuchlari va yordamlari turli toifada va turli xarakterda bo‘lganidek, epik asarlarda keluvchi homiy kuchlar ham turlicha. Binobarin, “oshiq” turkum dostonlaridagi homiy kuchlar haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni bildiramiz.

“Oshiq” turkum dostonlaridagi homiy kuchlarning faoliyati va ularning epik qahramon taqdiridagi o‘rni bevosita bu turkum dostonlarining shomonistik dunyoqarashlar hamda qadimiy mifologik tasavvurlarga bo‘liq holda shakllanganligini bildirib, ularning o‘ziga xos bir turkum obrazlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Oshiq dostonlaridagi homiy kuchlar obrazlarini yaqinroq o‘rganib chiqilsa, bari obrazlar mifologik dunyoqarashning turli bosqichlari bilan bog‘liq tarzda vujudga kelishi ham ma’lum bo‘ladi. Ya’ni, manistik tasavvurlar asosida dunyoga kelgan homiy kuchlar, animistik tasavvurlarga aloqador homiylar. Homiy kuchlarning bevosita badiiy matndagi

⁸⁶ Башилов В.Н. Избранники духов. – Москва, 1986; Сенсарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хоразема; Домусульманские верования и обряды народов Средней Азии – Москва, 1976; Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent; Qayumov O. O‘zbek folklorida pari obrazining badiiy talqini: Filol. Fanlar nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 1999.

tasviri har doim ham bir xil tarzda, ma'lum qolip hamda andozalarga qat'iy qoidalar asosida kelmaydi.

Doston janrlarining shakllanishi va rivojlanishida manistik mifologiyaning ahamiyati juda kattadir. Ayrim manbalarda qayd qilinishicha, ushbu toifa miflar mifologiyaning eng quyi bosqichlaridayoq paydo bo'lgan⁸⁷. Shuni ta'kidlash kerakki, manistik miflar ajdodlar homiyligi, afsonaviy, tarixiy qahramonlar haqida izohlaydi.

Mifshunos olim Yan Parandovskiyning ta'kidlashicha, miflarda tasvirlanuvchi qahramonlar juda qadimiy bo'lib, ularning dastlabkilari "O'z vatandoshlariga xizmat qilib, alohida hurmat qozongan buyuk kishilar: urug', qabila boshliqlari, qonunshunoslar, mashhur jangchilar, ruhoni-y-kohinlar, payg'ambarlar, buyuk shoirlar bo'lib, ular vafot etganlaridan keyin xalq orasida qahramonga aylanib, ularga sig'inish boshlangan"⁸⁸.

Mana shu turli toifadagi buyuk shaxslar ibtidoiy inson tasavvurida karomatli shaxslar sifatida namoyon bo'lgan va ular ruhiga sig'inish odati yuzaga kelgan. Bora-bora bular homiy sifatida tan olinib, manistik mifologiya qahramonlari timsolini egallaganlar.

"Oshiq" turkum dostonlarida manistik mifologiyaga oid lavhalarni ko'p uchratamiz. Xorazm dostonlarida animistik miflarga qaraganda manistik mifologiyaga oid lavhalar kengroq o'rinni egallagan.

Shulardan, "Oshiq Mahmud" dostonidagi Shohimardon pirni manistik homiy kuchlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

⁸⁷ Мифы народов мираю – Москва, 1997. – С.13.

⁸⁸ Парандовский Ян. Мифология. Москва, 1971, С. 26

Ushbu dostonda Ganja Qoraxon “Shohimardon pining qabriga borib, qirq kecha, qirq kunduz yastanib yotadi”⁸⁹. Shohimardon pir uning tushida “nuroniy bir chol”⁹⁰ sifatida kirib, unga o‘g‘il ato etganligini bayon etadi. Shohimardon pining sharofati bilan Mahmudjon dunyoga keladi.

Oshiq Mahmudning tushiga ham “bir nuroniy pir kishi”⁹¹ kirib, Nigorxonni unga atalganidan xabar beradi. Nigorxonning tushiga ham “bir nuroniy pir odam kirib”, Mahmudjonni unga ko‘rsatib, g‘oyibona nikoh qiladi⁹².

Ganjaxon bilan bog‘liq epizodda pining nomi Shohimardon, deb aniq aytilib, uning bir nuroniy chol ekanligi tasvirlanadi. Lekin Mahmudjon va Nigorxonlar tushiga kirgan pining nomi dostonda aniq aytilmagan. Shunday bo‘lsa-da, homiy pining sifatidan uning Shohimardon pir ekanligini anglash qiyin emas. Ayni paytda, Oshiq Mahmud tushida Qambarjonni unga do‘st deb tanitgan pining nomi Qambarjon ko‘rgan tushda Hazrat Ali sifatida aytiladi. Qambarjonning uyqusida Hazrat Ali tushiga kiradi. Unga uch kosa sharob ichirdi.

- O‘g‘lim Qambarjon! Mahmudjon do‘sting bilan birga ketgil albatta maqsadinga yetasan, - deb og‘ziga tuflab, orqasiga shappot urib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi”⁹³.

Shohimardon pir va hazrat Alini bir yaxlit obraz sifatida tasvirlash va anglash nafaqat “Oshiq Mahmud”

⁸⁹ Oshiq Mahmud. 15-bet.

⁹⁰ O'sha asar. 15-bet.

⁹¹ O'sha asar. 16-bet.

⁹² O'sha asar. 28-bet.

⁹³ O'sha asar. 23-bet.

dostoni, balki boshqa folklor namunalari va xalq tasavvurlarida ham keng uchraydi. Barcha fikrlarimiz dalili sifatida Farg‘ona vodiysidagi eng katta qadamjo Shohimardon va Nurota yaqinidagi ayni shu nom bilan yuritiluvchi aziz joylar ham hazrati Ali nomi va qabri bilan el orasida shuhrat topganligini keltirishimiz mumkin.

Xorazm dostonlarida hazrat Alining mushkul ahvolda qolgan qahramonlarga homiy sifatida yordam bergan holatlari ko‘p uchraydi.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida asar bosh qahramoni G‘arib musofirlik chekib, sargardon yurgan paytida yori Shohsanamning Shohvalad podshohga to‘y bo‘layotganini eshitadi va o‘z eliga yetish uchun yo‘lga tushadi. “Shu kelishida bir otliq yo‘liqadi. U: “Ey yigit, otning orqasiga min”, dedi. G‘arib sakrab mindi, ko‘zingni yum, dedi, yumdi. Ko‘zingni och, deganda qarasa, o‘z elining bir chekkasiga kelgan ekan”.

Hazrat Alining homiy sifatida ko‘rinishi “Asil va Karam” hamda “Gulqand” dostonlarida ham uchratishimiz mumkin. Hazrat Ali aksariyat hollarda qora to‘nli, qora otli kishi tarzida tasvirlanadi. Homiylik qilganda ham, asosan, chavandoz qiyofasida faoliyat ko‘rsatadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Ali obrazi Islom dini Markaziy Osiyoga yoyilganidan keyin folklor asarlari tarkibiga kirganligini ko‘rishimiz mumkin.

Elshunos olim G.P.Snesarevning ta’kidlashicha, Ali obrazi Markaziy Osiyo xalqlari ijodida juda mashhur bo‘lsa-da, Xorazmda nisbatan kamroq ko‘zga tashlanadi.

Qolaversa, Alining afsonaviy obrazi zaminida Xorazmda mashhur bo'lgan qadimiy obraz, chavandozlar piri Siyovush faoliyati yotadi⁹⁴. Keyingi davrlarda Siyovush obrazi bilan bog'liq ko'p voqealar Ali obraziga ko'chirilganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Chunki, qadim Xorazm mifologiyasi bilan aloqador bo'lgan anchagina motivlar so'ngi davrlarda boshqa shaxslar faoliyati bilan bog'liq holda o'zgarishga uchragan. Zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht bilan bog'liq voqealarning Sulton Uvays faoliyatiga ko'chishi ham ayrim manbalarda qayd qilingan⁹⁵.

Shuni bilishimiz joizki, Xorazmda tarqalgan arxaik mifologiya davrlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobida berilgan ayrim syujetlar ham Islom dini paydo bo'lganidan keyin uning targ'ibotchilari bo'lgan ayrim tarixiy shaxslarning badiiy obrazlariga ko'chgan.

Hazrati Alining Xorazm dostonlaridagi homiy obrazlar darajasiga ko'tarilishini ham shu nuqtai nazardan izohlash lozim bo'ladi. Endi bevosita Shohimardon pir obraziga keladigan bo'lsak mardonlar piri bo'lmish bu obraz ham bevosita Siyovush obrazi bilan ham aloqador bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

“Oshiq” turkum dostonlari orasida homiylik tizimi mukammal darajada ko'zga tashlanuvchi asar “Oshiq Alband” dostonidir. Doston bevosita Oshiq Alband hayoti va tarjimai

⁹⁴ Сенсарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хоразема.- с.288

⁹⁵ Ro'zimboyev S. , Bekchanov Sh. Afsona va tarixiy haqiqat. Xiva, 2000.- 28 b.

holi bilan emas, uning piri, ustozini Oshiq Oydin bilan bogʻliq epizod orqali boshlanadi:

“... Ammo roviylar andoq rivoyat qiladirlarkim, Boʻston shahrida Oshiq Oydin degan bir pir bor edi. Doʻkon qurub poʻlotdan otash pishirib, uch yuz oltmish shogird hizmatida edi...”⁹⁶.

Butun doston davomida Oshiq Oydin shogirdi Oshiq Albandga homiylik qiladi. Chunki u Oshiq Albandni safarga kuzatar ekan: “Sen ham har yerda boʻlsang, biz xabardormiz”,⁹⁷ - deb fotiha beradi.

Maʼlumki, Oshiq Oydin Muhammad paygʻambarning ruhiy himoyasida turadi, oʻz navbatida, Oshiq Alband Oshiq Oydinning homiyligida harakat qiladi, deb aytilmoqda.

Binobarin, Oshiq Oydin obrazi haqida toʻxtaladigan boʻlsak, Oshiq Oydin homiy sifatida Xorazm dostonlarida ham uchraydi. Misol tariqasida, “Goʻroʻgʻli” turkum dostonining “Xirmondali” shaxobchasida Oshiq Oydinning yorqin obrazi chizib berilgan. Bundan tashqari, Oshiq Oydin timsolini yana “Oshiq Alband”, “Oshiq Najab” dostonida ham uchratamiz. Xorazm dostonlarida Oshiq Oydin oshiqlarning piri, soz va soʻz ustasi sifatida taʼrif etiladi. Uning obrazi mifologik tasvirdan muayyan darajada badiiy obraz tomon siljilgan. Ammo uning faoliyatida mifologik xususiyatlar saqlanib qolgan.

“Oshiq Alband” dostonida homiy kuchlarning yana asar voqealar davomida ikkinchi jihatidan qahramon qiyin

⁹⁶ Oshiq Alband. B.1

⁹⁷ Oʻsha manba. B. 7.

ahvolda qolgan vaqtda unga yordam beruvchi ilohiy kuch sifatida turli xil ko‘rinishlarda kelgan. Ya’ni, Oshiq Albandga So‘na kelin xabarini aytuvchilar: dostonida “pirilar kelib aytadilar”⁹⁸ deyilgan. Homiy kuch bir kishi emas, ko‘pchilik deb aytilmoqda. Odatda, ko‘pchilik sifatida keluvchi homiy kuchlar chiltonlar hisoblanadi. Shu jihatdan Alpomishning tushi va Go‘ro‘g‘lining homiylarini eslash kifoya bo‘ladi.

Yana “Oshiq Alband” dostonidan quyidagi keltirilgan parchalarda: Albandning yo‘lida bir buloq chiqdi. Unda qizil suv bordir. Bir bo‘lak kiyik buloqdan suv ichmoqqa keldi. Alband irim qilib: “Agar so‘zim bovar bo‘lsa, So‘najonni olurman, bovar bo‘lmasa, olmoq yo‘q deb”, - bulardan so‘radi. Bu kiyik suvratidagi buzruglar edilar. Ular Albandjonni sinash maqsadida kiyik suvratida ko‘ringan edilar. Ular Albandjonga dalda berib yo‘lga solishdi.⁹⁹

Ushbu parchalarda buzruglar tasviri bayon qilinadi. Yana Albandjonning yo‘lida ikki devona osmondan tushishi, Tabrizga yetib kelganida sarhovuz bo‘yida bir boboga yo‘liqishi, Oshiq Alband bandi bo‘lgan vaqti buzruklar kelib, banddan ozod qilib, ilohidan libosi shohi kiyidirishi, So‘najonning tushiga pirlar kirib: “O‘n besh yillik yo‘ldan Albandjon sani, deb kelib, bog‘da peshada yotibdi, nechun undan xabar olmayсан”¹⁰⁰ deb aytib ketishilari barchasi ilohiy, ya’ni homiy kuchlar tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin.

⁹⁸ Oshiq Alband. B.13

⁹⁹ Oshiq Alband. B.24

¹⁰⁰ Oshiq Alband. B.34

Keltirilgan ma'lumotlardan shuni bilishimiz joizki, Oshiq Alband va So'najonga homiylik qiluvchi kuchlar sifatida bir necha guruh kuchlar tilga olinmoqda. Ya'ni, Oshiq Oydin, mo'ysafid bobo, kiyik suratida kelgan buzruglar, osmondan kelgan ikki devona, bir bobo, pirlar. Bulardan ma'lum bo'lmoqdaki, mo'ysafid bobo, bir bobo qiyofasidagi obrazlar Oshiq Oydin ekanligi bevosita homiy kuchning: "Senga fotiha bergan xalifa piringman", - degan e'tirofdan bilishimiz mumkin. Demak, Oshiq Oydin obrazi dostonda xuddi Hizrdek o'z suratida namoyon bo'la olish qudratiga ega deb tasavvur etigan ulkan imkoniyatli homiy sifatida tasvirlanmoqda. Kiyik suratida kelgan buzruglar, osmondan kelgan ikki devona, pirlarni ham u o'z shogirdiga jo'natgan deb asos beradi. Ushbu homiylik tizimi esa bevosita animistik dunyoqarashga asoslangan shomonlik tasavvurlariga mos keladi.

Oshiq Oydin obrazi bevosita manistik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lsa-da, bevosita animistik tasavvurlarga xos xususiyatlarni ham o'zida etuvchi boshqa homiy kuchlarni o'zida ifodalashi ham bu obrazga berilgan sifat va xususiyatlarni aniq bildirib turipdi.

Xorazm folklori "oshiq" turkum dostonlarida homiy sifatida keluvchi obrazlardan biri Xizrdir. Atoqli folklorshunos olimlar M.Jo'rayev va Sh.Shomusarov o'zlarining "O'zbek mifologiyasi va arab folklori" deb nomlanuvchi kitobida Xizr obraziga alohida qism ajratishgan va ular shunday yozishadi: "Turkiy xalqlar folklorida epik qahramonning homiy sifatida talqin qilinuvchi mifologik personajlardan biri Xizr bo'lib, u xalq qarashlariga ko'ra, ajdodlar ruhining

epik timsoli, mushkul ahvolda qolganlarga madad qo‘lini cho‘zadigan afsonaviy homiy, donishmand oqsoqol, obi hayot chashmasining sohibi hisoblanadi”.¹⁰¹

Tadqiqotchilar Xizr obraziga xos xususiyatlarni maxsus yetti qismga ajratib ko‘rsatishgan va bevosita Xizr obrazining paydo bo‘lishiga ajdodlar kultiga sig‘inishi bilan aloqador e‘tiqodiy qarashlar asos bo‘lgan, degan xulosaga kelishgan¹⁰². “Oshiq Alband” dostonida Albandjon ma’shuqasi So‘na kelinni izlab yo‘lga chiqar ekan baxshi oshiq tilidan shunday deydi: “Madad bergan yo‘lda Xizr bobo”¹⁰³. Doston voqealari tizimining navbatdagi bosqichida chindan ham Oshiq Alband ikki qiz qutqusidan “Bir bobo mo‘ysafid”¹⁰⁴ qutqaradi.

Dastavval, Oshiq Albandning cho‘lda “Xizr bobo madad bergay” deyishi bejiz emas. M.Jo‘rayev hamda Sh.Shomusarovlar Xizrga xos jihatlardan birini “Xizr cho‘l va sahrolarda g‘oyibdan paydo bo‘lib, qiyin ahvolda qolgan kishilarga ko‘mak beruvchi ezgulik timsoli”¹⁰⁵, deb ko‘rsatishgan.

Folklorshunos J.Eshonqulov dostondagi homiy ruhlarni shunday ta‘riflaydi: “Dostonlardagi, jumladan, “Alpomish”dagi tushlarda homiy ruhlar sifatida Muhammad payg‘ambar, Hazrati Ali, avliyo-anbiyolar, homiy eranlarning ramzlar orqali berilishi islomiy qatlam bo‘lib,” deb, shu fikr

¹⁰¹ Jo‘rayev M., Shamusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. – 104-bet.

¹⁰² O‘sha yerda. B. 119

¹⁰³ Oshiq Alband. B.18

¹⁰⁴ O‘sha yerda. B. 23

¹⁰⁵ Jo‘rayev M., Shamusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. – 111-bet.

yakunida “dostonlarda u yetuk tipik obraz darajasiga ko‘tarilgan” deya yozadi o‘z kitobida.¹⁰⁶

Shunday ekan, yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda, homiy kuchlar ajdodlar kulti bilan bog‘liqligi, madaniy davrda ular o‘zini tushlarda namoyon qilishi, ularning ramz sifatidagi talqini islom dinigacha hamda undan keyingi davrlaridagi ta’birmomalarda ko‘rishimiz mumkin.

“Oshiq” turkumi dostonlaridagi yetakchi ramzlardan biri bu olma ramzidir. Jahon xalqlari folklorida bo‘lgani singari, o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti, xususan, Xorazm dostonlarida ham qahramonning g‘ayrioddiy tug‘ilishi homilaning qay yo‘sinda paydo bo‘lganligiga qarab turli xil epik talqin qilinadi. Atoqli folklorshunos olim V.Ya.Proppning tasnificha, xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida g‘ayrioddiy (nikohsiz) tug‘ilishning quyidagi turlari mavjud: 1) biror narsani yeb bo‘yida bo‘lish; 2) duo vositasida homilador bo‘lish; 3) suv ichib homilali bo‘lish; 4) odamning qayta dunyoga kelishi; 5) pechkadan (o‘choqdan) tug‘ilish; 6) vafot etgan kishining etini yeb homilador bo‘lish; 7) yog‘ochdan yasab olish¹⁰⁷.

Binobarin, ushbu tasnif bevosita rus folklori namunalari asosida tasniflangan. Shunga qaramay, uni o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan taqqoslash mumkin.

Xorazm dostonlarida qahramonning tug‘ilishini homiyilar tomonidan inom qilingan sehrlil narsalar bilan bog‘lab tasvirlash an’anasi ham keng ishlangan. Befarzand shoh

¹⁰⁶ Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. - Toshkent, Fan, 2011. - 196 b.

¹⁰⁷ Пропп В.Я. Мотив чудесного рождения. – С. 205-237

pir va homiylar tomonidan berilgan narsani xotini bilan bo'lishib yeydi va shuning natijasida ayol homila topadi. Qahramonning dunyoga kelishiga sabab bo'lgan vosita ko'pincha olma, xurmo kabi mevalardan iborat bo'ladi. Bu narsalar qahramonning otasi yoki onasiga g'oyibdan beriladi. Ya'ni sehrli qudratga ega bo'lgan narsalarning berilishida qahramonga homiylik qiladigan g'ayrioddiy mifik kuchlar ishtirok etishadi. Bu motivning Xorazm dostonlaridagi o'ziga xos ko'rinishi "Oshiq Mahmud" dostonida uchraydi.

"Shohimardon purning mozorida yotib, qirqinchi kecha tush ko'rgan Ganjaboy podshoh tushiga kirgan nuroniy cholning qo'lidan olma olib, sevinib uyiga qaytdi. Olmaning yarimini xotiniga berib, yarimini o'zi yeb, xotini bilan ishratga mashg'ul bo'ldi. Shu kundan hisob bo'lib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqa husni oftobday ravshan o'g'il bo'ldi. Otini Mahmudjon qo'yib, qirq kecha, qirq kunduz to'y berdi"¹⁰⁸

"Oshiq" turkum dostoni "Oshiq Mahmud" da Oshiq Mahmudning g'ayritabiiy homila bo'lishida vosita bo'lgan olma detalining qo'llanilishi tasodifiy hodisa bo'lmay, xalqimizning bu meva bilan bog'liq qadimiy mifik qarashlari asosida kelib chiqqan.

Olma bilan bog'liq lavhalr "Roi Chin" dostonida ham mavjud bo'lib, u sevgilisini olma bilan urib, uning tushida nikohlangan oshig'i ekanligidan habar beradi.

G.P. Snesevning yozishicha, mevali daraxtlarning oila va avlod masalasi bilan aloqadorligi qadimdan kelayotgan

¹⁰⁸ Oshiq Mahmud. Avazxon. Toshkent, 1970. B.15

magik odatlardan iborat bo'lib, u Anaxita bilan bog'lanadi. O'sha davrda anor oilaviy farovonlik ramzi hisoblangan. Ma'shuqaga olma otish odati Xorazmda hozirgacha saqlangan. Shovot tumanida Ramazon oyining ikkinchi kunida ushbu odat har yili nishonlanadi¹⁰⁹. Olma otish, oila ramzi, totem sifatida e'zozlash bilan aloqador lavhalar "Sayod va Hamro", "Hurliq va Hamro" dostonlarida ham ko'zga tashlanadi.

"Qo'shiqlarda olma, anor sevgi, yor, farzand tushunchalaridan yiroq bo'lmaydi", - deb yozadi¹¹⁰, filologiya fanlari doktori A.Musaqulov.

Olma daraxtining farzand tug'ilishi g'oyasi bilan bog'lanishini qirg'iz xalqining udumlarida ham ko'rish mumkin bo'ladi. A. Musaqulovning kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, "befarzand qirg'iz ayoli olma daraxti tagida yolg'iz sayr qilsa, farzand ko'rishga ishongan"¹¹¹.

Filologiya fanlar doktori J.Yusupov "G'ayrioddiy tirilishi" va "olmani hidlab tirilish" motivlarining genetik jihatdan aloqadorligi masalasida o'z fikrlarini shunday bayon qiladi: "Olmani hidlab tirilish bu ramziy detal (ya'ni olma detali) bilan bog'liq an'anaviy syujet elementlari tizimidagi motivlar blokiga mansubdir. Epik qahramonning g'ayrioddiy tug'ilishi befarzand shoh xotini yoki keksa kampirning olma yeb homilador bo'lishi motivini ham o'z ichiga oladi. Demak, bu o'rinda g'ayrioddiy tug'ilish va g'ayritabiiy ravishda qayta tirilish motivlari mantiqan o'zaro tengdir.

¹⁰⁹ Сенсарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хоразема.- с.38

¹¹⁰ Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent, 1995. B. 80.

¹¹¹ O'sha asar. B. 76.

Har ikki holatda ham g'ayritabiiylik olmaning magik xususiyati bilan bog'liq¹¹².

Qadim mifologik e'tiqodga ko'ra, olma hosildorlik, baraka, farzand ato etuvchi timsollardan biri hisoblangan. Matriarxat davri kishilarning partogenez, ya'ni erga tegmasdan g'ayrioddiy holatda homilador bo'lish bilan bog'liq mifologik qarashlari tizimida ayol vujudiga kirishi natijasida homila hosil qiladigan magik ne'matlar to'g'risidagi turli xil ishonuvlar keng tarqalgan. Farzand va serhosillikning magik timsoli sanalgan olma ham ana shunday sehrli xususiyatga ega deb tasavvur qilingan.

Olma yoki xurmo yeb homilador bo'lish motivining qadimiy asoslari totemistik mifologiyaga bog'lanadi. Totemistik mif talqiniga ko'ra, homiladorlik - ayol tanasiga totemning kirishi natijasida yuz beradi. Ya'ni inson tug'ilishida totem sifatida e'tirof etilgan narsalar, o'simlik va jonzotlar ishtirok etadi. A.M.Zolotarev keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Janubiy Amerika hindu qabilalari miflarida aytilishicha, ayolning tanasiga birorta jonsiz narsa kirishi tufayli u homilador bo'ladi. Bakairi qabilasidan yozib olingan mifda bir ayolning makkajo'xori so'tasidan egizaklar haqidagi miflarda onaning g'ayritabiiy, sirli ravishda homilador bo'lganligi aytilishi an'anaviy holat hisoblanadi¹¹³.

Olma yoki xurmo yeb homilador bo'lish motivi daraxt totemi to'g'risidagi qadimgi mifologik tasavvurlarni ham o'zida ifoda etgan. Dunyodagi ko'pgina xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek xalqining qadim ajdodlari mifologiyasida turli

¹¹² Yusupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. – Toshkent, 1996. B.73

¹¹³ Золотарев А.М. Родовой строй и первобытная мифология. – Москва 1964. С. 183-184.

xil jonivorlarlar bilan bir qatorda, daraxtlarga ham totem sifatida sigʻinish odati boʻlgan. Daraxt, ayniqsa, mifologik hayot daraxti dunyodagi barcha oʻsimliklarning onasi, abadiy hayotning manbai sifatida tushunilgan. Qadimgi turkiy mifologiyada afsonaviy hayot daraxti ayni paytda tangrining timsoli deb ham tasavvur qilingan¹¹⁴.

Daraxt bilan bogʻliq totemistik qarashlarning oʻzbek folkloridagi izlari haqida maqola yozgan M.Chorshanbiyevning quyidagi fikrlari olma yeb homilador boʻlish motivi ham daraxt totemiga sigʻinish tizimiga aloqadorligini tasdiqlaydi: “Qadimda ayol kishining homilador boʻlishiga sabab, uning tanasiga totemning kirishi deb tushunilgan. Totem hisoblangan daraxt mevasini yeyish orqali homilador boʻlish haqidagi tasavvur totemizm asosida yotuvchi qarashlardan bittasi hisoblanadi”¹¹⁵.

Olma yeyish orqali homilador boʻlish motivdagi “olma” timsoli ushbu daraxt bilan bogʻliq eranlar qudratiga va homiyligiga ega boʻlishni anglatgan. Shunday qilib “olma” timsoli “oshiq” turkum dostonlarida koʻp uchraydigan ramzlardan boʻlib, hosildorlik, baraka, farzand ato etuvchi kuchlar bilan bogʻliq timsollardan biri ekanligini yaqqol koʻrishimiz mumkin.

“Oshiq” turkum dostonlarda koʻp uchraydigan bogʻ, gulzor, gul bilan bogʻliq boʻlgan koʻpgina voqealar bayonini koʻrishimiz mumkin. Bu esa dostondagi qadimiy dunyoqarashlar, marosimiy miflarning eng qadimgi tarixiy ildizlarini koʻrsatib beradi.

¹¹⁴ Murot Oʻroz. Turk asotirlari // Sirli olam. – 1991. №9. B. 11

¹¹⁵ Chorshanbiyev M. Oʻzbek folklorida daraxt bilan bogʻliq totemistik qarashlar // Oʻzbek tili va adabiyoti. – 1998. №6. B. 32-33.

G.P.Snesarevning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, bir vaqtlari Xiva atroflarida qizil gul bayram o'tkazilgan. Bu bayramning asosiy mohiyati qarindosh va yaqin kishilarga gul sovg'a qilish bo'lgan. Mazkur tantana Xiva yaqinidagi Bovaris bobo qabristonida o'tkazilgan. Bu yerga shaharning barcha yoshlari kelishgan. Qizlar va yosh juvonlar avliyo qabri yaqinidagi tor so'qmoqdan birin-ketin o'tganlar. Yosh yigitlar esa yoqasida turib, gullar, olmalar, bo'yalgan tuxumlarni otishgan. Bu yerda gul asosan, sevgi va yangi qurilajak oilaning ramzi hisoblangan.¹¹⁶

Xorazmda gul bilan aloqador irimlar, ular bilan bog'liq rivoyatlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shulardan biri nozvoy (rayhon) gul haqida bo'lib, bu rivoyatda Sa'd Vaqqosning o'g'li haqida so'z boradi. Muhammad (S.A.V.) payg'ambarning yaqin sahobalaridan biri bo'lgan Sa'd Vaqqosning saxiylikda nom chiqargan bo'lib, bir kuni hatto birov uchun o'g'lining jonini ham ayamaydi. Uning birovning ehtiyoji uchun o'g'bon qilganini bilgan Muhammad (S.A.V.) payg'ambar Sa'd Vaqqosning o'g'lining jonini xudodan iltijo qilib so'raydi va ularning uyiga borib, "Abdukka", deb chaqiradi. Uchinchi chaqiriqda u yetib keladi. Undan nega birinchi chaqiriqda yetib kelmaganini so'raydilar. Abdulla birinchi chaqiriqda jannat bog'ida sayr qilib yurganini, ikkinchi chaqirganda onasi uchun rayhon (nozvoy) terganini va, nihoyat, uchinchi chaqirganida yetib kelganini aytadi.

Hozir ham nozvoy guli jannatdan kelgan, deb e'zozlanadi va unga pashsha qo'nmaydi.¹¹⁷

¹¹⁶ Сенсарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хоразема.- с.206

¹¹⁷ Ro'zimboyev S. , Bekchanov Sh. Afsona va tarixiy haqiqat. Xiva, 2000.- 47-48 b.

Ko‘rinadiki, Xorazm gulning muqaddas o‘simlik ekanligi haqida ko‘plab rivoyatlar mavjud. Bu yerda gulga alohida bir mehr bilan qarashadi. Nozvoy gulni chaqaloq beshigiga osib qo‘yishadi. Qishda esa uning poyasidan parcha olib, bola yostig‘ining ostiga qo‘yishadi.

Gul bilan bog‘liq turli urf-odatlar, ularning magik xislatlari dostonlar tarkibiga ham kirib ulgurgan. Dostonlarda ham gul sevgi va oila ramzi sifatida beriladi. “Zavriyo” dostonida shunday bir lavha bor: “...tush ko‘rdi, So‘najonning qo‘linda bir dasta gul ochilmish. Ul vaqtda havodin bir bulbul kelib, shu guldan to‘rt yaproqni olib, g‘oyib bo‘ldi” (Qo‘lyozma, 52-bet).

So‘najon uyg‘onib, bu tushni kanizaklariga aytib berganda, ular sen – gul, bulbul - oshig‘ing, deb javob berishadi.

Ushbu dostonda gul bilan aloqador yana bir lavha bor. Unda ham ibtidoiy mifologik tasavvurlar namoyon bo‘ladi.

So‘najon tushida ko‘rgan yori shahzoda Olimjonni o‘z makoniga oldiradi. Ular birga o‘tirganda qizni otasi salomga chaqiradi. So‘najon yorini qayerga yashirib ketishini bilmay Olimjonga “...ismi a‘zam o‘qib, dam soldi, bir chaman gul bo‘ldi. Boshina sanchib, otasining yonig‘a salomga bordi ” (Qo‘lyozma, 67-bet).

Yigitni gulga aylantirib, boshiga qadash hodisasi eng ibtidoiy miflar bilan bog‘lanib ketadi. V.I.Yeriminaning ko‘rsatishicha, bu hodisa mifik tafakkurning animistik printsiplari bilan aloqadordir. Ibtidoiy inson mifologik tafakkurning dastlabki davrlarida tabiat bilan ruhiyatni bir butun holatda tasavvur qilgan. Hatto ayrim xalqlarda insonlarning o‘simliklardan (bambuk,

palma) kelib chiqqanligi haqida miflar mavjud¹¹⁸. Demak, insonning gulga aylanishi va uning asliga qaytish hodisasi ham qadimgi mifologik tasavvurlarning mevasi sifatida yetib kelgan lavhalardir.

Dostonlarda gul bilan aloqador lavhalar ba'zan qabr bilan bog'liq holda beriladi. "Royi Chin" dostonida asar bosh qahramoni yorini izlab borayotib, tog' orasida bir qabrning ustidan chiqadi, "Ammo qabrning bosh ustinda bir qizil gul, bir yonida gul lola ochilib turur" (Qo'lyozma, 42-bet).

Roy qabr ustida o'tirib, undan madad tilab, nola qiladi va uyquga ketadi. "Tushinda qabr ikki bo'lindi, ichindan bir barno yigit chiqdi" (Qo'lyozma, 43-bet). Qabrdan chiqqan yigit Farhod bo'lib, ushbu qabr Farhod va Shirinning dahmalari bo'lib chiqadi. Farhod Royga maslahat beradi.

Xuddi shunday lavha "Tohir va Zuhro" dostonida ham bor. "Bir kuni Qora botir Tohir bilan Zuhraning qabriga borib qarasa, har mozorning ustidan bir qizil gul chiqib, bir-biriga chirmashib ketibdi. Qora botir bunga chidolmay o'zini o'ldiradi va ularning o'rtasiga yiqiladi. Uning ustidan bir qora tikanli gul o'sib chiqib, avvalgi ikki gulga ozor beradi. Oxirida Qora botirning jasadini u yerdan olib, boshqa joyga ko'madilar"(Qo'lyozma, 145-bet).

Ushbu lavhaga diqqat qilinsa, gul bilan aloqador bo'lgan mifologik tasavvurlarning qadimdan kelayotganiga yana bir karra ishonch hosil qilish mumkin.

Biz yuqorida insonning gulga evirilishi xususida so'zlagan edik. Bu yerda esa guldan insonnig paydo bo'lishi haqida so'z yurtilmoqda. Demak, inson va tabiat birligi haqidagi mifologik

¹¹⁸ Еремина В.И. Миф и народная песня // Мифб фольклор и литература. – Л.,1978. С.6.

tasavvurlar xalq ijodida muayyan ramz bilan aloqadordir. Maslan, Xorazmda qizil gul – oshiqlik, yigitlik, oq gul – ma’shuqa, qizlik ramzi. Sariq gul – hijron, qora gul esa yovuzlik ramzi sifatida tushuniladi. Bu tushunchalarning barchasida qadimgi mifik tasavvurlar, xalqning qadimgi an’analari, urf-odatlari mujassamlashgan.

Dostonlardagi gullar bilan aloqador lavhalar undagi badiiy buyoqdorlikni yanada rang-barang qiyofaga kiritadi. Ulardagi magik hislatlar, mumkin bo‘lmagan narsalarni ijobiy hal qilishga olib keladi. Dostondagi mashaqqatli voqealarning umidvorlik bilan nihoyasiga yetishiga turtki bo‘ladi.

“Oshiq” turkum dostonlarida uchraydigan ramzlardan bu may yohud sharobdir. Folklorshunos olim professor J.Eshonqulov bu haqida shunday ta’rif qiladi: “Dostonlardagi badiiy tush va epik voqelikdagi sharob detali mumtoz adabiyotimizdagi may obrazi kabi ramziydir. U qahramonni ruhlar dunyosi (uchrashuv), marhumlar dunyosi (tutqunlik) bilan bog‘laydi. Safar va sinov, qaytish motivlarini keltirib chiqaradi. Qahramonning sarxushligi tarixiy asoslariga ko‘ra bevosita shomon marosimlari bilan bog‘liqdir. Shu sabab dostonlardagi xizmat kosasidagi sharobni bosh qahramongina ichishga jur’at eta oladi.”¹¹⁹

Shunga ko‘ra, “oshiq” turkum dostonlaridan sharob detalini “Oshiq Mahmud” hamda “Oshiq Najab” dostonlarida ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagi boblarimizda bu haqida batafsil to‘xtalib o‘tkan edik.

¹¹⁹ Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. - Toshkent, Fan, 2011. - 258 b.

Binobarin, “oshiq” turkum dostonlarida juda ko‘p ramzlarni misol qilib, talqin qilishimiz mumkin. “Oshiq” turkum dostonlarida ramzlarni talqin qilishimiz milliy tafakkur darajasini aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu ramzlarda milliy tafakkurga xos, millatning ijod, tasavvur, fantastik salohiyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu fikrlardan kelib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu ramzlarni o‘rganish xalq ma’naviy tarixini, ruhiy dunyosini o‘rganishga olib keladi hamda bunday tadqiqotlar shaxsni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Dostonlarda gul bilan aloqador lavhalar ba’zan qabr bilan bog‘liq holda beriladi. “Roi Chin” dostonida asar bosh qahramoni yorini izlab borayotib, tog‘ orasida bir qabrning ustidan chiqadi, “Ammo qabrning bosh ustinda bir qizil gul, bir yonida gul lola ochilib turur” (Qo‘lyozma, 42-bet).

Roi qabr ustida o‘tirib, undan madad tilab, nola qiladi va uyquga ketadi. “Tushinda qabr ikki bo‘lindi, ichindan bir barno yigit chiqdi” (Qo‘lyozma, 43-bet). Qabrdan chiqqan yigit Farhod bo‘lib, ushbu qabr Farhod va Shirinning dahmalari bo‘lib chiqadi. Farhod Roiga maslahat beradi.

Xuddi shunday lavha “Tohir va Zuhro” dostonida ham bor. “Bir kuni Qora botir Tohir bilan Zuhraning qabriga borib qarasa, har mozorning ustidan bir qizil gul chiqib, bir-biriga chirmashib ketibdi. Qora botir bunga chidolmay o‘zini o‘ldiradi va ularning o‘rtasiga yiqiladi. Uning ustidan bir qora tikanli gul o‘sib chiqib, avvalgi ikki gulga ozor beradi. Oxirida Qora botirning jasadini u yerdan olib, boshqa joyga ko‘madilar”(Qo‘lyozma, 145-bet).

Ushbu lavhaga diqqat qilinsa, gul bilan aloqador bo'lgan mifologik tasavvurlarning qadimdan kelayotganiga yana bir karra ishonch hosil qilish mumkin.

Biz yuqorida insonning gulga evirilishi xususida so'zlagan edik. Bu yerda esa guldan insonning paydo bo'lishi haqida so'z yuritilmoqda. Demak, inson va tabiat birligi haqidagi mifologik tasavvurlar xalq ijodida muayyan ramz bilan aloqadordir. Maslan, Xorazmda qizil gul – oshiqlik, yigitlik, oq gul – ma'shuqa, qizlik ramzi. Sariq gul – hijron, qora gul esa yovuzlik ramzi sifatida tushuniladi. Bu tushunchalarning barchasida qadimgi mifologik tasavvurlar, xalqning qadimgi an'analari, urf-odatlari mujassamlashgan.

Dostonlardagi gullar bilan aloqador lavhalar undagi badiiy buyoqdorlikni yanada rang-barang qiyofaga kiritadi. Ulardagi magik hislatlar, mumkin bo'lmagan narsalarni ijobiy hal qilishga olib keladi. Dostondagi mashaqqatli voqealarning umidvorlik bilan nihoyasiga yetishiga turtki bo'ladi.

XULOSA

Xalqning badiiy madaniyati xazinasidagi adabiy merosga daxldor har bir asar asrlar o'tgan sayin o'zining bebaho xususiyatlarini namoyon qilib boraveradi. Ajdodlarimizning ibtidoiy tafakkuri hosilasi bo'lgan miflar ham ana shunday ma'naviyat javohirlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, mifologiya ibtidoiy insonning tabiat va jamiyat haqidagi dastlabki tasavvurlarning majmui bo'lishi bilan bir vaqtda, ularda o'sha davrlarda yashagan odamlarning turmush tarzi, borliq olam haqidagi ilk e'tiqodlari va qarashlari, marosim va an'analari ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham qadimgi mifologiya adabiyot va san'at, marosim folklori, xullas, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyoti bilan aloqador barcha madaniy an'analarning tamal toshi deb e'tirof etilgan.

Mifologiyasiz xalq og'zaki ijodiyotini, og'zaki adabiyotsiz esa yozma badiiy adabiyotni tasavvur qilish qiyin. Umumo'zbek folklorida bo'lgani singari, Xorazm dostonchiligida yozma adabiy an'ananing ta'siri kuchli bo'lib, epik obrazlar talqinida hayotiy-realistik dalillash sezilarli ravishda bo'rtib tursa-da, voqealar oqimining epik bayoni bevosita mifologiyaga borib taqaladigan ko'plab an'anaviy motivlar ta'sirida harakatga keladi. Uning uchun ham Xorazm dostonlarining o'ziga xos tabiati va syujet tizimining tarixiy asoslarini mifologiya bilan qiyoslamasdan o'rganib bo'lmaydi.

Eposdagi motivlar tizimi dunyo xalqlari folklorida ommaviy ravishda tarqalgan va bu masalada folklorshunoslar ko'pgina tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Ammo shuni aytib o'tish kerakki, epik qahramon hayoti bilan bog'liq motivlar silsilasi ko'pgina folklorshunoslar tomonidan o'rganilgan bo'lishiga qaramay,

ushbu masalada hali muayyan to'xtamga kelingani yo'q. Ayniqsa, turkiy xalqlar eposidagi tush motivi va uylanish motivlari qiyosiy usulda o'rganilmagan. Dostonlardagi tush motivi va uylanish motivlari bilan bog'liq ayrim qiyosiy tahlillar folklorshunoslar S.Ro'zimboyev hamda J.Eshonqulovlarning tadqiqotlarida uchrasada, biroq bu masala yuzasidan haligacha yaxlit bir monografik tahlil amalga oshirilmagan.

Ushbu ilmiy ishimizda Xorazm "oshiq" turkum dostonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab, bu tip dostonlar syujeti va yetakchi motivlarning mifologik asoslarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

- "Oshiq" turkum dostonlarining alohida mustaqil epik asarlar silsilasi sifatida asosiy tayanch belgisi ularda tasvirlangan bosh qahramonning oshiq-baxshi ekanligidir. Yetakchi personajning baxshi (oshiq)ligi "oshiq" turkum dostonlariga xos qahramon tipining yetakchi xususiyati bo'lishi bilan bir qatorda, uning o'z ma'shuqasi vasliga yetishi va bu yo'ldagi to'siq hamda sinovlardan o'tishida ham ana shu xususiyat, ya'ni soz chalib qo'shiq ayta bilishi asosiy vosita bo'lib hizmat qiladi. Ayni holatni "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Alband", "Oshiq Najab", "Oshiq Mahmud", "Hiloli pari va G'arib" dostonlarida yaqqol ko'ramiz.

- "Oshiq" turkum dostonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri qahramon ham oshiq, ham baxshi, ham shoir sifatida tasvirlanishi bo'lib, bu tip dostonlar syujetiga asos bo'lgan epik voqealar talqinida qahramonning ishqiy sarguzashtlari yetakchi o'rin tutadi. Boshqa tip dostonlardan farqli o'laroq,

“oshiq” turkumi dostonlarida turli xil jang-u jadallar, kurashli olushuvlar, personajlarning o‘zaro jismoniy bellashuvlari, sinov-to‘siqlarni jang va jismoniy kuch yordamida hal qilish an’anasi uchramaydi.

-“Oshiq” turkum dostonlarida tasvirlangan ishiqy-sarguzashtlar nafaqat asar qahramoni bo‘lgan oshiqning, ayni paytda, balki baxshi-shoirning ruhiy olamida ro‘y bergan kechinmalardan ham iborat bo‘ladi. Qahramonning turli sinov va to‘siqlardan o‘tishi, o‘zaro bellashuvlari ham baxshi-shoirning so‘z va sozi bilan bog‘liq holatda ro‘yobga chiqadi. Oshiq baxshining ruhiy komoloti timsolida o‘z yechimini topadi.

-“Oshiq” turkum dostonlarining shakllanishi qahramonlik eposida ancha keyin yuzaga kelgan. Ushbu tipdagi dostonlar jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida paydo bo‘lganligiga qaramasdan, o‘z tarkibiga qahramonlik eposiga qaraganda mifologik xususiyatlarni ko‘proq qamrab olgan. Bu, albatta, “oshiq” turkumi dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan aloqadordir. Shu sababdan, Xorazmda tarqalgan romanik epos namunalari tarkibida ko‘plab mifologik obraz, motiv va detallarni ko‘rish mumkin. Ular turli badiiy usullar orqali doston tarkibidan o‘rin olgan va asarning kompozitsion qurilishida muhim ahamiyatga ega.

- Dostonlarda qahramonlar portretini chizishda mifologik tasvirlarga murojaat etish an’anasi, tabiat va tevarak-atrof manzaralarini berishda g‘ayritabiiy tasvirga moyillik, ayniqsa ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

-“Oshiq” turkum dostonlari turkiy xalqlar folkloridagi barcha qiyosiy-tipologik jihatdan ko‘tildi, bu esa “oshiq” turkumi dostonlarining genetik asoslari, epik an’anada tutgan o‘rni, syujet

tiplari va yetakchi motivlar tarkibining poetik vazifalari o'rganildi.

-Xorazm "oshiq" turkumi dostonlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning syujet tarkibidagi voqealar negizida mifologiyaning deyarli barcha ko'rinishlari mavjud. Shulardan biri animistik mifologiya bo'lib, unda tabiat hodisalari sehrli kuchlarga bog'liq holda tasavvur etiladi. Tabiatdagi barcha narsalarga jonli mavjudot tarzida qaraladi. Animistik qarashlarga asoslangan chilton, eran, haftan tipidagi obrazlar Xorazm "oshiq" turkumi dostonlarida ko'p tilga olinadi. Ularning birinchisi, ya'ni chilton obrazi umumo'zbek folklori uchun mushtarak hodisa sanalsa, eran va haftan singari obrazlar faqat Xorazm dostonlaridagina qayd qilingan.

- Manistik mifologiyaga oid tushunchalar Xorazm "oshiq" turkum dostonlarida, ayniqsa, ko'p masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Dostonlarda namoyon bo'ladigan homiylik ikki katta guruhga bo'linadi. Bularning birinchisi arxaik mifologiyaga daxldor bo'lgan Xizr, pari kabi mifik obrazlar bo'lsa, ikkinchi so'ngi davrlarda paydo bo'lgan Ali, Oshiq Oydin singari tarixit-afsonaviy shaxslardir. Shunisi xarakterliki, Ali obrazi o'zbek folklorida keng yoyilgan bo'lsa, Oshiq Oydin faqat Xorazm dostonlariga xos manistik personajdir va biz bu obrazlarni o'z tadqiqotimizda ramzlar sifatida ko'rib, o'rganib chiqdik.

-Tadqiqotimizda "oshiq" turkum dostonlari yetakchi motivlarining mifologik ildizlarini aniqlashga doir muhim kuzatishlar amalga oshirildi. Xorazm dostonlarida yetakchi motivlarning tutgan o'rnini belgilashda an'anaviy epik formula sifatidagi funktsiyalarni ko'rsatib berish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tush motivi va uylanish motivi kabi an'anaviy motivlarning shakllanishida mifik tasavvurlar muhim asos vazifasini bajarganligi keng yoritib berildi.

- Ishimizdagi tush motivi ikki hil epik talqinda berilgan bo'lib, bulardan birinchisi homiyalar ishtirokidagi nikoh masalasi bilan aloqador. Ikkinchisi esa ruhiyat bilan daxldor holda tushning ta'biri natijasiga borib taqaladi, ya'ni, tushning inson hayotidagi o'rni haqidagi badiiy umumlashmasi beriladi.

-“Oshiq” turkum dostonlari insonda sog'lom hayotiy ehtiyojni va yaratuvchanlik kayfiyatini beradi. Dostonlarning to'liq shakllanishi uchun eas, poetik ko'chimlar rivoji, maishiy turmushning ideallashtiruvi, o'ziga xos ramzlar tizimi, syujetlar tipi kabi omillar kerak bo'ladi. Folklorshunosning tadqiqot uchun chuqur nazariy tayyorgarlik eposdagi matnlari ustida olib borilgan poetik tahlillar jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. U “oshiq” turkum dostonlardagi ramzlarning tarixiy ildizlari, badiiy tasvir vositalari tag ma'nolari, epik matndagi badiiyatni hosil qilishda kuchli mahoratga ega bo'lish lozim.

- “Oshiq” turkumlardagi ramzlar ham har bir sohasidagi kabi o'z tabiatidan kelib chiqib, o'ziga xos mezonlar asosida yondashadi. Folklordagi ko'pchilik ramzlarning tub poetik ma'nosi deyarli o'zgarishsiz avlodlar avlodlarga o'tadi. An'anaviylik, ommaviylik, bir janrga tegishli asarlar doirasida tub turg'unlik ma'nolilik asarlardagi yetakchi xossalar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ijodini o'rganish – xalqning tarixi, urf-odati, an'analari, o'y-kechinmalari, bugungi kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o'zini anglash, o'zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayoti tarzi dunyoqarashi aks etgan.

Ana shunday yuksak ma'naviyatimizning asosi hisoblangan xalq og'zaki ijodini tom ma'noda anglash uchun esa uning g'oyaviy-badiiy va janr xususiyatlari, poetik shakllanishi, tarixiy ildizlari hamda mifologik asoslarini atroflicha tadqiq etish lozim bo'ladi. "Oshiq" turkum dostonini o'rganishda bunday muayyan yondashuv uning jonli og'zaki ijro sharoitida o'ziga xos ravishda yashash, tarqalish xususiyatlari, poetik shakllanishi, tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liq ayrim hodisalarning aks etish darajasi, aniq asarlar syujet tizimida tutgan o'rni, badiiy vazifasi hamda mohiyatini alohida-alohida tadqiq etish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1.Rasmiy nashrlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: ma’naviyat, 2008. – B.30.
2. Mirziyoyev Sh.M. 19-oktabr kuni “Ta’lim va ma’rifat tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” mavzusi, 43-sessiyasidagi nutqi. – Toshkent, 2016. www.gazeta.uz
3. Mirziyoyev Sh.M. Biz kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, “O‘zbekiston”. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, “O‘zbekiston”. 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. 3 avgust kuni O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda ijodkor so‘zlagan nutqi. – Toshkent, 2017. www.lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz

2. Monografiyalar, to‘plamlar, qo‘llanmalar

1. Ашик Гариб ва Шоҳсанам. Азербайжан халқ дастанлари. 2-китоб. Бакы, 1961.
2. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. Toshkent. 1999. – B.7
3. Alpomish. – Toshkent, Sharq, 1998. 17-bet
4. Афандиев П. Азарбајчан шифахи халг адабијлатыю – Баки. 1981. Б.275-276.

5. Бунјадов Т. Асрдан келан сасдар. – Бакы: қанчлик, 1966. Б.42-43.
6. Басилов В.Н. Избранники духов. – Москва, 1986;
7. Велиев Б. Ставрополь туркменлеринин дессанлары. – Ашгабад, 1980. Б.46-48.
8. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin.- Qarshi: Nasaf, 1999.
9. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji-T.: Fan, 2006. 46-b
10. Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. - Toshkent, Fan, 2011.
11. Еремина В.И. Миф и народная песня // Мифб фольклор и литература. – Л.,1978. С.6.
12. Фромм Э. Забытый язык // Душа человека. – Москва: Политиздатб 1992.
13. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. – Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967. – 201-220 – betlar.
14. Jo'rayev M., Shamusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. – 104-bet.
15. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Узбекский народный героической эпос.- Москва: ОГИЗ, 1947. – с.23-58.
16. Imam Gazali. Ihya u Ulumid-din. Tercuman A. Serdaroglu. – Istanbul,1975. S.206.
17. Короглы Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. – Москва, 1983. С.248-316;
18. Kun N.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – В.20,145.
19. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuarlari. – Toshkent: Fan, 1979. В. 9-10.
20. Мифы народов мира. Москва, 1997.- с.13

21. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent, 1995. B. 80.
22. Murot O‘roz. Turk asotirlari // Sirli olam. – 1991. №9. B. 11
23. Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам. Нашрга тайёрловчи: З.Хусаинова. – Тошкент, 1959;
24. Oshiqnoma, IV kitob, Urganch, 2009.(Nashrga tayyorlovchilar S.R.Ro‘zimboyev, S.S.Ro‘zimboyev, G.Eshchanova)
25. Oshiq Mahmud. Avazxon. Toshkent, 1970. B.15
26. Oshiq Mahmud. Toshkent: Fan, 1970. -16b., 23b.,28b.
27. Парандовский Ян. Мифология. Москва, 1971.- с.26
28. Пропп В.Я. Мотив чудесного рождения. – С. 205-237
29. Qayumov O. O‘zbek folklorida pari obrazining badiiy talqini: Filol. Fanlar nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 1999.
- 30.
31. Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari. - Toshkent: Fan, 1985;
32. Ro‘zimboyev S. “Oshiq” turkumi dostonlarining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari. – Toshkent, 1987 – 4-bet
33. Ro‘zimboyev S. , Bekchanov Sh. Afsona va tarixiy haqiqat. Xiva, 2000.- 28 b.
34. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent;
35. Сенсарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хоразема; Домусульманские верования и обряды народов Средней Азиию – Москва, 1976;
36. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Hozirgi o‘zbek tilida bayon va so‘zboshi muallifi Voqijon To‘xliyev. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B.128-132.
37. Yusupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. – Toshkent, 1996. B.73
38. Якубаева С. Азербайджанское народное сказание “Ашыг Ғариб”. – Баку, 1968.

39. Золотарев А.М. Родовой строй и первобытная мифология. – Москваб 1964. С. 183-184.
40. Shaxsenem – Garip. - Ashgabad, 1959; Farıyb aşıık. Basmağa tayярлаган: X.Тажимуротов. – Ноқис, 1960;
41. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. – Moskva: Rus tili, 1980. B, 555.

3.Dissertatsiyalar

1. Akimov M. Azərbaycanlıanское средневековое ашигское творчество. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1983. – С.8.
2. Eshchanova G. “Oshiq G'arib va Shohsanam” dostonining variantlari: Filol. Fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 1994. B. 21.

4.Maқolalar

1. Abdullayev V. “Oshiq G'arib va Shohsanam ” // O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Toshkent, 1964. – 43-44-betlar;
2. Bola baxshi. “G'arib va Shohsanam” // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1938. - № 9 – 19-22 betlar;
3. Борхес Х.Л. Серашный сон // иностранная литература. – Москва, 1990.№ 3ю – С.179- 185.
4. Grintser P.A. Epos drevnego mira // Tipologiya i vzaimosvyazi literatur drevnego mira. – Moskva: Nauka, 1971. S.183
5. Якубаева С. “Ашыг Гариб” дастанынын башга халгларда олан вариантлары // Азарбајчан шифахи халг адабијлатына даир тадгигларю 1-китаб – Бақы. 1961. Б.215.
6. Eshonqulov J. Tush va uning o'rganilishi. // O'zbek tili va adabiyoti. – 2001. №2. B.54-60.
7. Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlaridagi epik klishelar va an'anaviy formulalarning o'ziga xosligi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1990. - №2. B. 39.

8. Ro‘zimboyev S. Xorazm xalfachilik an‘analari va shoira xalfalar ijodi // Ojiza. She‘rlar va dostonlar. – Toshkent, 2003. B. 8.
9. Shayxzoda M. “G‘arib va Shohsanam” dostoni haqida // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. – 1939. - № 9 – 23-24 betlar;
10. Turdimov Sh. Soqibulbul // Sog‘lom avlod uchun. – 1966. №2. B.23-24.
11. Юнг К.Г. К вопросу о подсознание // Человек и его символы. – Москва: Серебряные нити, 1997. – С. 339ю
12. Chorshanbiyev M. O‘zbek folklorida daraxt bilan bog‘liq totemistik qarashlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1998. №6. B. 32-33.